


**SALAYEV SAN'ATBEK KAMILOVICH
RAJAPOV XAYRULLA BEKDURDIYEVICH**

**BALIQCILIK SOHASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING
TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

MONOGRAFIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**SALAYEV SAN’ATBEK KAMILOVICH
RAJAPOV XAYRULLA BEKDURDIYEVICH**

**BALIQCILIK SOHASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

MONOGRAFIYA

Urganch – 2024

UO‘K: 334.012.32:639.2/.5

KBK: 65.9(5O')09+47.2

S 25

Salayev, S.K.

Baliqchilik sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish [Matn] / S.K.Salayev, X.B.Rajapov .- Xorazm: Khwarezm travel, 2023.- 188 b.

Mazkur monografiya baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, statistik guruhlash, tizimli tahlil, iqtisodiy-statistik va ekspert baholash, qiyosiy va SWOT tahlil, bevosita kuzatish, birlamchi ma'lumotlar to'plash, taqqoslash, segmentlash, anketa-so'rovi, ekonometrik modellar asosida baholash tahlili amalga oshirilgan. Xorazm viloyati baliqchilik tizimida KBXTni rivojlantirishni ekonometrik modellashtirish va prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Monografiyada keltirilgan ilmiy-amaliy tavsiya va takliflardan mintaqalarda baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga bag'ishlangan maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, baliqchilik tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha tarmoq va mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqishning uslubiy asoslarini takomillashtirish, "O'zbekbaliqsanoat" uyushmasi tizimidagi subyektlar faoliyatini rivojlantirish, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dasturlarni amalga oshirishda hamda qishloq xo'jaligi va iqtisodiyot yo'nalishida kadrlar tayyorlovchi oliy o'quv yurtlari tegishli fakultetlarida qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti, tadbirkorlik asoslari, baliqchilik iqtisodiyoti kabi fanlardan o'quv-uslubiy qo'llanma va darsliklarni takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Taqrizchilar:

T.Doschanov – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

J.K.Sauxanov – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Monografiya Urganch davlat universiteti Kengashining 2023-yil 28-sentabrdagi 2-son bayonnomasi asosida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9910-767-19-7

© S.K.Salayev, X.B.Rajapov, 2024.

©“Khwarezm travel” nashriyoti, 2024.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida kechayotgan keskin raqobatchilik va globallashtirish sharoitida baliq va boshqa dengiz mahsulotlariga bo'lgan talabning jadal oshishi kuzatilmoqda. "Bundan 60 yil avval dunyo aholisi jon boshiga 10 kg. baliq mahsulotlari iste'mol qilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 20,5 kg. ni tashkil qilgan holda mahsulotlar bozoridagi taklifning asosiy qismi kichik biznes subyektlari tomonidan ta'minlanmoqda. BMTning Bosh Assambleyasi 2022-yilni "Xalqaro kichik hajmli baliqchilik va akvakultura yili" deb e'lon qilinishi ko'p jihatdan baliqchilik sohasining ahamiyatini belgilab beradi¹. Jahonda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va iste'mol qilinadigan mahsulotlarning ozuqaviy tarkibining boyligi jihatidan baliq va baliq mahsulotlari alohida ahamiyat kasb etib borishi sharoitida mazkur sohaga oid kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ishlab chiqarishning asosiy manbai hisoblanmoqda.

Dunyoda aholi iste'mol savatining asosiy mahsuloti sifatida baliq go'shtiga talabning muttasil oshayotganligi sharoitida yovvoyi tabiatni asrab qolishda mayda suv havzalarida sun'iy baliq yetishtirish samaradorligini oshirish hamda baliqchilik sohasida kichik qayta ishlovchi biznes subyektlarni rivojlantirish borasidagi tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada baliq mahsulotlarini tashishning logistika infratuzilmasi tizimini takomillashtirish, ishlab chiqarish shart-sharoitlari va tashkil qilish shakllariga ko'ra moddiy-texnik bazasini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, eksport salohiyati va aholi farovonligini oshirishda sohada kichik biznes subyektlari rivojlanishi shakllari, hamkorligining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, sohada kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, baliqchilik klasterlarini rivojlantirish va investitsiyalar oqimini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish kabi ilmiy loyihalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonda intensiv texnologiyalar asosida baliqchilik sohasini rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirish, sohaning eksport salohiyatini mustahkamlash, mavjud havzalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish, soha ozuqa bazasini mustahkamlash, baliqchilikni zamonaviy tashkiliy shakllarda tashkil qilish hamda aholini sifatli va arzon baliq, baliq mahsulotlari bilan ta'minlash kabi yo'nalishlarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. "Baliqchilik sohasini rivojlantirish va sun'iy suv havzalarini intensivlashtirish hisobiga baliq yetishtirish hosildorligini 4-5 marta, qimmatbaho sovuq suv baliqlari yetishtiruvchi korxonalar quvvatini 2 marta, sohada klasterlarni 15 taga oshirish, 10 mingta aholi xonadonlarida kooperatsiya usulida intensiv baliq yetishtirishni yo'lga qo'yish"² kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu borada hududlarda baliqchilik sohasida kichik biznesni rivojlantirish, baliqchilik klasterlari va kooperatsiya mexanizmlari asosida aholi xonadonlarida kichik biznes subyektlarini tashkil etish evaziga aholi turmush darajasini oshirish, sohada kichik biznesni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, kichik biznes rivojlanishining ekonometrik modellarini ishlab

¹ Manba: <https://www.fao.org/3/cc0461ru/online/sofia/2022/world-fisheries-aquaculture-production.html>

² <https://lex.uz> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил 28-январдаги ПФ-60-сон "2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт Стратегияси тўғрисида"ги фармони.

chiqish va istiqbollarini belgilash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni keng miqyosda amalga oshirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2017-yil 1-maydagi PQ-2939-son "Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 6 noyabrda PQ-4005-son "Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020-yil 29-avgustdagi PQ-4816-son "Baliqchilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 3-martdagi PQ-5017-son "Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 13-yanvardagi PQ-83-son "Baliqchilik tarmog'ini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotimizdan maqsad hududda baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotlarimizda ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, statistik guruhlash, tizimli tahlil, iqtisodiy-statistik va ekspert baholash, qiyosiy va SWOT tahlil, bevosita kuzatish, birlamchi ma'lumotlar to'plash, taqqoslash, segmentlash, anketa-so'rovi, ekonometrik modellashtirish kabi usullardan keng foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar mintaqalarda baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga bag'ishlangan maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, baliqchilik tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha tarmoq va mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqishning uslubiy asoslarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflardan "O'zbekbaliqsanoat" uyushmasi tizimidagi subyektlar faoliyatini rivojlantirish, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dasturlarni amalga oshirishda hamda qishloq xo'jaligi va iqtisodiyot yo'nalishida kadrlar tayyorlovchi oliy o'quv yurtlari tegishli fakultetlarida qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti, tadbirkorlik asoslari, baliqchilik iqtisodiyoti kabi fanlardan o'quv-uslubiy qo'llanma va darsliklarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

I-BOB. BALIQCHILIK SOHASIDA KBXT NI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI.

1.1-§ Baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va obyektiv zarurligi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT) ni rivojlantirish mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, aholi daromadlarini oshirish, o'rta sinfni shakllantirishning muhim omili sifatida qaraladi. Shu sababdan KBXTni rivojlantirish davlatimiz iqtisodiy siyosatining strategik vazifasi sifatida qabul qilingan. Bugungi kunda ushbu soha nafaqat iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini jadallashtirishda, balki muhim ijtimoiy muammolar bo'lgan aholini kambag'allikdan chiqarish, o'zini o'zi band qilish mexanizmini samarali ishlashini ta'minlash, daromadlarni shakllantirish masalalarini hal etishda ham yetakchi o'rin tutmoqda.

Tadbirkorlik va biznes tushunchalariga berilgan ta'riflardan kelib chiqib, bu tushunchalar bir-biridan quyidagi jihatlari bilan farq qilishini ko'rib o'tish mumkin:

Biznes bozor iqtisodiyotining barcha ishtirokchilari orasidagi munosabatlarni qamrab oladi va faqat ishbilarmonlarning emas, balki iste'molchilarning, yollangan ishchilarning, davlat tizimi xizmatchilarining ham xatti-harakatlarini o'z ichiga oladi. Bu holatda, biznes so'zining sinonimlari bo'lib, ma'lum ma'noda tijorat, savdo-sotiq kabi tushunchalar hisoblanadi. Umumiy ko'rinishda biznes – bu kishining bozor munosabatlari tizimidagi ishchanlik faolligidir.

Tadbirkorlik faoliyati biznesning bir shakli sifatida namoyon bo'ladi va uning turli sohalarida amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik - tadbirkorlik faoliyatini yuritish, amalga oshirish san'atidir. Tadbirkorlik bu fikrlash jarayonidir. Chunki, tadbirkor o'zi ham bir g'oyani miyasida loyihalaydi, tadbirkorlik operatsiyalarini fikran bajaradi³.

Tadbirkorlik faoliyatining tarixi uzoq o'tmishga borib taqalsada, uning ilmiy tushunchasi VII asrga kelib paydo bo'lgan va mulkdor degan tushuncha bilan bir xil tushunilgan. Mulkchilikning turli shakllariga asoslangan, raqobatli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni tashkil etish, boshqarish turli xil shakl va usullarda olib boriladi. Ularning ichida tadbirkorlik faoliyati alohida o'rin tutadi va bu faoliyat orqali mulkchilikning turli shakllarini iqtisodiy jihatdan ro'yobga chiqarish ya'ni foyda olish amalga oshiriladi⁴.

O'zbekistonlik olimlar A.O'lmasov, M.Sharifxo'jayevlar: "Tadbirkorlik - bu sohibkorlik bilan foyda olishga qaratilgan faoliyat" – deb hisoblashadi.

Quyidagi 1.1.1-jadvalda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'rtasidagi tafovutlar keltirilgan.

Qozog'istonlik bir guruh olimlar tadbirkorlikni 4 ta unsurga ajratishadi: ishlab chiqarish, tijorat. moliyaviy va boshqaruv faoliyati⁵.

³ Т.Дўстжонов, С.Салаев. Иқтисодиёт ва тadbirkorlik асослари. Ўқув қўлланма. - Т.: «ИQTISOD-MOLIYA», 2006, 351 бет.

⁴ В.У.Ходиев, Ш.Ш.Шодмоннов. Иqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent-2017. 276-277 б.

⁵Т.Дўстжонов, С.Салаев. Иқтисодиёт ва тadbirkorlik асослари. Ўқув қўлланма. - Т.: «ИQTISOD-MOLIYA», 2006, 351 бет.

1.1.1 – jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'rtasidagi tafovutlar⁶

➤ Kichik biznes – huquqiy shaxs sifatida yoki korxona tashkil etib tadbirkorlik bilan shug'ullaniladi va ishchilarning soni yirik, o'rta va kichik biznes turlariga ajratiladi.	➤ Xususiy tadbirkorlik – xususiy korxona va yakka tartibdagi tadbirkorlik shakllarida amal qiladi. Agar xususiy korxona huquqiy shaxs bo'lsa, yakka-tartibdagi tadbirkorlar jismoniy shaxs sifatida ish yuritadilar.
--	---

Quyidagi 1.1.2-jadvalda xorijiy va mahalliy olimlarning kichik biznes va tadbirkorlik faoliyat turlari va shakllarini ta'riflashdagi yondashuvlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari keltirib o'tildi.

1.1.2 – jadval

Tadbirkorlik faoliyatining turlari va shakllari⁷

№	Tadbirkorlik faoliyatining turlari va shakllari	Ta'rif
1.	Ishlab chiqarish tadbirkorligi	Ishlab chiqarish tadbirkorligini tadbirkorlikning asosiy turi desak, xato bo'lmaydi. Zero, bunday tadbirkorlik faoliyati tufayli mahsulot, tovarlar ishlab chiqariladi, xizmat ko'rsatiladi, ma'lum ma'naviy qadriyatlar yuzaga keladi.
2.	Tijorat tadbirkorligi	Tadbirkorlik faoliyatining bu turi tovar va xizmatlarni sotib olish va sotish jarayonlarini amalga oshirish bilan ta'riflanadi, chunki bu sohada qisqa vaqt orasida daromad olish mumkin. Agar ishlab chiqarish korxona samaradorligining 10-12% ini tashkil qilsa, tijorat faoliyati esa bu ko'rsatkichni yana 20-30%ga oshiradi.
3.	Moliyaviy tadbirkorlik	Moliyaviy tadbirkorlik tadbirkorlik sohasining alohida olingan turiga kiradi. Uning faoliyat sohasi qiymatlarni almashinishi va almashtirilishidan iborat. Moliyaviy faoliyat ishlab chiqarish, tijorat sohasini qamrab olishi mumkin. Tijorat banklari va fond birjalari moliyaviy tadbirkorlik uchun faoliyat ko'rsatuvchi maqom bo'lib xizmat qiladi.
4.	Maslahat tadbirkorligi	Ma'lum bir sohada o'z mutaxassisligi bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi kishiga maslahatchi deyiladi. Chet ellarda boshqaruv bo'yicha pulli maslahat konsalting deb yuritiladi. Iqtisodiyot va boshqaruv bo'yicha Yevropa Federatsiyasi maslahatchilar Assotsiatsiyasining ta'rificha menejment-konsalting boshqaruv bo'yicha muammo va imkoniyatlarni aniqlash, ularga baho berish, tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda xolisona maslahat berish hamda yordam ko'rsatishdir.
5.	Yakka tartibdagi tadbirkorlik	Shaxsiy mulkka asoslanadi, ishlab chiqarishni tashkil qilish o'zi yoki oila a'zolari mehnati asosida amalga oshiriladi. Yuridik shaxs tashkil etmagan holda jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik

⁶ Muallif ishlanmasi.

⁷ M.R.Boltaboyev, M.S.Qosimova, Sh.J.Ergashxodjayeva, B.K.G'oyibnazarov, A.N.Samadov, R.Xodjayev. Kichik biznes va tadbirkorlik. O'quv qo'llanma. –T.: 2011.-274 bet., B.Y.Xodiyev, Sh.Sh.Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: “Barkamol fayz media”, 2017. 784 bet., Малый бизнес и предпринимательство: Учебник для студентов высших учебных заведений, обучающихся по экономическим направлениям и специальностям./ Ё.Абдуллаев, Ш.А.Юлдашев; -Ташкент. “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2008. 340 с., Т.До'schanov, S.Salayev. Iqtisodiyot va tadbirkorlik asoslari. O'quv qo'llanma, T., “IQTISOD-MOLIYA”, 2006-y. 326 b. https://vuzlit.com/1771662/posrednicheskoe_predprinimatelstvo sayti [ma'lumotlari asosida](#) asosida muallif ishlanmasi.

		faoliyatini amalga oshirilishidir.
6.	Xususiy tadbirkorlik	Bu fuqarolar (alohida fuqaro) tomonidan o'zlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida amaldagi qonunchilik asosida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo'jalik faoliyatidir ⁸ .
7.	Jamoa tadbirkorligi	Bu bir guruh fuqarolarning o'zlariga ma'qul bo'lgan mulkchilik shakllarida jamoalarga birlashib, jamoa korxonalarini tashkil qilishlari va shu asosda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishlaridir.
8.	Oilaviy tadbirkorlik	Oilaviy tadbirkorlik o'z ishtirokchilarining ixtiyoriyligiga asoslanadi. Oilaviy tadbirkorlik yuridik shaxs tashkil etgan yoki tashkil etmagan holda amalga oshirilishi mumkin.
9.	Sug'urta tadbirkorligi ⁹	Tadbirkorning qonun va shartnomaga muvofiq sug'urtalangan shaxsga kutilmagan ofat natijasida etkazilgan zararni, mol-mulki, qimmatbaho buyumlari, sog'lig'i, hayoti va boshqa turdagi yo'qotishlarni ma'lum haq evaziga qoplashni sug'urta shartnomasini tuzish orqali kafolatlashi. Sug'urta tadbirkorning sug'urta badalini faqat ma'lum sharoitlarda to'lashidir. Bunday holatlarning yuzaga kelish ehtimoli past bo'lganligi sababli, badallarning qolgan qismi tadbirkorlik daromadini tashkil qiladi. Sug'urta biznesi eng xavfli faoliyat turlaridan biridir.
10.	Davlat tadbirkorligi	Davlat organlari tomonidan tashkil etilgan va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq davlat mulkini boshqarish vakolatiga ega bo'lgan korxona nomidan xo'jalik yuritish shakli.
11.	Sheriklik tadbirkorligi	Bu ikki yoki undan ko'p shaxs tomonidan tashkil etilgan tijorat tashkiloti bo'lib, uning boshqaruvida barcha sheriklar sheriklikni boshqarish to'g'risidagi kelishuvda belgilangan hajm va chegarada ishtirok etadi. Biznes ishtirokchilarining har biri o'z mablag'lari, mehnat va malakasini umumiy ishga qo'shadi va korxonaning daromadi va xarajatlarini o'rtada bo'lishadi.
12.	Hamkorlik tadbirkorligi	Bu foyda olish maqsadida qo'shma biznes uchun birlashadigan sheriklarning ixtiyoriy birlashmasi.
13.	Korporativ tadbirkorlik.	Bu resurslarni sotib olish, aktivlarga egalik qilish, mahsulot ishlab chiqarish va sotish, qarz olish, kreditlar berish, sudga murojaat qilish va sudga da'vo qilish mumkin bo'lgan biznes shakli.
14.	Vositachi tadbirkorligi	Bunda tadbirkorning o'zi mahsulot ishlab chiqarmaydi va sotmaydi, balki tovar ayirboshlash jarayonida hamda tovar-pul muomalalarida vositachi, bog'lovchi uya vazifasini bajaradi.
15.	Baliqchilik tadbirkorligi. Muallif ta'rifi	Bu xususiy, jamoaviy, oilaviy va yakka tadbirkorliklarni o'z ichiga olib, asosan baliq va baliq mahsulotlari yetishtirish va sotish, baliq urug'lari yetishtirish va sotish, baliq va baliq mahsulotlarini qayta ishlash va sotish, yetkazib berish faoliyatlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Biz tadqiqotlarimiz davomida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyat turlari va shakllariga berilgan ta'riflarni umumlashtirgan holda respublika va viloyatimizning milliy, an'anaviy, tarixiy jihatlarini, aholini mentalitetini hisobga olgan

⁸ Малый бизнес и предпринимательство: Учебник для студентов высших учебных заведений, обучающихся по экономическим направлениям и специальностям./ Ё.Абдуллаев, Ш.А.Юлдашев; -Ташкент. "ИҚТИСОД-МОЛИЯ", 2008. 340 с.,

⁹ https://vuzlit.com/1771662/posrednicheskoe_predprinimatelstvo

holda baliqchilik tadbirkorligi tushunchasiga mualliflik yondashuvini keltirib o'tdik: Baliqchilik tadbirkorligi - bu xususiy, jamoaviy, oilaviy va yakka shakldagi tadbirkorlik bo'lib, asosan baliq va baliq mahsulotlari yetishtirish, qayta ishlash, taqsimlash, sotish va yetkazib berish faoliyatlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir (1.1.2-jadval).

Bugungi kunda tadbirkorlik faoliyati nazariyasining rivojlanishida mazkur sohani ilmiy jihatdan tadqiq etishdagi alohida bosqichlar shartli ravishda ajratiladi.

Dastlabki bozor munosabatlari shakllanish davri – XVIII asrda paydo bo'lib, u tadbirkor tomonidan amalga oshiriladigan tavakkalchilik jarayonlari bilan bog'liq. Aynan iqtisodiyot fanida tadbirkorlik faoliyatiga oid dastlabki tadqiqotlar ham shu davrda R.Kantilon, A.Tyugro., F.Kene., A.Smit va J.B.Sey asarlarida amalga oshirilgan.

J.B. Seyning iqtisodiy qarashlarida “Tadbirkorlar va mehnatkashlar faoliyati boylik manbai hisoblanadi”.

J. B. Sey yer, mehnat va kapital qiymat yaratishning teng omillari deb hisoblagan. U uchta asosiy manbaga ko'ra, daromadning uch turini aniqladi: ish haqi (mehnat uchun), foiz (kapital uchun to'lovlar) va renta (yer uchun to'lovlar).

Amerikalik iqtisodchi J.B.Klark (1847-1938) J.B.Seyning “uchlik formulasiga” o'zgartirish kiritgan. Klaqssik iqtisodchilar fikriga ko'ra, ishlab chiqarishda doimo to'rt omil ishtirok etadi. Bular: 1) kapital, 2) ishlab chiqarish vositalari va yer, 3) tadbirkorlik qobiliyati, 4) mehnat.

Amerikalik iqtisodchi R.Xizrich, “Tadbirkorlik o'z qiymatiga ega bo'lgan qandaydir yangi narsani yaratish jarayoni, tadbirkor esa buning uchun barcha zarur vaqti va kunini sarflaydigan, barcha moliyaviy, psixologik va ijtimoiy xavf-xatarni o'ziga olib, evaziga mukofot sifatida pul va erishilgan yutug'idan qanoatlanuvchi shaxs”¹⁰, - deya ta'rif bergan.

Ingliz professori A.Xoskin esa “ishni o'z hisobidan olib boruvchi, biznesni boshqarish bilan shaxsan shug'ullanuvchi va kerakli vositalar bilan ta'minlanish uchun shaxsiy javobgarlikka ega, qarorni mustaqil qabul qiluvchi shaxs yakka tartibdagi tadbirkor bo'ladi”¹¹, – deya izoh bergan.

Fransuz iqtisodchisi R.Kantilon tadbirkorlikning muhim tavsifi xususiyatlaridan biri sifatida tavakkalchilikni ajratib ko'rsatadi. Uning fikricha, tadbirkor–voqea va hodisalarni oldindan ko'ra bilish xususiyatiga ega bo'lgan, o'z zimmasi-ga barcha mas'uliyatni olib tavakkal qiluvchi, o'z xatti-xarakatlari tufayli daromad olishga umid qiluvchi va har qanday yo'qotishlarga tayyor bo'lgan shaxsdir. R.Kantilondan keyin neoklassik maktab namoyondalari o'z asarlarida o'ziga xos tavakkalchilik asosida raqobatlashib, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona egasini tadbirkor deb hisoblay boshladilar.

Tadbirkorlik faoliyati to'g'risidagi nazariyalar rivojlanishining keyingi bosqichida tadbirkorlikning asosiy xususiyati sifatida innovatsion faoliyat ajratilib ko'rsatiladi. Bu oqimning asoschisi Yu.Shumpeter bo'lib, uning fikricha, iqtisodiy o'sishning negizida tadbirkorni ishlab chiqarish omillarining yangi kombina-


¹⁰ Р.Хизрич., С.Питерс. Предпринимательство.М., 1991, 256 с. .

¹¹ М.Р.Болтабоев, М.С.Қосимова, Ш.Ж.Эргашходжаева, Б.К.Ғойибназаров, А.Н.Самадов, Р.Ходжаев. Кичик бизнес ва тadbirkorlik. Ўқув қўлланма. –Т.: 2011.-274 бет.

tsiyasini ishlatishga, qo'llashga bo'lgan intilishi yotadi va ushbu intilishning natijasi innovatsiya, yangiliklar hisoblanadi¹².

Yuqorida keltirib o'tilgan nazariyalar rivojlanishi uchinchi bosqichining asosiy g'oyasi tadbirkorning muhim shaxsiy fazilatlari, jumladan izlanish, tadqiqot olib borish hisoblanadi. Bu oqim namoyondalari F.Xayek va L.Mizes tadbirkorlikka yangi iqtisodiy imkoniyatlarni izlab topish va tadqiq qilish deb qaraydi, shu bilan birga faoliyati izlanish tarzida kechadigan har qanday shaxsni bo'lg'usi tadbirkor deb hisoblashadi¹³.

Quyidagi 1.1.1–rasmda O'zbekistonda tadbirkorlikning shakllanish bosqichlarini keltirib o'tdik.



1.1.1-rasm. O'zbekistonda tadbirkorlikning shakllanish bosqichlari¹⁴

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev – “Bizning yana bir muhim vazifamiz-kichik biznes va tadbirkorlik sohasini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini, yurtimizda tinchlik va barqarorlik, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashdan, bu soha ulushini yanada oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishdan iborat. Nega deganda, tadbirkor nafaqat o'zini va oilasini, balki xalqni ham, davlatni ham boqadi. Men takror bo'lsa ham, aytishdan hech qachon charchamayman, ya'ni **“Xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi”**. Shuning uchun bundan keyin tadbirkorlikni rivojlantirishga to'sqinlik qilish-davlat siyosatiga, Prezident siyosatiga to'sqinlik qilish, deb baholanadi. Prinsipial jihatdan g'oyat muhim bo'lgan bu pozitsiyamizni yana bir bor alohida ta'kidlab o'tishni muhim va zarur deb hisoblayman¹⁵”–deya ta'kidlaganlar.

¹² Шумпетер Й. Теория экономического развития. М.: - Прогресс, 1982

¹³ B.Y.Xodiyev, Sh.Sh.Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent-2017. 276-277 b.

¹⁴ B.Y.Xodiyev, Sh.Sh.Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent-2017. 276-277 b., Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академиясининг академиги С. Ғуломов умумий таҳрири остида. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlik: ташкил этиш, режалаштириш, бошқариш. Т., “Fan va texnologiya” нашриёти, 2005 й., 444 б., Hamroyev, Halim Rajabovich. Tadbirkorlik asoslari: kasb ta'limi (iqtisodiyot) yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'l. H. R. Hamroyev; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. -T.: Yangi nashr, 2010. - 360 b., Т.Дўстжонов, С.Салаев. Иқтисодиёт ва тadbirkorlik asoslari. Ўқув қўлланма. - Т.: «IQTISOD-MOLIYA», 2006, 351 бет. маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси.

¹⁵Шавкат Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демократик ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент; “Ўзбекистон” НМИУ, 2016 й. 15-бет.

O'zbekistonda KBXTning jadal rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu asosda aholining bandligi va farovonligini oshirish muammolarini hal etish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish sharoitida iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, KBXT milliy iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish, tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, xususiyl mulkni himoya qilish, jamiyatning ijtimoiyl barqarorligini asosi hisoblanuvchi o'rta mulkdorlar sinfini yaratish, raqobat muhitini vujudga keltirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga viloyat, shahar va tumanlarni ularning tabiiyl-geografik imkoniyatlari, dehqonchilik madaniyati va yer sharoitini nazarda tutgan holda, hududiy manfaat va ehtiyojlar nuqtayi nazaridan iqtisodiy rivojlantirish choralarini ko'rish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiyl mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4848-son farmoni qabul qilingan, eng avvalo, xususiyl mulkni huquqiy himoya qilishni yanada kuchaytirishga, KBXT uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga va har tomonlama qo'llab-quvvatlashga, YAIMda ushbu sohaning ulushini oshirib borishga, bandlik muammosini hal qilishga asos bo'lmoqda¹⁶.

KBXTni tashkil etish va rivojlantirish bilan bog'liq hisob raqamlarni ochish, ro'yxatdan o'tish, kredit foiz stavkalarining yuqoriligi, xar xil ruxsatnoma, mahsulotlar sertifikatitsiyasi va litsenziyalar uchun xar xil rasmiyl va norasmiyl to'lovlar mavjudligi ham yana bir muhim muammolardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida "Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi"¹⁷, deb belgilangan.

Xususiyl mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin¹⁸.

Mamlakatimiz iqtisodiyotni erkinlashtirish va liberallashtirish sharoitida agrar tarmoqda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yuritish shakllarini tashkil qilish va rivojlantirish uchun zaruriyl shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Aholini oziq-ovqatga kundan kun o'sib borayotgan talabini qondirish uchun qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlari qatori baliqchilik sohasini rivojlantirish

¹⁶ "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. №2, март-апрель, 2017 йил. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikning hozirgi xolati. Boboev Akmal Chorievich.

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent - "O'zbekiston" - 2018. 75-b.

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent - "O'zbekiston" - 2018. 75-b.

ham hozirgi kunda asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Respublikada baliqchilik tarmog'ini jadal rivojlantirish, baliq mahsulotlari ishlab chiqarishning zamonaviy va innovatsion uslublarini joriy etgan holda hajmlarini oshirish, sohani tartibga solish bo'yicha bir qator qonun hujjatlari qabul qilinib, ularning ijrosini sifatli va puxta ta'minlash choralari ko'rilmogda. Shu bilan birga, intensiv usulda baliq yetishtirish bo'yicha ishlarga yetarli darajada e'tibor qaratilyapti, hududlarda baliqchilik tarmog'ini rivojlantirishda yuzaga kelayotgan muammolarni hal etish, baliqchilik xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan ishlarni jadallashtirish hozirgi kunni dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Baliqchilik xo'jaliklariga birlashtirilgan suv havza maydonlaridan ilmiy yondashuv asosida samarali foydalanish, ularning meliorativ holatini yaxshilash, shuningdek, resurs tejankor texnologiyalar va innovatsiyalarni keng ko'lamda joriy qilish ishlariga yetarlicha e'tibor berish, sun'iy suv havzalari hosildorligini oshirish uchun baliqchilik xo'jaliklarining mineral o'g'itlarga bo'lgan talabi to'liq qondirish, mineral o'g'itni boshqa muqobil o'g'itlar bilan almashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, baliqni intensiv usulda yetishtirish, ovlash va qayta ishlash uchun zarur asbob-uskuna, anjom va mexanizmlarni mahalliy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish zarur. Tadbirkorlarning ushbu faoliyat bilan shug'ullanishiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-apreldagi PQ-3657 (Baliqchilik tarmog'ini jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida) va 2018-yil 6-noyabrdagi PQ-4005 (Baliqchilikni yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida tadbirkorlikni rivojlantirish to'g'risida) qarorlari asos bo'lmoqda. Shu sababli tadbirkorlar safi yildan-yilga ko'payib, xalq xo'jaligining turli sohalarida faoliyat ko'rsatmoqdalar va bu esa mamlakatimizda katta o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan maxsulot (xizmat)larning umumiy hajmi 2020-yilda 261892,2 milliard so'mni, 2021-yilda esa 317781,6 milliard so'mni tashkil qildi. 2021-yilda 2020-yilga nisbatan 1,21 foizga o'sish kuzatildi. Xorazm viloyati bo'yicha qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan maxsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 2020-yilda 16 957,7 milliard so'mni, 2021-yilda esa 20327,9 milliard so'mni tashkil qilib, 2021-yilda 2020-yilga nisbatan 1,2 foiz o'sish kuzatildi.

Hozirda pandemiya sharoitida aholining go'sht va go'sht mahsulotlariga bo'lgan talabining ortishi, o'z navbatida ushbu mahsulotlarning tannarxi oshib ketishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida aholi talabini qondirish maqsadida parranda va baliq mahsulotlari bilan ta'minlashni taqozo etadi. Buning yechimi sifatida parrandachilik va baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirish va takomillashtirish zaruriyatini taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida yangi ishchi o'rinlarning yaratilishi, mamlakatimiz bozorlariga baliq va baliq mahsulotlarining chiqarilishini oshishiga hamda narxlarning tushishiga sabab bo'ladi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi koronavirus pandemiyasi davrida iqtisodiyot tarmoqlari orasidagi eng kam zarar ko'rib faoliyat ko'rsatayotgan tarmoqlardan biridir.

Xalqimiz yetti xazinaning biri deb biladigan parrandachilik va baliqchilik

bo'yicha ishga solinmagan imkoniyatlar ko'pligi, bu tarmoqlar aholini go'sht va tuxum bilan ta'minlash, oilalarga daromad manbai yaratishda muhim o'rin tutadi. Agrofirmalar tashkil etish orqali bu mahsulotlarni eksport qilish ham mumkin.

O'zbekistonda baliqchilik 1960-yilgacha asosan Orol dengizi havzasida amalga oshirilgan, yiliga 15000 tonnagacha baliq ovlangan. Orol dengizida suv sathi pasayib ketishi natijasida O'zbekiston baliq yetishtirish uchun boshqa suv havzalaridan foydalanmoqda. Natijada, Sovet Ittifoqi tomonidan import qilingan baliq mahsulotlarini hisobga olganda O'zbekistonda yillik jon boshiga hisoblangan iste'mol 10-12 kg tashkil qilardi¹⁹. Sovet Ittifoqi tarqab, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, baliqchilik sohasida iqtisodiy qiyinchilik tufayli ahvol yomonlashdi, natijada ovlangan baliqlar hajmi va turlari kamayib ketdi. O'zbekistonda 2007-yilgacha akvakulturani rivojlantirish ustuvor yo'nalishi bo'lmagani texnologiya, menejment, ta'lim va kreditga layoqatlilik borasida jiddiy kamchiliklarga olib keldi.

Aholi jon boshiga yillik baliq iste'moli 1 kg.dan kamayib ketgan. Orol Dengizi quriy boshlashidan oldin Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi baliqchilik sohasida muhim rol o'ynagan. Qoraqalpog'iston Respublikasi na-faqat O'zbekiston, balki qo'shni sobiq Sovet Ittifoqi davlatlarini ham baliq va baliq mahsulotlari, jumladan baliq konservalari, muzlatilgan baliqlar bilan ta'minlagan.

Baliqlarning haddan tashqari ko'p ovlanishi yer yuzidagi milliardlab odamlar uchun protein manbai bo'lgan baliqlarni yo'q qilishga xavf solmoqda. Keng ko'lamlı sanoat baliqchiligi hajmlarining ortishi, shuningdek baliq resurslardan foydalanish zarur darajada tartibga solinmaganligi ushbu muammoni yanada o'tkirlashtirmoqda²⁰.

O'zbekistonda 2020-yilda 6908 ta baliqchilik xo'jaliklari ro'yxatga olingan. Respublikada yetishtiriladigan baliqlarning eng katta ulushi sobiq ittifoq davrida tashkil qilingan xo'jaliklar hisobiga to'g'ri keladi. Kichik baliqchilik xo'jaliklari asosan suv bilan ta'minlash darajasi past bo'lgan, shu bilan birga qishloq xo'jaligi uchun yaroqsiz bo'lgan hududlarda faoliyat yuritishga majbur bo'lganliklari sababli, baliq yetishtirishdagi ulushlari past ko'rsatkichga ega. Shuningdek, kichik baliqchilik xo'jaliklariga urug'lar, ya'ni chavoq baliqlar 8 ta katta xususiy baliqchilik xo'jaliklarida yetishtirilib respublika bo'yicha tarqatilishi ham baliq yetishtirishni rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi.

Dudlangan baliq tayyorlash bilan asosan baliq yetishtiruvchilardan ovlangan baliqlarni sotib olib uy sharoitida shug'ullaniladi, undan so'ng mahalliy bozorlarga olib chiqib sotiladi.

Xorazm viloyatining asosiy baliq bozori Urganch shahrida joylashgan. Shu bilan birga tuman va shahar markaziy bozorlarida ham o'z faoliyatini olib boradi. Shuningdek, Respublikamiz poytaxti Toshkent shahri, viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasiga ham baliq va baliq mahsulotlari tarqatiladi. Mazkur

¹⁹ Ўзбекистон Республикасида Қорақалпоғистоннинг ҳудудий ривожланиш имкониятларини тадқиқот қилиш. Якуний ҳисобот қисқача мазмуни. Япония Халқаро Ҳамкорлик Агентлиги (ЈІСА), 2011 йил феврал.

²⁰ Инсон тараққиёти. Дарслик. И.ф.д., проф. Қ.Х. Абдурахмонов таҳрири остида. – Т.: Иқтисодиёт, 2013. – 331-бет.

jarayon asosan kuzdan bahorgacha davom etadi. Baliq va baliq mahsulotlarini saqlash va sotish uchun zaruriy infratuzilmalarning etarli darajada shakllanmaganligi sababli yoz oylarining issiq kunlarida savdo nisbatan past bo'ladi. Yoz oylarida baliq va baliq mahsulotlari bozor hududining sanitariya – gigiyena talablariga javob ber-masligi, sovutish moslamalarining tanqisligi tufayli tez chiriy boshlaydi. Shu sababli ham xaridorlar tomonidan yoz oylarida baliq sotib olish sezirlarli darajada pasayadi.

Xorazm viloyatida KBXT umumiy holatini barcha hududlar va iqtisodiy tarmoqlarida ijobiy sur'atlar bilan rivojlanayotgan barqaror soha sifatida baholash mumkin. Viloyat aholisi o'zining ishbilarmonligi va tashabbuskorligi bilan boshqa qo'shni davlatlar aholisidan ajralib turadi. Bu esa o'z navbatida mintaqaning asosiy raqobat ustunliklaridan biri hisoblanadi.

Xorazm viloyatida yer osti suvlari ko'tarilishi hammamizga ma'lum, bundan esa o'z navbatida tadbirkorlikni rivojlantirishda samarali foydalanish imkoniyatlarini topish va ularni amaliyotga tatbiq etish dolzarb masala hisoblanadi. Bu borada sun'iy ko'llarni tashkil etib, ularda baliqchilikni rivojlantirishning innovatsion usullarini, ya'ni baliqlarni urchitish, ratsional oziqlantirish, rivojlanish jarayonini qishda ham davom etish jarayonini ta'minlashni yo'lga qo'yish mumkin. Bu borada mahalliy mutaxassislar va viloyatning ilmiy salohiyatidan samarali foydalanish kerak bo'ladi.

Tadbirkorlar imkoniyati va salohiyatidan samarali foydalangan holda baliq va baliq mahsulotlarini saqlash, transportirovka qilish, qayta ishlash va qadoqlash ishlarida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash asosida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish muhimdir.

2020-yil 8-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish hamda byudjet tushumlarini so'zsiz ta'minlash chora-tadbirlari muhokama qilindi²¹.

Ushbu videoselektorda Davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich "Pandemiya kuchli bo'lib chiqishning birdan bir yo'li – kichik biznes va tadbirkorlikka qulay muhit yaratish" lozimligini aytib o'tdilar²². Murakkab sharoitga qaramay, ushbu sohani har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur choralar ko'rilmogda, lekin ba'zi hududlarda bu boradagi ishlar qoniqarli emasligi ta'kidlandi.

Karantin talablarining yumshatilishi natijasida korxonalar faoliyati tiklandi. Biroq 69 mingga tadbirkorning faoliyatini jonlantirish kerakligi, joylardagi rahbarlar 9 oy yakuni bo'yicha ularning kamida 70 foizini, yil yakuniga qadar to'liq quvvat bilan ishlashiga mas'ul va javobgarligi belgilandi²³.

Mamlakat miqyosidagi mutasaddilarga hududlarga borib tushumi kamaygan korxonalar bilan tizimli ishni yo'lga qo'yish, tadbirkorga sharoit yaratib berish, jumladan, komunal xizmatlar ta'minotidagi uzulishlarni bartaraf etish, yo'l, kredit olish bilan bog'liq masalalarni yechishga yordam berish lozimligi ko'rsatib o'tildi.

²¹ Янги Ўзбекистон газетаси, №126 (126), 2020 йил 9 июл.

²² Янги Ўзбекистон газетаси, №126 (126), 2020 йил 9 июл.

²³ Янги Ўзбекистон газетаси, №126 (126), 2020 йил 9 июл.

Faoliyat boshlayotgan kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning mutlaqo yangi tizimini ishlab chiqish topshirig'i berildi. Bunda tadbirkorni maxsus kurslarda o'qi-tish, subyektni ro'yxatdan o'tkazish, asbob-uskuna sotib olish xarajatlarining bir qismiga grant ajratish nazarda tutiladi. Tizimning vertikal ijrosini ta'minlash maqsadida hozirda respublika darajasida faoliyat yuritayotgan Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tuman darajasigacha tushirish zarurligi qayd etildi.

Bu belgilangan choralar va bajarilishi lozim bo'lgan ishlar KBXT davlatimiz e'tiborida ekanidan dalolatdir.

2020-yilda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,1 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarida ko'rsatilgan xizmatlar – 103,1 % ni, o'rmon xo'jaligi – 101,5 % ni, baliqchilik xo'jaligi – 102,7 % ni tashkil qildi²⁴.

Baliq ovlash ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilish jarayonida, ovlangan baliqlar hajmining asosiy qismi 10185 t. yoki umumiy ovlangan hajmdan 64,9%i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda qayd etildi.

2021-yilning yanvar-sentyabr oylari natijalari bo'yicha baliq ovlashning eng kam hajmi 4 861 t. yoki umumiy ovlangan hajmdan 6,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida kuzatildi²⁵.

Tadqiqotlarimiz davomida xorijiy davlatlar va O'zbekistonda akvakultura tushunchasining xususiyatlariga berilgan berilgan ta'riflarni o'rganib, o'rganilgan ta'riflarni yagona bir jadvalda aks ettirdik (1.1.3-jadval).

Rossiyalik olim Interesova Ye.A. o'z tadqiqotlarida akvakulturaga quyida-gicha ta'rif bergan: Akvakultura (lot. aqua-suv va cultum-yetishtirish, o'stirish) – tabiiy va sun'iy sharoitda suvda yashovchi organizmlarni (baliqlar, umurtqasizlar, suv o'tlar) ko'paytirish va yetishtirish. Shu bilan birga, yetishtiriladigan obyektlarning ko'pchiligi (ayniqsa, Rossiyada) baliqdir. Xorijlik olim Emi Tikkanen esa o'zining tadqiqotlarilarida akvakulturaga boshqacha ta'rif bergan: Baliq yetishtirish, baliqchilik yoki dengizchilik deb ham ataladigan akvakultura, tijorat, rekreatsion va ilmiy maqsadlarda suv o'simliklari, hayvonlar va boshqa organizmlarni ko'paytirish va parvarish qilish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib biz tadqiqotlarimiz davomida akvakulturaga o'z ta'rifimizni shakllantirdik: Akvakultura: (lot. aqua-suv va sultum-yetishtirish, parvarishlash) - suv havzalarining mahsuldorligini oshirish hamda ulardan unumli foydalanish maqsadida insonlar nazorati ostidagi sharoitda suv organizmlarini (baliq, mollyuskalarlar, qisqichbaqasimonlar, suv o'tlari va boshqa) ko'paytirish, parvarishlash va yetishtirish, ishlab chiqarishni intensivlashtirish uchun naslchilik jarayoniga aralashuvni o'z ichiga oladigan qishloq xo'jaligi tarmog'i bo'lib, dunyoda oziq-ovqat havfsizligini ta'minlashda istiqbolli yo'nalish sifatida qaralayotgan muhim soha hisoblanadi.

²⁴ <https://stat.uz/uz/> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti.

²⁵ <https://stat.uz/uz/> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti.

1.1.3 – jadval

Xorijiy davlatlar va O‘zbekistonda akvakultura tushunchasining xususiyatlari²⁶

I.V. Musayev va boshqalar.	Akvakultura: suvda yashovchi organizmlarni yetishtirish, yakka tartibdagi yoki korporativ mulk mavjud bo‘lganda ishlab chiqarishni ko‘paytirish uchun naslchilik jarayoniga aralashuvni o‘z ichiga oladigan jarayon.
Interesova Ye.A.	Akvakultura (lot. aqua – suv va cultum — yetishtirish, o‘stirish) — tabiiy va sun‘iy sharoitda suvda yashovchi organizmlarni (baliqlar, umurtqasizlar, suv o‘tlar) ko‘paytirish va yetishtirish. Shu bilan birga, yetishtiriladigan obyektlarning ko‘pchiligi (ayniqsa, Rossiyada) baliqdir.
I. A. Larina	Akvakultura (lot. aqua — suv va cultum — yetishtirish, parvarishlash) — suv havzalarining mahsuldorligini oshirish maqsadida nazorat ostidagi sharoitda suv organizmlarini (baliq, mollyuskalarlar, qisqichbaqasimonlar, suv o‘tlari) ko‘paytirish va yetishtirish.
Emi Tikkanen	Baliq yetishtirish, baliqchilik yoki dengizchilik deb ham ataladigan akvakultura, tijorat, rekreatsion va ilmiy maqsadlarda suv o‘simliklari, hayvonlar va boshqa organizmlarni ko‘paytirish va parvarish qilish ²⁷ .
Ochiq ensiklopediya	Akvakultura – suv havzalaridan unumli foydalanish maqsadida suvda yashaydigan organizmlarni nazorat qilib turiladigan sharoitda yetishtirish va parvarish qilish.
GOST R 56696-2015. Rossiya Federatsiyasining milliy standarti. Qayta tiklanadigan xom ashyo manbalari. Akvakultura. Termin va ta’riflar.	Akvakultura (baliq yetishtirish): akvakultura obyektlarini ko‘paytirish va (yoki) parvarish qilish, yetishtirish bilan bog‘liq faoliyat.
N.P. Milyanchuk, Ya.A. Kuchko, O.P. Sterligova, N.V. Ilmast,	Suv mahsulotlari yetishtirish dunyodagi eng tez rivojlanayotgan oziq-ovqat ishlab chiqarish sohasidir
Merkulova Irina Nikolayevna.	Akvakultura - bu suvda yashovchi organizmlarni inson nazorati ostida sun‘iy ravishda yetishtirish.
Nikiforov-Nikishin A.L., Glebova I.A., Shatoxin M.V.	Akvakultura — materik suvlarida va maxsus yaratilgan okean, dengiz yoki sun‘iy plantatsiyalarda suvda yashovchi organizmlarni (baliqlar, qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar, suv o‘tlari) ko‘paytirish va yetishtirishni o‘z ichiga olgan iqtisodiyot tarmog‘i.
Muallif ta’rifi	Akvakultura: (lot. aqua-suv va cultum-yetishtirish, parvarishlash) - suv havzalarining mahsuldorligini oshirish hamda ulardan unumli foyda-lanish maqsadida insonlar nazorati ostidagi sharoitda suv

²⁶ Составители: И.В. Мусаева (председатель), Т.А. Исригова А.Б. Алиев, А.С. Абдусаматов, А.Д. Гусейнов, Б.И. Шихшабекова, Е.М. Алиева. Термины и определения в области рыбохозяйственного комплекса: словарь. – Махачкала: ФГБОУ ВО Дагестанский ГАУ, 2020. – 156 с. Издание 2-е (с дополнениями и изменениями)., Интересова Е.А. Пресноводная аквакультура: учеб. пособие.–Томск: Издательство Томского государственного университета, 2021. – 128 с., Большой энциклопедический словарь / под ред. И. А. Лапиной. М., 2008., Emi Tikkanen, <https://www.britannica.com/science/resin>, Ochiq ensiklopediya <https://uz.wikipedia.org/wiki/Akvakultura>, ГОСТ Р 56696-2015. Национальный стандарт Российской Федерации. Возобновляемые источники сырья. Аквакультура. Термины и определения. <https://pralib.ru/2015/11/11/gost-r-56696-2015-id299289/p5/>, Современное состояние и развитие аквакультуры: экологическое и ихтиопатологическое состояние водоемов и объектов разведения, технологии выращивания: материалы международной конференции, г. Новосибирск, 11-13 ноября 2020 г. / под ред. Е. В. Пищенко, И. В. Моружи. – Новосибирск: НГАУ. – 2020. – 240 с., Меркулова Ирина Николаевна. Направления повышения эффективности прудового рыбоводства на основе кооперации и интенсификации производства. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Саратов 2008., <https://elibrary.ru/item.asp?id=36730999> маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси.

²⁷ <https://www.britannica.com/science/resin>.

	havzalaridan va boshqa bioresurslardan foydalanishdir.
Baliqchilik qo‘mitasining 31-sessiyasi. Rim, 2014-yil 9-13-iyun.	Baliqchilik - bir yoki bir nechta suv organizmlarini yetishtirishni ko‘paytirishga yoki saqlab qolish va alohida baliqchilik faoliyatining umumiy ishlab chiqarishini yoki ishlab chiqarishni mavjud tabiiy jarayonlar bilan ta‘minlanishi mumkin bo‘lgan darajadan oshirishga qaratilgan faoliyat.
Levshinov Roman Andreevich	Baliqchilik – bu baliq yetishtirish va o‘stirish, so‘nggi paytlarda baliq yetishtirish tushunchasi tobora ko‘proq akvakultura (lotincha aqua - suv va cultura - yetishtirish, parvarish qilish) atamasi bilan almash-tirildi, bu keng ma‘noda turli xil suv hayvonlari va o‘simliklarini (baliqlar, qisqichbaqasimonlar, echinodermalar, mollyuskalar, suv o‘tlari) sun‘iy ravishda yaratilgan yoki tabiiy yashash sharoitlarida yetishtirishni anglatadi.
Interesova Ye.A.	Baliqchilik inson faoliyatining bir turi bo‘lib, xo‘jaligining bir tarmog‘i sifatida daryo vodiylarida rivojlangan barcha buyuk sivilizatsiyalarga hamroh bo‘lgan.
“Akvakultura (baliqchilik) va Rossiya Federatsiyasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi Federal qonuni	Baliqchilik - bu akvakulturaning ajralmas qismi bo‘lgan baliqlarni ko‘paytirish (o‘stirish) bilan bog‘liq faoliyat. Dengiz suvlarida baliq yetishtirish va boshqa organizmlarni yetishtirish marikultura (dengiz dehqonchiligi) deb ataladi.
Igor Noviskiy	Baliqchilik deb - faoliyati baliq yetishtirish, qayta ishlash va sotish, baliq sifatini va barcha suv havzalarida uning miqdorini yaxshilashga qaratilgan iqtisodiyot tarmog‘iga aytish qabul qilingan.
Vesnina, Lyubov Viktorovna	Baliqchilik deganda, odatda, suv havzalarida suv biologik resurslari zahiralarini saqlash, ko‘paytirish va sifat jihatidan yaxshilashni ta‘minlaydigan chora-tadbirlar majmui tushuniladi.
Ochiq ensiklopediya	Baliqchilik– xalq xo‘jaligining suv havzalarida baliq zaxirasini ko‘paytirish va sifatini yaxshilash bilan shug‘ullanuvchi sohasi; baliq o‘stirish tadbirlari (baliqni sun‘iy usulda ko‘paytirish va uni yangi sharoitga o‘rgatish, yangi zot baliqlar yetishtirish, suv havzalarining meliorativ holatini yaxshilash)ning biologik asoslarini va asosiy baliq o‘stirish jarayonlari (voyaga yetgan baliqlarni ovlash, baliq tuxumini ochirish, baliq boqish va boshqalar)ning biotexnikasini ishlab chiquvchi fan.
Nikiforov-Nikishin A.L., Glebova I.A., Shatoxin M.V.	Baliqchilik - yuqori sifatli va arzon oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojni qondirish maqsadlaridan ajralmas bo‘lgan tijorat maqsadlarida baliq yetishtirishdir.
Markaziy Osiyoning suv resurslari va ekologiyasi haqidagi bilimlar portali	Baliqchilik — qishloq xo‘jaligining baliq yetishtirish, suv havzalarida baliq zahirasini yaxshilash va ko‘paytirish bilan shug‘ullanuvchi tarmog‘i. Baliq yetishtirish akvakulturaning asosiy shakli hisoblanadi, boshqa amaliyotlar esa marikulturaga tegishli bo‘lishi mumkin ²⁹ .
Muallif ta’rifi	Baliqchilik – qishloq xo‘jaligining bir tarmog‘i bo‘lib, faoliyati tabiiy va sun‘iy suv havzalarida sun‘iy, intensiv, yarim intensiv, ekstensiv va boshqa usullardan foydalangan holda bir yoki bir nechta (baliq, qisqichbaqasimonlar, molyuskalar va boshqa) suv organizmlarini yetishtirish, qayta ishlash, saqlash va sotish, baliq sifatini yaxshilash, assortimentini kengaytirish, yo‘qolib borayotgan noyob baliq turlarini saqlab qolish va ko‘paytirish, shuningdek, aholini oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlagan holda yuqori sifatli, arzon baliq va baliq mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojni to‘laqonli qondirishdan iborat.

²⁹ SAWater-Info.

Biz o'z ilmiy izlanishlarimizni davom qildirib, Akvakultura va baliqchilik o'rtasidagi tafovutlarni quyidagi 1.1.5-jadvalda ko'rsatib o'tdik.

1.1.5 – jadval

Akvakultura va baliqchilik o'rtasidagi tafovutlar³⁰

➤ Akvakultura: (lot. aqua-suv va sultum-yetishtirish, parvarishlash) - suv havzalarining mahsuldorligini oshirish hamda ulardan unumli foydalanish maqsadida insonlar nazorati ostidagi sharoitda suv organizmlarini (baliq, mollyuskalarlar, qisqichbaqasimonlar, suv o'tlari va boshqa) ko'paytirish, parvarishlash va yetishtirish, ishlab chiqarishni intensivlashtirish uchun naslchilik jarayoniga aralashuvni o'z ichiga oladigan qishloq xo'jaligi tarmog'i bo'lib, dunyoda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda istiqbolli yo'nalish sifatida qaralayotgan muhim soha hisoblanadi.

➤ Baliqchilik – qishloq xo'jaligining bir tarmog'i bo'lib, faoliyati tabiiy va sun'iy suv havzalarida sun'iy, intensiv, yarim intensiv, ekstensiv va boshqa usullardan foydalangan holda bir yoki bir nechta (baliq, qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va boshqa) suv organizmlarini yetishtirish, qayta ishlash, saqlash va sotish, baliq sifatini yaxshilash, assortimentini kengaytirish, yo'qolib bora-yotgan noyob baliq turlarini saqlab qolish va ko'paytirish, shuningdek, aholini oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlagan holda yuqori sifatli, arzon baliq va baliq mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojni to'laqonli qondirishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda KBXT, shu jumladan baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirish hamda takomillashtirish masalalarini tadqiq etish dolzarb va zarur bo'lib, aholi turmush darajasi va farovonligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

1.2-§. Xorijiy davlatlarda baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirishning ilg'or tajribalari va ularni mamlakatimizda qo'llanilishi xususiyatlari

O'zbekistonda so'nggi yillarda KBXTni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu sohada olib borilayotgan islohotlarda o'z samarasini bermoqda. Bugungi kunda O'zbekiston jahondagi yetakchi o'rin davlatlar – AQSH, Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Germaniya, Fransiya va Yevropa Ittifoqining boshqa mamlakatlari bilan hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlashga alohida e'tibor bermoqda. O'zbekistonda KBXTni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon amaliyotidan ma'lum bo'lishicha rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, ijtimoiy muammolarni hal etish, bandlikni oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda eng rivojlangan G'arb mamlakatlarida kichik biznesning umumiy korxonalaridagi ulushi sonining 70-90 foizni tashkil etadi. AQSH va Yaponiyada mos ravishda 53 va 71,7 foizni tashkil qilmoqda³¹.

Kichik biznesning iqtisodiyotdagi roli va o'rnining oshib borishi keyingi yillarda dolzarb muammolardan bo'lgan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda kichik biznes muhim vositalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda yer resurslari tanqisligini oshishi, go'sht mahsulotlari

³⁰ Muallif ishlanmasi.

³¹ Развитие малого и среднего предпринимательства – одно из приоритетных направлений стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан. Макушина А.Ю.

narxining ko'tarilishi mamlakatda o'rinbosar tovarlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish talab qilmoqda. Natijada baliqchilikni rivojlantirish eng istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida qaralib kelinmoqda. Shu sababli baliqchilikni rivojlantirishda kichik biznesdan foydalanishning xorijiy davlatlar tajribalarini qarab chiqamiz.

Baliq va baliq mahsulotlari inson ovqatlanishida muhim rol o'ynaydi. So'nggi o'n yilliklarda butun dunyo bo'ylab baliq va boshqa dengiz mahsulotlariga talabning tez o'sishi kuzatilmoqda. Bugungi kunda sayyoramizning har bir aholisiga 20,5 kg baliq mahsulotlari to'g'ri keladi, 60 yil oldin bu ko'rsatkich 10 kg dan kam edi³².

Jahon baliqchilik sanoatiga oxirgi yillarda katta e'tibor berilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasining 2017-yil 22-noyabrdagi 72-sessiyasida 2022-yilni "Xalqaro kichik hajmli baliqchilik va akvakultura yili (IYAFA 2022)" deb e'lon qilinishi buning yaqqol misolidir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) bu yilni o'tkazishda sohaga tegishli tashkilotlar, jumladan BMT bilan hamkorlikda yetakchilik qiladi. 2022-yilning "Xalqaro kichik hajmli baliqchilik va akvakultura yili" deb e'lon qilinishidan asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

kichik hajmli baliqchilik xo'jaligi va akvakulturaning barqaror rivojlanishdagi roli, xususan, oziq-ovqat xavfsizligi, qashshoqlikka barham berish hamda tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha global xabardorlikni oshirish, tushunish va qo'llab-quvvatlash choralari ko'rish;

kichik hajmli baliqchilik xo'jaliklari o'rtasida muloqot va hamkorlikni rivojlantirish, baliq yetishtiruvchilar, hukumat va qiymat zanjiridagi boshqa asosiy hamkorlar, shuningdek, baliqchilik va akvakulturada barqarorlikni oshirish va ularning ijtimoiy rivojlanishi va farovonligini oshirish uchun ularning salohiyatini yanada kuchaytirish³³.


Pandemiya munosabati bilan joriy qilingan cheklovlar baliq mahsulotlari yetkazib berishning va uni iste'mol qilishning qisqarishiga, shu bilan birga baliq savdosidan tushadigan daromadning kamayishiga olib keldi. Ayniqsa, so'nggi yillarda mahsulot yetishtirish jadal sur'atlarda o'sib borayotgan sun'iy baliq yetishtirish sohasi zarar ko'rmoqda. 2020-yilda, so'nggi bir necha yil ichida birinchi marta u taxminan 1,3 foizga kamaygan³⁴.

2020-yilda jahon baliq va dengiz mahsulotlari bozori 34,2 million tonnaga baholangan, bu 229,9 milliard dollarga teng. 2016 yilga nisbatan 2020-yilda jahon baliq va dengiz mahsulotlari bozori qiymat jihatidan o'rtacha yillik o'sish sur'ati 6,2% bo'lgan ijobiy tendensiyaga ega bo'lib, 2019-yilga nisbatan 0,4 million tonnaga kamayish kuzatiladi (1.2.1-rasm).

³² <https://news.un.org/ru/story/2022/01/1416472>

³³ <https://www.fao.org/artisanal-fisheries-aquaculture-2022>

³⁴ https://www.magazine.fish/news/akvakultura/oon_obyavila_2022_god_mezhdunarodnym_godom_akvakultury/



1.2.1-pacm. Jahon baliq va dengiz mahsulotlari bozorining sig'imi, 2016–2020-yillar³⁵.

“Baliq va dengiz mahsulotlari” mahsulot guruhining barcha toifalari orasida tayyor baliq mahsulotlari eng past o‘rtacha yillik o‘sinh sur‘atlariga ega bo‘ldi, bu asosan yangi va muzlatilgan baliq va dengiz mahsulotlariga talabning yuqoriligi bilan bog‘liq.

1.2.1-jadval

Jahon baliq va dengiz mahsulotlari bozorining mahsulot turlari bo'yicha tarkibi, 2016–2020-yillar, mlrd. AQSH dollarida³⁶

	2016	2017	2018	2019	2020
Yangi xom baliq va dengiz mahsulotlari	57,0	59,8	63,0	66,1	69,0
Muzlatilgan baliq va dengiz mahsulotlari	32,0	34,2	36,6	39,2	40,7
Qayta ishlangan, sovutilgan, qadoqlangan baliq va dengiz mahsulotlari, butun	30,3	31,5	32,9	34,3	35,9
Baliq va dengiz mahsulotlaridan tayyor mahsulotlar	27,3	28,3	29,6	30,8	32,2
Sovutilgan qadoqlangan baliq va dengiz mahsulotlari, bo'laklarda	25,5	26,6	27,9	29,1	30,3
Quritilgan baliq va dengiz mahsulotlari	17,5	18,7	20,0	21,4	21,8
Jami	189,5	199,0	210,0	221,0	229,9

2020-yil yakuniga ko‘ra baliq va dengiz mahsulotlarini jahon iste‘moli tarkibida tayyor mahsulotlar qariyb 14,0 foizni tashkil etib, 2016-yilga nisbatan 0,4 foizga kamaygan. 1.2.2-jadvaldan ko‘rinadiki dunyo bozoridagi eng katta ulushni yangi (xom) baliq va dengiz mahsulotlari-30,0%, shuningdek, muzlatilgan baliq va dengiz mahsulotlari-17,7% egallagan.

³⁵ Агроэкспорт. Готовая продукция из рыбы и морепродуктов. 22 июнь 2021. Обзор ВЕД. 28 стр.


³⁶ Агроэкспорт. Готовая продукция из рыбы и морепродуктов. 22 июнь 2021. Обзор ВЕД. 28 стр.

1.2.2-jadval

Jahon baliq va dengiz mahsulotlari bozorining mahsulot turlari bo'yicha tarkibi, 2016–2020-yillar, %da³⁷.

	2016	2018	2020
Yangi (xom) baliq va dengiz mahsulotlari	30,1	30,0	30,0
Muzlatilgan baliq va dengiz mahsulotlari	16,9	17,4	17,7
Qayta ishlangan, sovutilgan, qadoqlangan baliq va dengiz mahsulotlari, butun	16,0	15,7	15,6
Baliq va dengiz mahsulotlaridan tayyor mahsulotlar	14,4	14,1	14,0
Sovutilgan qadoqlangan baliq va dengiz mahsulotlari, bo'laklarda	13,5	13,3	13,2
Qurtilgan baliq va dengiz mahsulotlari	9,2	9,5	9,5
Jami	100,0	100,0	100,0


Hisob-kitoblarga ko'ra, tayyor baliq va dengiz mahsulotlari jahon bozori tarkibida qiymat jihatidan Yevropa, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi va Shimoliy Amerikaning umumiy ulushi qariyb 79,4% ni tashkil etdi. Yevropa 2020-yilda eng katta ulushni 43,0% bilan egalladi, ikkinchi o'rinda Osiyo-Tinch okeani va Shimoliy Amerika mos ravishda 21,0% va 15,4% (1.2.2-rasm).



1.2.2-rasm. Tayyor baliq va dengiz mahsulotlari bozorining qiymat jihatidan hududiy tarkibi, 2020-yil, %³⁸.

³⁷ Агроэкспорт. Готовая продукция из рыбы и морепродуктов. 22 июнь 2021. Обзор ВЕД. 28 стр.

³⁸ Агроэкспорт. Готовая продукция из рыбы и морепродуктов. 22 июнь 2021. Обзор ВЕД. 28 стр.



1.2.3-rasm. Tayyor baliq va dengiz mahsulotlari uchun Yevropa bozorining qiymat jihatidan tuzilishi, 2020-yil, % da³⁹.

Yevropa mamlakatlari tayyor baliq va dengiz mahsulotlari bo'yicha jahon bozorida asosiy o'rinni egallaydi. Yevropada tayyor baliq mahsulotlarini iste'mol qilish mamlakatlar o'rtasida nisbatan teng taqsimlangan, ammo uchta yirik bozorni ajratib ko'rsatish mumkin - Ispaniya (22,0%), Italiya (18,4%), Fransiya (11,6%), ularning umumiy ulushi ellik foizdan oshadi (1.2.3-rasm).

Baliq bozori jahon oziq-ovqat bozorining eng muhim elementlaridan biri bo'lishi bilan bir qatorda bandlik muhim manbai hisoblanadi va ko'plab mamlakatlar iqtisodiy o'sishi va rivojlanishiga hissa qo'shadi⁴⁰.

2020-yilda tarmoqda birlamchi ishlab chiqarish bosqichida to'liq yoki yarim kunlik asosda 58,5 millionga yaqin kishi ishlagan. Ularning taxminan 35 foizi akvakulturada band bo'lgan, so'nggi yillarda bu sur'at pasaygan va butun dunyo bo'ylab baliqchilar soni kamaygan. 2020-yilda baliqchilar va baliq yetishtiruvchilarning 84 foizi Osiyoda yashagan (1.2.3-jadval).

Bundan ko'rinadiki sohaga innovatsion texnologiyalarni joriy qilgan holda rivojlantirish va samaradorlikni oshirish bugungi kunning muhim masalalaridan hisoblanadi. Chunki, akvakulturani kengaytirish va baliqchilikni samarali boshqarishni sohada qo'shilgan qiymat zanjiriga innovatsiyalarni joriy qilshmasdan amalga oshirish mumkin emas. Buning uchun zamonaviy innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirishga ko'maklashish, suv bioresurslarining mavjudligini oshirish, iste'molchilarning suv bioresurslarining afzalliklari haqida xabardorligini oshirish, suv bioresurslaridan olinadigan oziq-ovqat mahsulotlari isrofgarchiligini kamaytirish, daromadli bozorlarga kirishni yaxshilash uchun davlat-xususiy sheriklik (DXSh) dan foydalanish talab qilinadi. Shu sababli mamlakatimizda baliqchilik sohasini rivojlantirish, sohada xususiy sektorning rolini oshirishning

³⁹ Агроэкспорт. Готовая продукция из рыбы и морепродуктов. 22 июня 2021. Обзор ВЕД. 28 стр.

⁴⁰ А.И. Богачев. Роль рыболовства и аквакультуры в обеспечении продовольственной безопасности: мировой аспект. Вестник сельского развития и социальной политики №4(16) 2017.

istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash uchun rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish lozim bo‘ladi.

1.2.3-jadval

Dunyo hududlari bo‘yicha 2000-2020-yillarda baliqchilik va akvakulturada band bo‘lganlar soni, ming kishi⁴¹.

	2000-yil	2005-yil	2010-yil	2015-yil	2020-yil
Baliqchilik (Jami)	34218	36910	39452	39853	37882
Afrika	3395	3906	4671	5057	5007
Shimoliy va Janubiy Amerika	1605	1679	1981	2156	2015
Osiyo	28335	30476	31994	31883	30102
Yevropa	418	380	333	286	294
Okeaniya	465	469	473	471	464
Akvakultura (Jami)	13530	15860	19210	21195	20667
Afrika	194	252	361	505	634
Shimoliy va Janubiy Amerika	301	299	340	345	606
Osiyo	12930	15217	18407	20246	19323
Yevropa	96	83	93	89	94
Okeaniya	9	9	9	10	10

Rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi kichik va o‘rta biznes tajribasini ko‘rib chiqamiz.

Rossiya tajribasi. Rossiyada so‘nggi yillarda rivojlangan zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda tadbirkorlik alohida o‘rin tutadi. Tadbirkorlik bozor iqtisodiyotini shakllantirishning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, u muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajarish bilan birga, birinchi navbatda, aholining ijtimoiy ta‘minlanish darajasini oshirish, shuningdek, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va ilmiy texnologik taraqqiyot uchun xizmat qiladi. Bu inson faoliyatining eng muhim turlaridan biri bo‘lib, insonning iqtisodiyotdagi o‘rnini shakllantirishdagi ijodiy ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarishni ta‘minlaydi, shu bilan birga boshqa sohalarida ehtiyojlarni amalga oshirish imkonini beradigan shaxsiy daromadni ta‘minlaydi⁴².

Bir tomondan - Rossiyada bozor munosabatlarining zamonaviy rivojlanishining o‘ziga xos xususiyati ko‘p jihatdan raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan, boshqa tomondan - AQSH va Yevropa Ittifoqining bir vaqtning o‘zida qo‘llayotgan iqtisodiy sanksiyalari bilan bog‘liq.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida Rossiyada tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish, birinchi navbatda, kichik biznes sektorini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish va mavjud ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni o‘zgartirishga bog‘liq.

Kichik biznes nafaqat iqtisodiy funksiyalarni bajaradi, balki u jamiyat hayotining barcha sohaları bilan chambarchas bog‘liqdir. Kichik biznes sektorining holati va rivojlanish tendensiyalarini bilish, uning iqtisodiyotning

⁴¹ ФАО. 2022. Состояние мирового рыболовства и аквакультуры – 2022. На пути к "голубой" трансформации. Рим, ФАО. <https://doi.org/10.4060/cc0463ru>

⁴² Burov V. Yu., – Основы предпринимательства : Част III, учебное пособие : [в 3 ч. / V.Yu. Burov; Zabaykal. gos. un-t. – Izd. 2-ye, dop. i pererab. – Chita, ZabGU, 2018.. 9-str.

boshqa tarmoqlari bilan aloqalari va bog'liqligini aniqlash Rossiyada raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy muammolarini aniqroq ko'rish imkonini beradi. Tadbirkorlikni shakllantirish bir qator aniq shartlarni talab qiladi. Bular iqtisodiy, ijtimoiy va qonuniy shartlardir.

20-asrning eng nufuzli boshqaruv nazariyotchilaridan biri Piter Druker ta'kidlaganidek, -*“Tadbirkorlik fan yoki san'at emas. Bu amaliyot”*⁴³. J.B. Seyning iqtisodiy qarashlarida *“Tadbirkorlar va mehnatkashlar faoliyati boylik manbai hisoblanadi”*⁴⁴.

Rossiya Federatsiyasida 2016-yilda dehqon (fermer) xo'jaliklari soni 136,7 mingni va yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 38 mingni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilga kelib dehqon (fermer) xo'jaliklari soni 102,4 mingga va yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 20,8 mingga kamaygan. Shuningdek, Rossiya federatsiyasida kichik va o'rta biznesda band bo'lganlarning o'rtacha soni 2017-yilda 12354,6 ming kishini tashkil qilib, 2021-yilga kelib bu ko'rsatkich 11338,7 ming kishiga kamayganligini ko'ramiz.

Baliqchilik sanoati Rossiya iqtisodiyotidagi eng muhim sohalardan biri bo'lib, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega bo'lib, suv biologik resurslarini saqlash va aholining hayot sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi.

Birinchidan, u Murmansk, Arxangelsk, Magadan, Saxalin, Kaliningrad viloyatlari, Kamchatka va Primorsk o'lkasi, Kareliya Respublikasi kabi mamlakatning ko'plab mintaqalarida aholini ish bilan ta'minlaydi. Chukotka va Koryak avtonom okruglari, Uzoq Shimol mintaqalarida ko'pincha baliq ovlash mahalliy aholi, shu jumladan mahalliy xalqlar uchun asosiy faoliyatdir. Ikkinchidan, baliqchilik sanoati sanab o'tilgan mintaqalar YAIMiga ham, Rossiya yalpi ichki mahsulotiga ham sezilarli hissa qo'shadi⁴⁵.

Rossiya Federatsiyasi Hukumatining 2019-yil 26-noyabrdagi 2798-r-son qarori bilan tasdiqlangan *“2030-yilgacha bo'lgan davrda Rossiya Federatsiyasining baliqchilik kompleksini rivojlantirish bo'yicha strategiyasi”* baliqchilik sohasida muhim ahamiyatga ega.

Ushbu strategiya Rossiya Federatsiyasining baliqchilik kompleksini rivojlantirish to'g'risidagi 2017-yil 28-iyundagi 2-sonli qarori bilan tasdiqlangan Rossiya Federatsiyasi Hukumati Komissiyasi majlisi bayonnomasining I bo'limi ko'rsatmalariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, Rossiya Federatsiyasining baliqchilik kompleksining jadal rivojlanishini ta'minlashga, ishlab chiqarish fondlarini yangilashga, rag'batlantirish orqali eksportning xom ashyo yo'nalishi qo'shilgan qiymat ulushi yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishdan uzoqlashishga, tadbirkorlik faoliyatini yuritish va sohaga investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan⁴⁶[5].

⁴³ https://kfund-media.com/ru/quotes_card/pyter-druker-2/

⁴⁴ Rajapov X.B. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish boskichlari va xususiyatlari. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal. -№1 (85), Xorazm Ma'mun akademiyasi, 2022-y. – 101 bet.

⁴⁵ Федорова В.А. ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ РЫБНОЙ ОТРАСЛИ В РОССИИ. Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований №5, 2015.

⁴⁶ <http://static.government.ru/media/files/hgCKyG0XzZeAiRsLTtMgVIJh5vQLsMpg.pdf>

Strategiyani amalga oshirish doirasida quyidagilar rejalashtirildi:

- ✓ qayta ishlab chiqarishni rivojlantirish hisobidan 2030-yilgacha yalpi qo'shilgan qiymatni oshirishni ta'minlash;

- ✓ baliqchilik kompleksida ish o'rinlarining umumiy sonini 24,5 mingga oshirish;

- ✓ mehnat unumdorligining 2018-yilga nisbatan 1,4 barobar o'sishi;

- ✓ yig'ib olingan (ovlangan) suv biologik resurslari hamda baliq va ulardan tayyorlangan boshqa mahsulotlarni ekologik sertifikatlashning milliy tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

- ✓ Rossiya dengiz portlari orqali suv biologik resurslaridan mahalliy baliq va boshqa mahsulotlarni tashish hajmini yiliga 3 million tonnagacha oshirish;

- ✓ Rossiya portlarida baliq ovlash flotining mahalliy kemalariga xizmat ko'rsatish ulushini 80% gacha oshirish.

Shuningdek, Strategiya ikki bosqichda amalga oshirilishi rejalashtirilgan: birinchi bosqich – 2025-yil 31-dekabrgacha, ikkinchi bosqich – 2026-yil 1-yanvardan 2030-yil 31-dekabrgacha bo'lgan muddatlarni o'z ichiga oladi.

Rossiya Federatsiyasining 2020-yilgacha bo'lgan davr uchun dengiz doktrinasida belgilangan Rossiya Federatsiyasining dengiz faoliyati sohasidagi milliy siyosatni amalga oshirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri dengiz faoliyatini kadrlar bilan ta'minlashdan iborat edi.

Shu munosabat bilan, Rossiya baliqchilik xo'jaligining xom ashyo bazasidan oqilona foydalanishni, baliq ovlash kemalarining avariyasiz ishlashini, sanoatning qirg'oq korxonalari va tashkilotlarining ishlashini ta'minlashga qodir kadrlarni tayyorlash Baliqchilik federal agentligi o'quv majmuasining strategik vazifasi bo'lgan.

Baliqchilik floti baliqchilik kompleksi moddiy-texnika bazasining asosi hisoblanadi. U sanoatning asosiy ishlab chiqarish fondlarining 70% dan ortig'ini tashkil etadi va umumiy ovning 90% dan ortig'ini ta'minlaydi. Muzlatilgan mahsulotlarning umumiy hajmining 92% dan ortig'i, baliq unining 96% dan ortig'i va konserva mahsulotlarining 15% ga yaqini baliq ovlash floti kemalarida ishlab chiqariladi. Baliqchilik flotining asosiy qismi Uzoq Sharq baliqchilik havzasida (71%), 16% Shimoliy, 8% G'arbda, 3% Azov-Qora dengizda, 2% Volga-Kaspiy havzalarida to'plangan⁴⁷.


Hozirgi vaqtda Rossiya Qishloq xo'jaligi vazirligi va Baliqchilik federal agentligining o'quv majmuasida "Suv bioresurslari va akvakultura" yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar va magistrlar tayyorlash yo'nalishida baliqchilik xo'jaligi uchun kadrlar tayyorlashni ta'minlovchi 30 ta oliy o'quv yurtlari mavjud.

Rossiyada tayyor baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi nisbatan barqaror bo'lib qolmoqda. 2020-yilda Rossiya korxonalari 411,4 ming tonna tayyor baliq mahsulotlarini ishlab chiqardi, bu o'tgan yilga nisbatan 1,2 foizga kam. Joriy yilning dastlabki uch oyida ham ishlab chiqarish hajmining pasayishi kuzatildi (o'tgan yilning shu davriga nisbatan -6,5 foiz).

Rossiyaning eng yirik tayyor baliq mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilari

⁴⁷[#60410](https://studme.org/417027/agropromyshlennost/problemy_strategicheskie_napravleniya_razvitiya_rybnoy_otrasli)

orasida (SPARK-Interfaks ma'lumotlariga ko'ra) quyidagilar mavjud: "ПИК Охотский" MCHJ (Xabarovsk o'lkasi), «Российское море» OAJ (Moskva viloyati), "Компаниа Sakura" YOAJ (Saxalin viloyati), "Вечная-Рус" MCHJ (Kaliningrad viloyati), OAJ "Южморрыблот" (Primorsk o'lkasi), MCHJ "TD" Балтийский берег" (Sankt-Peterburg), OAJ "Меридиан" (Moskva).



1.2.4-rasm. Rossiyanı tayyor baliq va dengiz mahsulotlari bilan o'zini-o'zi ta'minlash darajasi, (foizda, %)

1.2.4-rasmda ko'rsatilganidek, 2020-yil oxirida Rossiyada tayyor baliq mahsulotlari bilan o'zini-o'zi ta'minlash darajasi taxminan 80,0% ni tashkil etgan (2017-yildagi 78,9% ga nisbatan). Bozor ehtiyojlarining qolgan qismi import qilinadigan mahsulotlar hisobiga qondirilgan. 2020-yilda Rossiyada aholi jon boshiga tayyor baliq mahsulotlarini iste'mol qilish taxminan 3,29 kg/kishini tashkil etgan⁴⁸[7].

1.2.4-jadval 2020-yilda baliqchilik xo'jaliklarida yetishtirilgan baliqlar⁴⁹, mln.dona

	2018	2019	2020
Jami	9651,8	8848,5	8353,2
Shundan:			
Osyotr	60,6	67,1	74,2
Losos	852,5	1081,6	1148,8
Oq baliq	483,5	228,5	219,7
O'txo'r baliqlar	12,3	8,4	9,3
Qisman baliq (Chastikovyx)*	8242,8	7462,4	6901,0
O'tgan yilga nisbatan, foizda %	106,3	91,7	94,4

*Qisman baliq (частиковых) - asosan Rossiyaning baliq ovlash mintaqalarida va avvalgi mamlakatlarda qabul qilingan baliqlar guruhining

⁴⁸ Агрорекспорт. Готовая продукция из рыбы и морепродуктов. 22 июнь 2021. Обзор ВЕД. 28 стр.

⁴⁹ FEDERALNAYA SLUJBA GOSUDARSTVENNOY STATISTIKI (ROSSTAT). Osnovnye pokazateli ohrany okrujajuyucey sredy. STATISTICHESKIY BYULLETEN. G. MOSKVA, 2021 G.


tijorat nomi.

1.2.4-jadvalda ko‘rinadiki, baliqchilik xo‘jaliklarida yetishtirilgan jami baliqlar 2020-yilda 8353,2 mln. donani tashkil qilib, 2018-yildagi 9651,8 mln. donaga nisbatan 1298,6 mln. donaga kamaygan.

2012-yil 3-dekabrda 227-FZ-sonli “Rossiya Federatsiyasida umumiy iste’mol savatchasi to‘g‘risida”gi Federal qonunga muvofiq jon boshiga o‘rtacha yillik baliq mahsulotlari iste’moli: mehnatga layoqatli aholi uchun - 18,5 kg, nafaqaxo‘rlar uchun - 16 kg, bolalar uchun - 18,6 kg ni tashkil qiladi⁵⁰.

Rossiya Tibbiyot fanlari akademiyasining Oziqlantirish instituti tadqiqotiga ko‘ra, bir kishi yiliga o‘rtacha 23,7 kg baliq mahsulotiga muhtoj.

Rosstat ma’lumotlariga ko‘ra, Rossiyada baliq mahsulotlarini iste’mol qilish hajmi 2013-2014-yillarda o‘rtacha 22,3 kg/kishini, 2021-yilda o‘rtacha 20,2 kg/kishini tashkil qilgan. Bundan ko‘rinadiki, 2021-yilda 2013-2014-yillarga nisbatan 2,1 kg/kishiga kamaygani kuzatiladi. Biroq, 2019-2020-yillar uchun iste’mol hajmi deyarli bir xil darajada 22,0 kg/kishini tashkil etib, Rossiya Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan bir kishi uchun tavsiya etilgan baliq iste’moli normasi (yiliga 22 kg/kishi)ga mos keladi. Tahlillar natijasida 2021-yilda bu norma 2020-yilga nisbatan 1,8 kg/kishiga kamaygani kuzatildi (1.2.5-rasmga qarang).



Yuqoridagi 1.2.5-jadvalda baliqchilik mahsulotlarining asosiy turlari bo‘yicha 2017-2021 yillarda ishlab chiqarilishi haqida ma’lumotlar keltirilfga.

2021-yilda Rossiyadan baliq eksporti xajm jihatdan 2020-yilga nisbatan 221,5 ming tonnaga yoki 12 foizga kamaygan. Asosiy eksport toifasi – bu muzlatilgan baliq eksportidir. Bu 2020-yildagi 1,618 million tonnaga nisbatan 1,362 million tonnani tashkil etgan.

⁵⁰ Рыбоводство и рыболовство. Аналитическая справка. 2019. ВНИИ ТРУДА. 42-стр.

1.2.5-jadval

Baliqchilik mahsulotlarining asosiy turlarini ishlab chiqarish⁵¹, (ming tonna)

	2017	2018	2019	2020	2021
Tirik dengiz baliqlari	112	154	127	163	162
Dengiz baliqlari, yangi yoki muzlatilgan	855	847	827	884	761
Qisqichbaqasimonlar, muzlatilmagan	45,8	52,5	49,6	50,7	47,6

Rossiya baliqlarining asosiy eksport bozori Xitoy bo'lib, u yerda Rossiya mahsulotlarining 70 foizi to'g'ridan-to'g'ri va qo'shni davlatlar (masalan, Koreya Respublikasi) orqali yuboriladi⁵².

Tadbirkorlar imkoniyati va salohiyatidan samarali foydalangan holda baliq va baliq mahsulotlarini saqlash, transportirovka qilish, qayta ishlash va qadoqlash ishlarida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash asosida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish muhimdir⁵³.

2021-yilda baliq importi hajm jihatdan 2020-yilga nisbatan 15 foizga yoki 93 ming tonnaga oshgan. Asosiy import mahsuloti muzlatilgan baliqdir. Bu taxminan 316 ming tonnani tashkil etadi, bu 2020-yilga nisbatan 8 foizga ko'pdir.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, mahalliy baliqchilik kompleksi Rossiya aholisi uchun baliq mahsulotlarining jismoniy va iqtisodiy mavjudligini barqaror ta'minlash, ichki bozorda baliq mahsulotlarini import o'rnini bosishni ta'minlash muammosini hal qilish salohiyatiga ega. Rossiyaning qirg'oq baliqlarini qayta ishlash sanoati ichki bozorda ham, tashqi bozorda ham raqobatlasha oladi, Rossiya chakana savdo tarmoqlarining barcha talablariga javob beradigan turli xil assortimentdagi baliq mahsulotlarini sezilarli darajada ishlab chiqaradi. Biroq, malakali kadrlar yetishmasligi bilan bog'liq muammolarni hal qilmasdan, soha rivojini ta'minlash mumkin emas.

Xitoy tajribasi. Xitoy dunyodagi eng qadimiy davlatlardan biri sanalib, qadimda Sharqning eng yuqori sivilizatsiyasiga ega davlat bo'lgan. Ko'pgina mamlakatlar, xususan, Koreya, Yaponiya, Vyetnam va Tibet kabi mamlakatlar Xitoy falsafasini, san'atini, oziq-ovqatini, moddiy madaniyatini, davlat tuzilishini, texnologiyasini va yozuv harflarini o'z davlatlarida o'zlashtirganlar.

Xitoy mamlakatining iqtisodiy taraqqiyoti 70-yillardan so'ng quyidagi omillar asosida rivojlandi:

- 1) Mamlakatning iqtisodiy-geografik qulayligi.
- 2) Mamlakatda yirik qazilma boyliklarning zaxirasi va ko'plab tabiiy resurslarning mavjudligi.
- 3) Qishloq xo'jaligining yuksak darajada rivojlanishi.
- 4) Xitoy mahsulotlarini eksport qilinishida demping siyosatining qo'llanilishi.
- 5) 90-yillardan boshlab eksportning ortib borishi.
- 6) Bozor iqtisodiga o'tish davrida "xitoy modeli"ning ahamiyati.

⁵¹ <https://rosstat.gov.ru/> Federal Davlat statistika xizmati

⁵² ОТРАСЛЕВОЕ ИЗДАНИЕ. Журнал "РЫБОЛОВСТВО И РЫБОВОДСТВО" № 8 / ЛЕТО-ОСЕН / 2021. ООО «Типографский комплекс «Девиз» 195027, Санкт-Петербург.

⁵³ Rajapov X.B. Baliqchilik sohasini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№2 (86), Xorazm Ma'mun akademiyasi, 2022-y. – 171-bet.

7) 80-yillarda Xitoy xukumatining “kuchli” iqtisodiy islohotlarni olib borishi.

8) YAIMning yildan-yilga o‘sib borishi. 1978-yildan 1997-yilgacha YAIM o‘rtacha yiliga 9,6%dan o‘sib bordi. Xitoy iqtisodiyoti tarixida YAIMning o‘shish rekordi 1992-yilda yuz berib, 14,2%ni tashkil qilgan.

9) Mamlakatda ishchi kuchining arzonligi va mehnat resurslarining ortiqchaligi.

10) Xitoyning tashqi savdo-sotig‘ida Gongkong dengiz portining ustuvor ahamiyati.


11) Xitoyning “ochiq eshiklar siyosati”ni amalga oshirishi⁵⁴.

Iqtisodiy rivojlanishning xitoy modeli bozor tamoyillari va kommunistik g‘oyalarning uyg‘unligini taqozo etishi bilan boshqa modellardan ajralib turadi.

Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) XX asrning 80-yillarigacha jahon xo‘jaligida “agrar” davlatlarning biri edi. Lekin, XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida uning iqtisodiy taraqqiyoti misli ko‘rilmagan darajada taraqqiy etishi bilan jahon xo‘jaligida “to‘rtinchi iqtisodiy mo‘jiza”ni vujudga keltirdi.

Xitoy iqtisodiyotida davlat roli saqlanib keladi, olib borilayotgan islohotlar shakllangan iktisodiy tizimning davlat va kooperativ maqomini o‘zgartirmaydi, iqtisodiyotda xorijiy kapitalning roli katta va aholini ijtimoiy kafolatlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy dasturlar yaxshi rivojlanmagan⁵⁵.

Davlatning markazlashgan holda iqtisodiyotga aralashuvi va rejalashtirish tizimi saqlanib qolgan holda bozor mexanizmlari muvaffaqiyat bilan qo‘llanilib, barqaror va tez sur‘atlar bilan iqtisodiy o‘shishga erishmoqda.



1.2.6-rasm. 2017-2021-yillar bo'yicha YAIM xajmi va o'sish sur'atlari⁵⁶

XXR Milliy statistika byurosi hisob-kitoblariga ko'ra, yalpi ichki mahsulot (YAIM) 2021-yilda 1143670 million yuanni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan

⁵⁴ Nazarova G.G., Xakimov N.Z., Bobojonov B.R., Ergashev D.R., Sultonova N.A. Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. -T.:TDIU, 2008. 129-bet.

⁵⁵ Vaxabov A.L., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O'quv qo'llanma. / i.f.d., prof. A.V.Vaxabovning umumiy tahriri ostida. - T.: Moliya, 2011. 63-bet.

⁵⁶ <http://www.stats.gov.cn> Xitoy Xalq Respublikasi Milliy statistika byurosi sayti.

12,8 foizga o'sgan. 2021-yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot 80976 yuanni tashkil etgan, bu o'tgan yilga nisbatan 8,0 foizga ko'p. Yalpi milliy daromad 2021-yilda 113351,8 milliard yuanni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 7,9 foizga ko'pdir. Umumiy mehnat unumdorligi 2021-yilda bir kishi boshiga 146,380 yuanni tashkil etgan, bu o'tgan yilga nisbatan 8,7 foizga ko'p.

1.2.6-jadval

Xitoyning biznes yuritish qulayligi bo'yicha mamlakatlar reytingidagi o'rni⁵⁷ Doing Business

REYTING	Mamlakat	Biznesni ro'yxatdan o'tkazish jarayoni	Qurilish uchun ruxsat olish jarayoni	Elektr ta'minoti tizimiga ulanish jarayoni	Mulkni ro'yxatdan o'tkazish jarayoni	Qarz berish	Investorlarni himoya qilish	Soliq solish	Xalqaro savdo	Shartnomalarning bajarilishini ta'minlash	Korxonalarini tugatish jarayoni
28	Rossiya	40	26	7	12	25	72	58	99	21	57
29	Yaponiya	106	18	14	43	94	57	51	57	50	3
31	Xitoy	27	33	12	28	80	28	105	56	5	51
33	Turkiya	77	53	41	27	37	21	26	44	24	120
34	Ozarbayjon	9	59	80	44	1	105	40	83	28	47
69	O'zbekiston	8	132	36	72	67	37	69	152	22	100

1.2.6-jadvaldan ko'rinadiki 2019-yilda Xitoy biznes yuritish qulayligi reytingi bo'yicha jami 190 mamlakat ichida 31 o'rinni egallagan. Biznesni ro'yxatdan o'tkazish jarayoni buyicha esa 27 o'rinni egallagan. O'zbekiston Respublikasi esa biznes yuritish qulayligi reytingi bo'yicha jami 190 mamlakat ichida 69 o'rinni egallagan.

Xitoy modeli iqtisodiy islohotlarni qishloq xo'jaligini isloh qilishdan boshlanishi bilan xarakterlanadi. Xitoy umumiy hududining 7 %i qishloq xo'jaligi ixtisoslashgan bo'lib, bu tarmoqning rivojlanishiga katta ahamiyat berilmoqda.

Xitoyning hayratlanarli iqtisodiy o'sishi aynan qishloq xo'jaligidan boshlangan. 1978-yilning dekabr oyida Xitoyning Anxuyey provinsiyasidagi Syaogang nomli qishlog'ida 21 ta oila yashar edi. Boshqa qishloqlar kabi bu yerda ham ocharchilik hukm surmoqda edi. Qishloq faollari tajriba o'tkazishadi: jamoa bo'lib ishlatilayotgan umumiy yerlarni o'sha 21 oilaga bo'lib berishga qaror qilishadi – har bir oila o'ziga birlashtirilgan yerda dehqonchilik qilishi uchun.

Xitoydagi qishloq xo'jaligi islohotidan olinadigan muhim xulosalar bor va aynan shu xulosalarni anglash biz uchun muhimdir. Xitoy qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan ushbu islohot, ya'ni jamoa bo'lib ishlatilgan yerlarning oilalarga bo'lib berilishi ulkan o'zgarishlarni keltirib chiqardi – “zanjirli reaksiya”ni paydo qildi. Yana shuni aytish kerakki, Xitoy hukumatidan qishloqlarni isloh qilish deyarli hech narsa talab qilmadi, shunchaki jamoa xo'jaliklariga barham berilib,

⁵⁷ <https://archive.doingbusiness.org/ru/data>

yerlar oilalarga bo'lib berildi. Sohada ijobiy o'zgarishlarga esa moddiy manfaatdorlikning yuksalishi hisobiga dehqonlarning faollashuvi orqali erishildi.

Bu kabi islohot O'zbekistonning yaqin tarixida ham amalga oshirilgan. Mustaqillikning ilk davrida yuzaga kelgan qiyin iqtisodiy vaziyatdan chiqib ketish uchun qishloq aholisiga shaxsiy yordamchi xo'jaliklarini yo'lga qo'yish uchun tomorqa sifatida yer ajratib berildi, jamoa va davlat xo'jaliklari yerlari oilaviy pudrat asosida oilalarga berildi. Aynan shu islohot natijasida iqtisodiy tang holatdan chiqib ketishga muvaffaq bo'lingan edi⁵⁸.

Baliqchilik sohasi qishloq xo'jaligining bir tarmog'i bo'lib, mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda Xitoyda baliqchilik sohasida oilaviy pudrat turi keng tarqalgan bo'lib, bu baliqchilik sohasini bizga yaxshi tanish bo'lmagan qirralarini ochib beradi. Aholini ko'p tarmoqli ish yuritishi nafaqat Xitoy xalqini dasturxonini yaxna baliq bilan to'ldiradi, balki uning o'zini ham boyitadi. Dehqonlar davlatdan va jamoa xo'jaliklaridan suv havzalarini, sholi ekin maydonlarini ijaraga olish bilan birga o'zlari ham bo'sh yerlarda va hovlilarida kichik havzalar barpo etib baliq yetishtirishadi. Xitoyda aholi tomonidan havzalar barpo etib, ularda baliq yetishtirishning uchta usuli keng tarqalgan⁵⁹.

✓ Tekislikda baliq yetishtirish usuli.

✓ Tog' usulida baliq yetishtirish.

✓ Xonadonda baliq yetishtirish.

Tekislikda baliq yetishtirish usuli. Qishloq xo'jaligida, aholi tomorqasida, shuningdek bo'sh yotgan yerlarda kichik suv havzalari qaziladi. Bundan tashqari, foydalanilmayotgan kanallar, jarliklarni ta'mirlab, suv bilan to'ldirib baliq yetishtirishadi. Suv o'ti va qamishlarni katta zahiralari bo'lgan joylarda odatda oq amur, suv o'tlari va zooplanktonlari ko'p bo'lgan joylarda oq va ola do'ngpeshonalar va boshqa baliq turlari yetishtiriladi. Sholi maydonlarini ijaraga olgan dehqonlar, karp, karas, oq amur, mozambik tilapiyasi va boshqa baliq turlarini boqishadi.

Tog' usulida baliq yetishtirish. Tog'lardan oqayotgan suvlarni yo'lini to'sib odatda ko'p qavatli terasalar quriladi, ularning devorlari tosh bilan yopilib sementlanadi. Bunday rezervuarlarning pastki qismi odatda qattiq loy bo'ladi. Ularning maydoni kichik – bir necha kvadrat metr, chuqurligi 1 metrgacha bo'ladi, suv quvurlari esa bambukdan tayyorlanadi. Baliq yetishtirish uchun tayyorlangan suv xavzasini yonidan ariq kovlanib, tog'dan katta suv kelganda havzaga zarar yetkazmasdan, yonidan o'tib ketishiga moslashgan. Tog' hududlarida suv o'tlarining katta zahiralari mavjudligi sababli bu yerda ham asosan oq amur baliq'i yetishtiriladi. Tog'ni yuqori qismidagi tiniq va sovuq suvlarda qimmatbaho xon baliq'i yetishtiriladi.

Xonadonda baliq yetishtirish. Shahar chetida yashaydigan dehqonlarni ko'pchiligi o'zini hovlisida betonlangan, odatda 100 m²gacha hovuzlar quradi va ularda qimmatbaho baliq turlari mo'ylovli klariya, oq-qorinli yolg'on ilon baliq va

⁵⁸ Nurmatov N.J., Avliyaqulov A.A. // Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti // darslik – Toshkent.: "Fan ziyosi" nashriyoti, 2021, 115-116 betlar.

⁵⁹ <https://agro-olam.uz/baliqchilikda-xitoy-tajribasi/>

boshqa baliq turlari yetishtiriladi. Baliqlarni boqish va saqlash qiyin bo'lmaganligi sababli, ulardan bir yilda bir necha marta hosil olish mumkin. Xonadonlar shaharga yaqin joylashganligi sababli yetishtirilgan baliq mahsulotlarini shahar bozorlariga yetkazib berishadi. Hovuz qurishga imkoni bo'lmagan dehqonlar hovlisiga temirli yoki plasmassali kichik basseynlar o'rnatib, ularda qimmatbaho dekorativ baliqlarni ko'paytirib sotishni yo'lga qo'ygan.

Tabiiy suv havzalaridan foydalanib baliq yetishtirish usuli. Bugungi kunda fermer xo'jaliklari bosqichma-bosqich o'rta va yirik suv havzalaridan foydalanishga harakat qilishmoqda. Xitoyda hovuzlarda baliq yetishtirishning mahsuldorligi yuqori bo'lsada, biroq qishloq xo'jaligini rivojlanishi sababli va bo'sh yerlarni ishlab chiqarishda foydalanishga olinishi natijasida, baliqchilik uchun yangi suv havzalarini ochish sharoitlari cheklangan. Shu bois mavjud bo'lgan katta va o'rta tabiiy suv havzalaridan intensiv foydalanish hisobiga ushbu muammoni hal qilish mumkin.

Xitoydagi dengiz, daryo, ko'l va suv omborining bir qismiga qoziqlar qoqib, to'r tortib o'rab, hosil bo'lgan katta suv havzalarida baliq yetishtirishni keng ko'lamda qo'llaniladi. Mazkur usulda:

- mahsuldorligi past bo'lgan dengiz, daryo, ko'l va suv omborlaridan to'laqonli foydalanish va ulardan intensiv texnologiyalar yordamida ko'p xosil olish;

- baliq yetishtirish tannarxini pastligi, to'siqlar qurib havzani o'rash uchun, yangi suv havzasi qurishga nisbatan uch marta kam harajat sarflanadi;

- to'siqdan (to'r) suvni bemalol kirishi o'ralgan havza suvini yengil oqishiga va suv bilan birga o'ralgan havzaga zooplanktonlarni kirib kelishiga olib keladi, bu esa baliqlarga berilayotgan ozuqalarni tejalishiga sabab bo'ladi;

- havzaga tashlangan baliqlarni lichinkasi, chavog'i va ozuqalarni bir qismi to'rlar orqali chetga chiqib ketishi ham katta havzani baliq mahsuldorligini oshishiga sabab bo'ladi.

O'ralgan havzada yetishtirilgan baliqlarni mahsuldorligi, o'ralmagan havzani mahsuldorligidan 10 baravar yuqori bo'ladi. Keyingi yillarda baliq yetishtirishning ushbu usulini keng qo'llanilishi uning samarali ekinligidan dalolat beradi.


Xitoy baliqchiligining muhim xususiyatlaridan biri baliq ishlab chiqarishni boshqa bir soha bilan integratsiyasidir. Bu baliq yetishtirish usuli juda oqilona hisoblanib, u barcha chiqindilarni yo'q qilishni va qimmatbaho sifatli ozuqani juda kam ishlatilishini ta'minlaydi. Yuqori baliq hosildorligi va tannarxining pastligi, baliqlarga beriladigan omuxta yem ratsionni 1 foizini tashkil etadi, qolgan 99 foiz qismi chiqindilar va o'simliklarning yashil massasidan qoplanadi. Xo'jalik mineral o'g'itlarni umuman ishlatmaydi, chunki integratsiya tufayli o'zida organik o'g'itlar ko'p bo'lib, ularni suvga tashlash natijasida yuqori hosildorlikka erishiladi.

Bunda havza har yili tozalanadi, unda juda ko'p miqdorda quyqa cho'kindi yig'iladi, quyqa cho'kindi o'g'it sifatida meva-sabzavotchilik va boshqa o'simlikchilik sohalarida ishlatiladi. Havzalar orasidagi dambalar ayrim xo'jaliklarda 10 metrdan oshadi, ularda ko'pincha baliqlar ozuqasi uchun ko'k o't,


meva-sabzavotlar, pilla qurtlari uchun tut daraxtlari yetishtiriladi. Bunday integratsiyalashgan baliq yetishtirish tannarxi, sifatli omuxta yem va mineral o'g'it ishlatib olingan baliq hosildorligidan 30-40 foiz arzonga tushadi.

Xitoy baliq va dengiz mahsulotlarini ichki yetkazib berish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi.

Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, tijorat yo'li bilan baliq yetishtirish bilan shug'ullanuvchi mamlakatlarda yiliga 35 ming tonnagacha tovar go'sht va 650 tonnaga yaqin qora ikra yetishtiriladi. Asosiy ulush Xitoyga to'g'ri keladi, u yerda yiliga 30 ming tonnaga yaqin go'sht va 500 tonnadan ortiq qora ikra yetishtiriladi.



1.2.7-rasm. Xitoyda baliq va dengiz mahsulotlarini iste'mol qilishni umumiy xajmi (mln.tonnada)⁶⁰.




1.2.8-rasm. 2010-2018-yillarda Xitoy umumiy baliqchilik mahsulotlari (tonnada)⁶¹.

⁶⁰ ОТРАСЛЕВОЕ ИЗДАНИЕ. Журнал «РЫБОЛОВСТВО И РЫБОВОДСТВО» № 8 / ЛЕТО-ОСЕН / 2021. ООО «Типографский комплекс «Девиз» 195027, Санкт-Петербург

⁶¹ <https://databank.worldbank.org/reports.aspx?source=2&series=ER.FSH.AQUA.MT&country=CHN>

Euromonitor ma'lumotlariga ko'ra, Xitoyda baliq va dengiz mahsulotlarining hozirgi iste'moli yiliga taxminan 45 million tonnani tashkil etadi va 2024-yilga kelib 50 million tonnagacha oshadi (1.2.7-rasm). Buning bir qancha sabablari bor: aholi qatlamining o'sib borishi (o'rta sinfga mansub aholi qatlamining ko'payishi), bu hayvon oqsillarini iste'mol qilishning ko'payishi va sog'lom turmush tarziga intilish bilan birga, iste'molchilar tomonidan diyetada qizil go'sht o'rniga baliq ulushining ortishi bilan bog'liq.

2018-yil Xitoy umumiy baliqchilik mahsulotlari 80966368 tonnani qilib, 2010-yildagi 62343812 tonnaga nisbatan 1,3 baravarga o'sgan (1.2.8-rasmga qarang).



1.2.9-rasm. 2010-2018-yillarda Xitoy Akvakulturasini mahsulotlari (tonnada)⁶².

1.2.9-rasmdan ko'rinadiki, 2018-yilda Xitoy akvakulturasini mahsulotlari 66135060 tonnani tashkil qilgan. Bu esa 2010-yildagi 47489756 tonnaga nisbatan 1,4 baravarga o'sgan.

Xitoyda chuchuk suv baliqlarining 709 turi va 58 kenja turi mavjud bo'lib, yana 64 tur dengiz va ichki suvlar orasida ko'chib o'tadi.

Akvakultura, hovuzlar, ko'llar va akvariumlarda baliq yetishtirish Xitoyda ishlab chiqarilgan mahsulotning uchdan ikki qismini tashkil qiladi.

2021-yilda suv mahsulotlarining umumiy ishlab chiqarilishi 66,93 million tonnani tashkil etdi, bu o'tgan yilga nisbatan 2,2 foizga ko'pdir. Ularning umumiy hajmidan yetishtirilgan suv mahsulotlari 53,88 million tonnani tashkil etdi, bu 3,1 foizga ko'p; baliq ovlangan suv mahsulotlari 13,05 million tonnani tashkil etib, 1,5 foizga kamaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki, mamlakatimizda baliqchilikni yanada rivojlantirish va serdaromad sohaga aylantirish uchun xitoy tajribasi

⁶² <https://databank.worldbank.org/reports.aspx?source=2&series=ER.FSH.AQUA.MT&country=CHN>

asosida quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lar edi:

1. Xitoy tajribasi asosida kichik suv hovuzlarida intensiv usulda baliq yetishtirishni yo'lga qo'yishni kengroq targ'ib qilish. Bu usulda bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent, Sirdaryo, Xorazm, Navoiy va Samarqand viloyatlarida keng foydalanilmoqda.

2. Xitoyni integratsiyalashgan texnologiyasi boshqa davlatlarga to'g'ri kelmasligi mumkin, lekin bu ishlab chiqarishdan kelib chiqib har bir davlat o'z modelini topishi yoki mavjud texnologiyalarni yaxshilash uchun asos sifatida foydalanishi mumkin. Cho'chqa baliq integratsiyasidan tashqari, baliq va parrandani (tovuq, o'rdak) birgalikda boqish yaxshi natija berishi mumkin.

3. Sun'iy havzalar ozuqa bazasini rivojlantirish maqsadida mayda suv o'tlarini (xlorella, ssenodesmus, moina va boshqa) sun'iy ravishda ko'paytirish texnologiyasini joriy etish hisobiga baliq chavoqlarini qo'shimcha oziqlantirish va sifatli chavoqlar ishlab chiqarish yaxshi natija beradi.

4. Katta havzalarni bo'lib, chuqurlatib ularda Xitoydagi oilaviy pudrat shaklida 0,5-1 gektarlik suv havzalarida baliq boqishni yo'lga qo'yish.

5. Baliq boqishga sharoiti bor (ariq, hovuz, basseyn, jarlik va boshqa.) hududlarda aholiga baliq chavoqlari va omuxta yem yetkazib berib baliq boqishga qiziqtirish;

Xitoy baliqchilarining qadimiy an'analari va zamonaviy yutuqlaridan foydalanish mamlakatimizda baliqchilik sohasini rivojlantirish uchun texnologik baza yaratishga yordam beradi.

Koreya tajribasi. O'zbekiston amalga oshirayotgan tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy shakli xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqada bo'lishidir.

Shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Koreya Respublikasi bilan ham iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'ygan.

Koreya Respublikasining dinamik iqtisodiy o'sish tarixi 1960-yillarning boshidan boshlanadi. 1961-1979-yillarda Koreya Respublikasi iqtisodiyoti yiliga o'rtacha 10,0% o'sgan.

Koreya Respublikasi iqtisodiyoti 1980-2018-yillarda qariyb 20 barobar o'sdi. To'g'ri amalga oshirilgan islohotlar, qulay global iqtisodiy muhit va yuksak mehnat madaniyati Koreyaga agrar mamlakatdan jahon bozorida yetakchi sanoat o'yinchilaridan biriga aylanish imkonini berdi.

Mamlakat hukumati tomonidan ko'rilgan chora-tadbirlar ko'zga ko'rinadigan natijalarga olib keldi: 1981-1997-yillarda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati nihoyatda yuqori bo'ldi (yiliga o'rtacha +9,1%). Biroq, 1996-yilda mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'ati sekinlashdi⁶³.


Koreya Respublikasi jahon yalpi ichki mahsulotining qariyb 1,9 foizini tashkil etuvchi dunyoning yetakchi iqtisodiy kuchlaridan biri (YAIM bo'yicha u dunyoda 10-o'rinda turadi), aholi jon boshiga daromad darajasi ham ancha yuqori – kishi boshiga 30 ming dollarga yaqin.

Koreya Respublikasida iqtisodiyotda band bo'lgan jami aholining atigi 4,0% qishloq xo'jaligida band. Shu bilan birga, so'nggi o'n yilliklarda yalpi ichki

⁶³Республика Корея:успехи и проблемы развития.Бюллетень о текущих тенденциях мировой экономики. 2019.
<https://ac.gov.ru/archive/files/publication/a/21953.pdf>

mahsulot tarkibida qishloq xo‘jaligi ulushining pasayish tendensiyasi saqlanib qoldi - masalan, 2017-yilda u 2 foizga yaqinni tashkil etgan bo‘lsa, 1990-yilda bu ko‘rsatkich 8 foizni tashkil etgan. Dunyoning aksariyat rivojlangan mamlakatlarida bo‘lgani kabi, YAIM tarkibida asosiy ulush xizmat ko‘rsatish sohasiga to‘g‘ri keladi - 62 foiz, sanoat 36 foizni tashkil etadi.

Quyidagi 1.2.10-rasmda Koreya Respublikasining 2011-2021-yillardagi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari haqida malumotlar keltirilgan.



1.2.10-rasm. 2011-2021-yillardagi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar⁶⁴.

Koreya Respublikasida kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun davlat mablag‘lari uchta yo‘nalishda sarflanadi:

- ✓ imtiyozli kreditlar berish (8 yilgacha va foiz stavkasi bank stavkasidan 2,5-3 foizga past),
- ✓ yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish va to‘ldirish.
- ✓ aylanma mablag‘lar.

Koreyada kichik biznesni tartibga solish bilan shug‘ullanuvchi 15 ta tashkilot mavjud; ularning aksariyati hukumatga tegishli. Kichik biznesga yo‘naltirilgan ikkita bank va ikkita jamg‘arma tashkil etilgan. Ta’kidlash joizki, yirik tashqi savdo tuzilmalari kichik korxonalar mahsulotlari eksportini rag‘batlantirish bilan shug‘ullanadi. Ular bozorni o‘rganadi, tadbirkorlarni ma’lumotlar bilan ta’minlaydi, jahon bozoriga chiqishga ko‘maklashadi, soliqlar, bojxona tariflari va imtiyozli kredit stavkalarini pasaytirish ustida ish olib boradi.

Tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish Koreya Respublikasi iqtisodiy tarixining asosiy masalasidir. Davlatning mamlakat iqtisodiy tuzilishiga integratsiyalashuvi shunchalik kattaki, davlat mexanizmi funksiyalarining o‘zgarishi butun iqtisodiy tizimning hayotiyligiga bevosita ta’sir qiladi. 1980-yillarning oxirida boshlangan jamiyatni demokratlashtirish iqtisodiyotga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatib, xususiy tadbirkorlikning kuchayib borayotgan tashabbusi va davlat nazoratining davom etishi o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarning kuchayishiga sabab bo‘ldi. Janubiy Koreya iqtisodchilari o‘rtasida

⁶⁴ <http://kostat.go.kr/portal/eng/index.action>. Koreya Respublikasi statistika boshqarmasi sayti.

olib borilayotgan munozaralar faqat davlat tomonidan tartibga solishning roli va ko'lamiga tegishli. Uni butunlay bekor qilish masalasi kun tartibida emas. Davlatning roli byurokratik va nazorat-boshqaruvdan yordamchi rolga o'tmoqda, u iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratishga, markaziy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida mas'uliyatni adolatli va samarali taqsimlashga qaratilgan. Davlatning bilvosita aralashuvi tizimi bilan bozorning organik birikmasi modeli shakllantirilmoqda⁶⁵.

Baliqchilik Janubiy Koreya iqtisodiyotining muhim qismidir. Bu sohada 140 mingga yaqin kishi mehnat qiladi. Mamlakatda 96 mingga yaqin baliq ovlash kemalari mavjud.

Ozarbayjon	Yettinchi baliqchilik zonasiga kirishi va akvakulturani rivojlantirish uchun eng qulay iqlimi bilan ajralib turadi. Tadbirkorlik faoliyatining maqbul rentabelligini ta'minlaydigan va raqobatbardoshlik tamoyillariga asoslangan ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qonunchilik va boshqaruvni takomillashtirish ishlari amalga oshirilgan. Kichik va o'rta biznesni rag'batlantirish infratuzilmasi shakllantirilgan. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida islohotlarni amalga oshirishga ko'mak bo'lib xizmat qilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy baza mavjud. Yettinchi baliqchilik zonasiga kirishi va akvakulturani rivojlantirish uchun eng qulay iqlimi bilan ajralib turadi.
Ozarbayjon	Kaspiy dengizi va Kura daryosining baliq zahiralardan foydalanish zavodlari (baliq konservalari ishlab chiqarish zavodi) faoliyat yuritishi; baliq va baliq mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi mahalliy va xorijiy korxonalar mavjud. 2020-yilda Ozarbayjon o'zini dengiz mahsulotlari bilan ta'minlash va endi importga qaram bo'lmaslik maqsadida "Baliq xo'jaligini rivojlantirish davlat dasturi"ni ishlab chiqdi, unda ichki iste'mol uchun baliq yetishtirish ko'zda tutilgan va dengizda sanoat miqyosida baliq yetishtirishni qamrab oladi.
Turkiya	Tadbirkorlik sohasini rivojlantirishda davlatning yuqori, biznes yuritishning asosiy qoidasi – qonunlarga rioya qilinadi. Turkiyada biznes ochish osonligi, uni yuritishda – davlat hech qanday byurokratik kechikishlarga imkon qoldirmaydi. Qonunlarning soddaligi va soliqlarni o'z vaqtida to'lash va muayyan hududda belgilangan biznes yuritish qoidalariga rioya qilinadi. Soliq to'lashdan bo'yin tovlash, rasmiy ro'yxatdan o'tmagan shaxsni ishga olish yoki boshqa qonunbuzarliklar Turkiya davlati tomonidan juda qattiq jazolanadi. Barqaror oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida Turkiya akvakultura mahsulotlari yetishtirish sektorini qo'llab-quvvatlanamoqda. 2009-yilda Yevropa Ittifoqi qoidalariga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan. Dengiz akvakulturasini rivojlantirish milliy rejasini amalga oshirilgandan beri ishlab chiqarish quvvati oshgan, avtomatlashtirish orqali ozuqa va mehnat xarajatlari kamaytirilgan, akvakultura xodimlari uchun huquqiy kafolatlar olish orqali barqarorlik ta'minlangan. Baliqchilik tarmog'ini rivojlantirish yuklangan Turkiya Respublikasi Qishloq va o'rmon xo'jaligi vazirligi o'zining 10-chi rivojlanish rejasida (2014-2018) quyidagi masalalarga ustuvor ahamiyat bergan: ✓ nasldor baliq turlarini boshqarish va naslchilik dasturlarini tayyorlash; ✓ barqaror akvakultura tizimlarini rag'batlantirish; ✓ akvakultura ozuqalari bilan uzluksiz ta'minlash choralarini ko'rish; ✓ muqobil ozuqa manbalarini o'rganish.

1.3-§. O'zbekiston Respublikasi baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirishning tashkiliy – huquqiy asoslari

O'zbekistonda so'nggi yillarda KBXTni rivojlantirishga bo'lgan e'tibor bu sohada olib borilayotgan islohotlarda o'z aksini topmoqda. Bu borada muayyan yutuqlar qo'lga kiritilayotganligini alohida ta'kidlash joiz. Xususan, KBXT subyektlarini tashkiliy-huquqiy asoslarini bunyod etish va uni rivojlantirish borasida davlatimiz tomonidan qabul qilingan bir qator farmonlar, qarorlar va boshqa normativ-huquqiy xujjatlar mazkur amaliyotni tashkil etish va rivojlantirishning muhim omiliga aylandi.

Quyidagi 1.3.1-jadvalda O'zbekiston Respublikasida KBXT subyektlarini tashkiliy-huquqiy asoslarini bunyod etish va uni rivojlantirish borasida davlatimiz tomonidan qabul qilingan qaror va farmonlar tahlilini keltirib o'tdik.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev aytganlaridek, *"Faol tadbirkorlik*

biznes faoliyatini innovatsion, ya'ni zamonaviy yondashuvlar, ilg'or texnologiya va boshqaruv usullari asosida tashkil etadigan iqtisodiy yo'nalishdir"⁹⁴.

Jahon bozorlarida raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi sharoitda iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini tubdan oshirish, eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarga qulay sharoitlar yaratish, imtiyozlar berishni kuchaytirish, KBXT subyektlarining eksport faoliyatidagi ishtirokini har tomonlama rag'batlantirish va kuchaytirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

1.3.1-jadval

O'zbekiston Respublikasida KBXT subyektlarini tashkiliy-huquqiy asoslarini bunyod etish va uni rivojlantirish borasida davlatimiz tomonidan qabul qilingan ayrim qaror va farmonlar tahlili⁹⁵.

Qabul qilingan qaror va farmonlar	Qaror va farmonlarning maqsadi, qisqacha mazmuni.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 5-yanvardagi "Xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko'rsatish va uni rag'batlantirish to'g'risida" gi №PF-1030-son farmoni.	Respublika aholisini tadbirkorlik sohasiga keng ko'lamda jalb etishni ta'minlash, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida xususiy biznesning rolini sifat jihatidan oshirish maqsadida qabul qilingan.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 30-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 9-apreldagi "Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-1987-son farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" gi PF-3305-son farmoni	Kichik tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, mamlakat iqtisodiyotida xususiy sektor ulushini oshirish, ishlab chiqarish sohasida aholi bandligini to'laroq ta'minlash uchun yanada qulay sharoit yaratish maqsadida qabul qilingan.
Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 11-avgustdagi "Kichik tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish to'g'risida" 1998-yil 27-maydagi 232-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" 193-sonli qarori	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlarning amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2005-yil 14-iyundagi PF-3618-son Farmonini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2005-yil 14-iyundagi PF-3619-son Farmonini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobotlar tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida" 2005-yil 15-iyundagi PQ-100-son qarorini bajarish maqsadida qabul qilingan.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyundagi "Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada	Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizatsiyalash, sud-huquq tizimini yanada erkinlashtirish, nazorat organlarining tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvini kamaytirish, ularning

⁹⁴ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси //«Халқ сўзи» газетаси, 2018 йил 23 декабр.

⁹⁵ <https://lex.uz/uz/>. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3619-son farmoni	huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyati asossiz cheklanishiga yo'l qo'ymaslik, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasi talablariga so'zsiz rioya etish maqsadida qabul qilingan bo'lib, 2005-yilning 1-iyulidan boshlab tadbirkorlik subyektlariga nisbatan huquqiy ta'sir choralari faqat sud orqali qo'llanish tartibi joriy etilgan.
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 11-avgustdagi "Vazirlar Mahkamasining "Kichik tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish to'g'risida"gi №193-son qarori	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlarning amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2005-yil 14-iyundagi PF-3618-son Farmonini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2005-yil 14-iyundagi PF-3619-son Farmonini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobotlar tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida" 2005-yil 15-iyundagi PQ-100-son qarorini bajarish maqsadida qabul qilingan.
O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2005-yil 5-oktyabrdagi "Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3665-son farmoni	Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishni tashkil qilish tizimini takomillashtirish va tekshirishlar sonini keskin qisqartirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga qat'iy rioya etilishi uchun nazorat organlari mansabdor shaxslarining javobgarligini kuchaytirish maqsadida qabul qilingan.
O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2011-yil 12-maydagi -son "Tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1529 qarori	"Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat dasturiga muvofiq hamda tadbirkorlik faoliyatini keng rivojlantirish uchun qo'shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish va xarajatlarini kamaytirish maqsadida qabul qilingan.
O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2011-yil 24-avgustdagi "Tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4354-son farmoni	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2011-yil 24-avgustdagi PF-4354-son Farmonini hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati erkinligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2011-yil 25-avgustdagi PQ-1604-son qarorini bajarish maqsadida qabul qilingan.
O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2011-yil 25-avgustdagi "Byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati erkinligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1604-son qarori	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun eng qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2011-yil 24-avgustdagi PF-4354-sonli Farmoniga muvofiq hamda xususiy mulkchilikni rivojlantirish yo'lida ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish hamda tadbirkorlik faoliyati ko'lamlarini kengaytirish, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish va mahsulotlarni eksportga yetkazib berishni ko'paytirishda kichik biznes subyektlarining faol

	ishtirok etishlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida qabul qilingan.
O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 18-iyul 2012-yildagi "Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-4455-son farmoni	Ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish, korxonalarning faoliyati bilan bog'liq tartib-taomillarning barcha turlarini qisqartirish, soddalashtirish va ochiq-oydinlik darajasini oshirish, biznesni yuritish shart-sharoitlarini baholash mezonlarining jahon amaliyotida hamma tomonidan qabul qilingan tizimini joriy etish va shu asosda mamlakatimiz ishbilarmonlik va investitsiya muhiti darajasining xalqaro reytingini yanada oshirish maqsadida qabul qilingan.
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2014-yil 2-dekabrda "Qonun hujjatlarining tadbirkorlik faoliyatiga ta'sirini baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 328-son farmoni	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Res-publikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-son Farmoniga muvofiq, shuningdek O'zbekiston Respublikasining Interaktiv davlat xizmatlari yagona portalida qonun hujjatlarini muhokama qilish uchun sharoit yaratish orqali ularning tadbirkorlik faoliyatiga ta'sirini baholash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida qabul qilingan.
O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 16-may 2015-yildagi "Xususiy mulk, kichik biznes va xusu-siy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4725-son farmoni	Respublika iqtisodiyotida xususiy mulkning o'rni va rolini tubdan oshirish, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, yalpi ichki mahsulotda xususiy mulk, jumladan, chet el kapitali ishtirokidagi ulushini izchil oshirish maqsadida qabul qilingan.
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning 06-oktyabr 2016-yildagi "Tadbir-korlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har to-monlama himoya qilishga va ishbi-larmonlik muhitini sifat jihatidan yax-shilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4848-son farmoni	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishini ta'minlash, xususiy mulkni himoya qilish va uning daxlsizligi kafolatlarining huquqiy mexanizmlarini yanada mustahkamlash, tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, respublikada investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash maqsadida qabul qilingan.
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning 19-iyun 2017-yildagi "Biznes-ning qonuniy manfaatlarini davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbir-korlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5087-son farmoni	2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlan-tirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni ijro etish, biznes hamjamiyati va davlat organlari o'rtasida samarali muloqot va sog'lom sherikchilik mexanizmlarini yo'lga qo'yish, xususiy mulkchilik va tadbirkorlik subyektlarining huquq-lari va qonuniy manfaatlarini ishonchli muhofaza qilish kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlar bilan biznes-muhitni takomillashtirish masalalari bo'yicha dolzarb axborot alma-shinuvining doimiy kanalini, avvalo viloyatlar, shaharlar va tumanlarda joriy etish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quv-vatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning amaliy natijalariga erishish, o'zining biznesini tashkil etish va yuritishda aholiga har tomonlama ko'mak berish, shu-

	ningdek, tadbirkorlik subyektlariga sifatli davlat xizmatlari ko'rsatishni ta'minlash maqsadida qabul qilingan.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20-noyabr 2019-yildagi PQ-4525-son "Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4525-son qarori	Mamlakatimizda biznes yuritish muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlikka keng erkinlik berish borasida boshlangan islohotlarni davom ettirish hamda qabul qilingan qonun hujjatlarining joylarda to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlash maqsadida qabul qilingan.

Mamlakatimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini ta'minlashning eng samarali yo'li bu - tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash ekanini hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Konstitutsiyamizda iqtisodiy faoliyat, barcha mulk shakllarining tengligi va davlat tomonidan birdek muhofaza etilishi kafolatlangan. Lekin, iqtisodiyotda davlat aralashuvining yuqoriligi va byurokratiya, soliq, bojxona hamda bank tizimidagi mavjud muammolar ichki investitsiyalarni kamaytirishga va xorijiy sarmoyadorlarni yanada kengroq jalb etishga hali ham to'siq bo'lib kelmoqda.

Mashhur Xitoy faylasufi Sun Szining xikmatli gapi bor: "Soliqlarni haddan ziyod kuchaytirish turli talon-tarojlikni keltirib chiqaradi, dushmanlarning boyishiga xizmat qiladi, oqibatda, davlat inqirozga uchraydi"⁹⁶.

Tadbirkorlik moliyaviy munosabatlarida soliqlar muhim o'rin tutadi. Soliqlar – bu davlat byudjetida majburiy to'lov hisoblanadi. Davlat byudjeti esa davlat tomonidan o'z vazifalarini amalga oshirish uchun sarflanadigan markazlashtirilgan pul jamg'armalaridir⁹⁷.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sa'y-harakatlari tufayli keyingi yillarda tadbirkorlikning qonunchilik hamda huquqiy-me'yoriy asoslari ancha mustahkamlandi va takomillashtirildi. Shuningdek, tadbirkorlarni soliqqa tortish, buxgalteriya hisobi va statistika hisobotlarini topshirish tizimi soddalashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 20-avgust kuni mamlakatimiz tadbirkorlari bilan o'tkazgan ochiq muloqotida, bunday ochiq muloqotni an'anaga aylantirib, har yili tashkil etish, 20-avgustni mamlakatimizda "Tadbirkorlar kuni" deb e'lon qilish taklifini bildirdi. Bu takliflar keng qo'llab-quvvatlandi⁹⁸.

Buning natijasida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 23-dekabr kuni O'RQ-739-sonli "Tadbirkorlar kunini belgilash to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni imzoladi va ushbu qonun bilan 20-avgust "Tadbirkorlar kuni" etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek – ***"Biz doimo izlanib, yangilikka intilib yashaydigan tadbirkorlarimizni, o'z ishiga fidoyi va jonkuyar, vatanparvar insonlar deb bilamiz va ularni qadrlaymiz"***⁹⁹.

2020-yilda koronavirus pandemiyasi sababli ko'plab mamlakatlarda chuqur

⁹⁶ Мирзиёев, Шавкат Мирмонович. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтариламиз. 3-жилд. –Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2019. 67-бет.

⁹⁷ Ҳамраев, Ҳалим Ражабович. Тadbirkorlik asoslari: kasb ta'limi (iqtisodiyot) йўналиши талабалари учун ўқув қўлланма. Тошкент.: Янги нашр, 2010. 318-бет.

⁹⁸ Ҳалқ сўзи газетаси, №177-178 (7957-7958), 2021 йил 21 август.

⁹⁹ Ҳалқ сўзи газетаси, №177-178 (7957-7958), 2021 йил 21 август.

iqtisodiy muammolar boshlangani hammamizga ma'lum. O'zbekistonda ham mazkur inqirozning mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha barcha zarur choralar ko'rilayapti.

1.3.2-jadvalda Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning koronavirus pandemiyasi davrida aholi hamda tadbirkorlik suyektlarini himoya qilish yuzasidan qabul qilingan qaror va farmonlari maqsadi va mazmun-mohiyati ochib berilgan.

1.3.2-jadval

O'zbekiston Respublikasida koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik suyektlarini himoya qilish yuzasidan chiqarilgan qaror va farmonlar tahlili¹⁰⁰.

Qabul qilingan qaror va farmonlar	Qaror va farmonlarning maqsadi, qisqacha mazmuni.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-martdagi "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5969-sonli farmoni.	Farmon koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish va boshqa global xavf-xatarlar davrida makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarining uzluksiz ishlashini ta'minlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish, aholini samarali ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, mamlakat aholisi daromadlari keskin pasayib ketishining oldini olish maqsadida qabul qilingan bo'lib, pandemiyaning mamlakat iqtisodiyoti va aholi turmush darajasiga salbiy ta'sirini yumshatishga qaratilgan navbatdagi imtiyozlar, preferensiyalar va boshqa muhim chora-tadbirlarni nazarda tutadi. Ushbu Farmon bilan 2020-yilning 1-aprelidan 1-oktyabrgacha bo'lgan davrda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ijtimoiy soliqning oylik eng kam summasi bazaviy hisoblash miqdorining 50 foiziga qadar kamaytirildi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-apreldagi PF-5978-sonli "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni	Ushbu farmon koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish davrida aholini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish va iqtisodiyot tarmoqlari faoliyat ko'rsatishining barqarorligini ta'minlash, shuningdek, ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida qabul qilingan. Farmon bilan karantin tadbirlari davrida o'z faoliyatini to'xtatishga majbur bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i qat'iy belgilangan summasini va ijtimoiy soliqni hisoblash to'xtatildi, bunda faoliyatni to'xtatganlik to'g'risida soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali davlat soliq xizmati organlari xabardor qilinishi va davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik to'g'risida guvohnomani topshirish talab etilmasligi belgilandi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-apreldagi "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik suyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 5986-sonli Farmoni	Farmon koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish davrida asosiy daromad manbalarini yo'qotgan shaxslarni, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj katlamlarini va tadbirkorlik suyektlarini qo'shimcha qo'llab-quvvatlashni ta'minlash maqsadida qabul qilingan. Ushbu farmon bilan pandemiya faoliyatiga salbiy ta'sir qilgan mikrofirmalar, kichik korxona va yakka tartibdagi tadbirkorlarga 2020-yil 1-oktyabrgacha ayrim soliqlarni foizsiz kechiktirish (bo'lib-bo'lib to'lash) huquqi taqdim etildi. Foizsiz kechiktirishni (bo'lib-bo'lib to'lash) taqdim etish muddati 2020-yil 31-dekabrgacha uzaytirildi.
O'zbekiston Respublikasi	Ushbu qaror sog'liqni saqlash tizimi va sanitariya-epidemiologiya

¹⁰⁰ <https://lex.uz/uz/>. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Prezidentining 2020-yil 22-apreldagi “Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, byudjet, bazaviy infratuzilma va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash uchun tashqi yordam mablag‘larini jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4691- sonli qarori	xizmatining koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga tibbiy yordam ko‘rsatish samaradorligini va imkoniyatlarini oshirish, shuningdek, byudjetni, qishloq xo‘jaligi, kommunal va energetika sohasidagi korxonalarni qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash maqsadida qabul qilindi. Qaror bilan Koronavirus global pandemiyasining salbiy oqibatlariga qarshi kurashish chora-tadbirlari uchun grantlar va uzoq muddatli imtiyozli moliyalashtirishni jalb qilish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Qarorning 2-ilovasiga muvofiq Investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish doirasida grantlar va uzoq muddatli imtiyozli moliyalashtirishni jalb qilish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi guruh tarkibi tasdiqlandi. Quyida Muvofiqlashtiruvchi guruhning eng muhim vazifalaridan ayrimlari keltirilgan: XMI ishtirokidagi loyihalarni tayyorlash, tasdiqlash va amalga oshirish bilan bog‘liq tezkor qarorlar qabul qilish; XMI mablag‘lari hisobidan tovarlar va xizmatlar, birinchi navbatda, tibbiy uskunalar va tibbiy buyumlar xarid qilishning jadallashtirilgan mexanizmlarini amaliyotga joriy etish; jalb qilingan XMI mablag‘larining tegishli vazirliklar, idoralar, tijorat banklari, korxonalar va tadbirkorlik subyektlariga ajratilishini tezlashtirish;
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-maydagi “Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5996 sonli Farmoni.	Ushbu farmon mamlakatimizda iqtisodiy o‘sish va investitsiyaviy faollikni rag‘batlantirish, ishlab chiqarish sur‘atlarini tiklash, aholi bandligini oshirish, daromadlarini ko‘paytirish va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilganligi bilan muhim ahamiyatga ega. Farmon bilan kichik tadbirkorlik subyektlari, bozorlar va savdo komplekslari, kinoteatrlar, umumiy ovqatlanish korxonalari, jamoat transporti korxonalari, sport-sog‘lomlashtirish muassasalari, shuningdek, yo‘lovchi tashish, maishiy xizmatlar ko‘rsatish, binolarni, shu jumladan banketlar o‘tkazish uchun ijaraga berish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar 2020-yilning 1-iyunidan 1-sentyabrigacha bo‘lgan davrda mol-mulk solig‘i va yer solig‘ini to‘lashdan ozod qilindi.

COVID-19 koronavirus pandemiyasi natijasida yuzaga kelgan inqiroz hamda uning oldini olish maqsadida kiritilgan cheklov choralari sezilarli ijtimoiy-iqtisodiy zarbalarga olib keldi.

O‘z navbatida, koronavirus pandemiyasining mamlakatdagi iqtisodiy-ijtimoiy vaziyatga salbiy ta‘sirini yumshatish borasida qabul qilingan inqirozga qarshi choralar to‘plamining amalga oshirilishi mamlakatda iqtisodiyotning muhim tarmoqlarida faoliyatning barqarorligini saqlab qolish imkoniyatini berdi.

Mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyotini jahondagi eng rivojlangan mamlakatlar darajasiga olib chiqish va sohadagi islohatlar samarasini yanada oshirish bo‘yicha bir qator tizimli muammolar o‘z echimini kutayotganligi hech kinga sir emas, albatta.

Shuni ta‘kidlash kerakki, qabul qilingan qaror va farmonlar tadbirkorlarni har tamonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning faoliyatiga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarni oldini olishga xizmat qilishi shubhasiz.

Yangi O‘zbekiston aholisini hozirgi vaqtda oziq-ovqat maxsulotlariga xususan go‘sht mahsulotlariga o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida,

baliqchilik sohasida KBXTni rivojlanishi oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash barobarida, aholini baliq tarkibidagi yuqori sifatli oqsillar bilan ta'minlash imkonini beradi. Ayniqsa, baliq tarkibidagi kalsiy moddasi bolalarning sog'lom bo'lib o'sishida muhim ahamiyatga ega. Baliq ovqat mahsulotining shunday ajralmas qismiki, tibbiyot xodimlari baliqni minimal normada bo'lsa ham iste'mol qilib turishni tavsiya etadi. O'zbekiston uchun bunday norma 12 kg/odam/yil. Dunyo miqyosida 2005-yilda aholi o'rtacha 16,6 kg/odam/yil baliq iste'mol qilgan¹⁰¹. Jumladan, 2020-yilda baliq mahsulotlari iste'moli aholi jon boshiga 21 kg ni tashkil qilgan.

Baliq go'shti tarkibida barcha turdagi moddalar, ularning turiga va boshqa xususiyatlariga qarab turli miqdorda bo'lishi aniqlangan. Masalan, suv–92%, yog'– 0,1–54%, azotli moddalar – 5,4–27%, mineral moddalar – 0,1–3% va h.k. Baliq go'shtida azotli moddalarning ko'p miqdorda bo'lishi, uning oziq qiymatini oshirish imkonini beradi¹⁰².

Baliqchilik va akvakulturaning rivojlantirish nafaqat mamlakatimiz aholisi, balki butun dunyo aholisi uchun, jumladan kelgusi avlod uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda aholi farovonligini oshirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Baliqchilik sohasini rivojlantirish, baliqchilik sohasida KBXTni keng yo'lga qo'yish borasida ham Respublikamiz Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasi tomonidan bir qator farmon va qarorlar ishlab chiqilgan.

Ushbu me'yoriy-huquqiy hujjatlar respublikada baliqchilik sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, KBXT subyektlari va aholining moliyaviy mablag'lar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun qulayliklar yaratish, ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda kam ta'minlangan aholi qatlamini tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishiga imkoniyat yaratish bilan birga, mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar tomonidan KBXT subyektlariga mikrokreditlar, mikroqarzlar berish, mikrolizing va boshqa mikromoliyaviy xizmatlarni ko'rsatishga huquqiy asos yaratib berdi.

Biz tadqiqotlarimiz davomida Respublikamiz baliqchilik sohasi taraqqiyotini bir necha tarixiy davrlarga bo'lib o'rgandik (1.3.1.rasm).

I-bosqich turg'unlik davri bo'lib, o'z ichiga 1991-yildan 1996-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. O'zbekiston 1991-yilda mustaqillikka erishgunga qadar baliqchilik sohasida ishlab chiqarish darajasi nisbatan yuqori bo'lgan. Sovet Ittifoqi parchalanganidan so'ng, baliq hovuzida ishchilar soni sezilarli darajada kamaydi. Bu bir qancha omillarga ko'ra sodir bo'ldi: yuqori malakali mutaxassislarning emigratsiyasi, boshqa foydaliroq faoliyat bilan shug'ullangan mahalliy mutaxassislarning ko'pchiligining sanoatni tark etishi, shuningdek, baliq ishlab chiqarishni qisqartirilishi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillarida, ya'ni 1991-1992-yillarda O'zbekistonda yetishtirilgan baliqlar miqdori bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega

¹⁰¹ S.Q.Husenov, D.S.Niyazov. Baliqchilik. O'quv qo'llanma. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013.-336 b.

¹⁰² Ikromov T.X., Qo'chqarov O'R. Chorva, parranda va baliq mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash texnologiyasi: Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – T.: "Davr nashriyoti" MChJ, 2017, - 224 b.

bo'lib, yetishtirilgan baliq hajmi 27200 tonna bo'lgan¹⁰³.

O'tgan asrning 93-yildan boshlab davlat tomonidan baliqchilik sohasini moliyalashtirishni va imtiyozlar berishni to'xtatilishi natijasida baliq ishlab chiqarishning pasayishi va importning qisqarishi kuzatildi.

Baliqchilik tarmog'i korxonalarining ishlab chiqarish va iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish hamda respublika aholisini baliq va baliq mahsulotlari bilan maksimal darajada ta'minlashda ularning tashabbuskorligi va tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida 1994-yil 18-avgustda Vazirlar Mahkamasining 427-son qarori qabul qilindi¹⁰⁴. Qarorga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zbaliq" baliq va baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish konserni tugatilib, "O'zbaliq" davlat-aksionerlik korporatsiyasi tashkil etildi.

"O'zbaliq" davlat-aksionerlik korporatsiyasi korxonalari suv obyektlari (baliq xo'jaligi havzalari) bo'yicha baliq zahiralarini ko'paytirish va tiklash yuzasidan chora-tadbirlar olib borayotgan bo'lsalarda, baliq ovlashga litsenziya uchun haq to'lashdan ozod qilinishi, baliq yetishtirishga ixtisoslashgan o'quv yurtlarining yo'qligi tufayli baliq yetishtiruvchilarning bilim darajasi ancha pastligi, sanoat kam ish haqi tufayli yoshlarni jalb qilmasligi, yangi egalar yuqori ish haqi orqali yuqori malakali xodimlarni saqlab qolishga harakat qilishi natijasida baliqchilikda rivojlanishlar kuzatilmadi.

II-bosqich tiklanish davri bo'lib, o'z ichiga 1996-yildan 2008-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. 1996-yildan 2003-yilgacha baliqchilik sohasida bir qator islohotlar amalga oshirilgan. Xususan, baliqchilik sohasini tashkiliy-huquqiy asoslarini bunyod etish va uni rivojlantirish borasida davlatimiz tomonidan bir qator farmonlar, qarorlar va boshqa normativ-huquqiy xujjatlar qabul qilinib, ama-liyotga tadbiiq qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi tomonidan 15-aprel 1997-yilda tasdiqlanib 1-may 1997-yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi hududida ov va baliq ovlash" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining Qoidalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 11-maydagi "Respublika baliqchilik tabiiy suv havzalaridan foydalanishni yaxshilash va baliq resurslari muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risi-da" №198-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 26-iyundagi "1998-2000-yillar davrida chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik uchun omixta yem ishlab chiqarishni ko'paytirish va uning sifatini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'ri-sida"gi №268-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 2-iyuldagi "Respublika baliqchilik tabiiy suv havzalarini biriktirib qo'yish va ulardan foydalanish tartibini tasdiqlash to'g'risida" gi №277 son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 14-iyul-dagi "1999-2001-yillarda va 2005-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasida baliq va baliq mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi №344-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 6-iyuldagi

¹⁰³ Д.Р.Шоҳимардонов, Минтақаларда балиқчиликни ривожлантириш. Рисола. Тошкент 2010. 82-бет.

¹⁰⁴ <https://lex.uz/uz/>. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

“Baliqchilik tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 289-son, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-avgustdagi “Baliqchilik tarmog‘ida monopoliyadan chiqarish va xususiylashtirishni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №350-son, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining 2003-yil 30-dekabrda “Baliq ovlash korxonalarida tabiiy suv havzalaridan foydalanganlik uchun ijara haqini hisoblash va uni undirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi №MYU 1292-son qarorlari¹⁰⁵.

“O‘zbaliq” davlat-aksiyadorlik korporatsiyasi “O‘zbaliq” aksiyadorlik kompaniyasiga aylantirilib, uning tarkibida tarmoqni Tiklash va rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-3594-sonli farmoniga asosan Baliq va baliq mahsulotlarini qayta ishlash hamda konservalash tarmog‘iga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalar uchun beriladigan imtiyozlar joriy etilgan.

Baliqchilik tarmog‘ini yanada monopoliyadan chiqarish hamda raqobat muhitini shakllantirish, xususiylashtirish va xususiy mulkchilikni rivojlantirish maqsadida baliqchilik tarmog‘i bosqichma–bosqich xususiylashtirila boshlandi. Shunga qaramasdan, 2007-yilgacha O‘zbekistonda akvakulturaning rivojlantirish ustuvor yo‘nalishi bo‘lmagan texnologiya, menejment, ta‘lim va kreditga layoqatlilik borasida jiddiy kamchiliklarga olib keldi. 1991-yildan 2008-yilgacha respublikamiz uchun yangi bo‘lgan akvakultura tizimlari yoki texnologiyalarini ishlab chiqish yoki sinovdan o‘tkazishga, yangi turlarni o‘zlashtirishga, ekstensiv texnologiyaning eski tizimini intensivga o‘zgartirishga urinishlar amalga oshirilmagan. 1980–2006-yillarda O‘zbekiston Respublikasida yetishtirilgan baliqlar hajmi haqidagi ma‘lumot buning yaqqol isbotidir **(1-ildavga qarang)**.

III-bosqich rivojlanish davri bo‘lib, o‘z ichiga 2008-yildan 2016-yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Ushbu davrda baliqchilikni rivojlantirish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirildi.

Shuningdek, BMTning FAO loyihasi doirasida milliy va xalqaro ekspertlar tomonidan “O‘zbekiston 2008—2016-yillarda akvakultura va baliq ovlashni rivojlantirish konsepsiyasi va strategiyasi” me‘yoriy hujjatlari ishlab chiqilgan¹⁰⁶. 2008-2010-yillarga mo‘ljallangan baliqlarni himoya qilish inshootlari loyihalari ishlab chiqildi. Respublikaning tabiiy suv havzalarida baliqlarning yo‘qolib borayotgan va noyob turlarini saqlash hamda ko‘paytirish maqsadida baliqlarning yo‘qolib borayotgan va noyob turlarini ko‘paytirish texnologiyalarini ishlab chiqish, shu-ningdek Aydar-Arnasoy ko‘llari tizimidagi baliq resurslarini, baliq xo‘jaligi suv havzalaridagi baliq bilan intensiv boyitish imkoniyatlarini oshirish, aholini baliq va baliq mahsulotlari bilan ta‘minlash uchun sun‘iy baliq yetishtirish texnologiya-larini yaratish va joriy etish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan. Ushbu

¹⁰⁵ <https://lex.uz/uz/>. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi.

¹⁰⁶ D. Xolmirzayev va boshq. Baliqchilik asoslari. Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. — T.: “ILM ZIYO”, 2016. — 248 b.

chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 27-maydagi "2013-2017-yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit muhofazasi bo'yicha hara-katlar dasturi to'g'risida"gi 142-son qarori asosida ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 14-fevraldagi "Obod turmush yili» davlat dasturi to'g'risida" gi PQ-1920-son qarori asosida respublikaning har bir minta-qasida kamida 30-40 ta baliqchilik xo'jaliklari tashkil etilishi tadbirlari belgilangan bo'lib, buning natijasida 2,4 ming tonna baliq yetishtirish ko'zda tutilgan.

O'zbekistonda jami yetishtirilgan baliqlar hajmi 2011-yilda 17 234,9 tonnani tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2015-yilda 59 851,5 tonnani tashkil qilgan. 2015-yilda 2011-yilga nisbatan 347 foizga o'sish kuzatilgan.

IV bosqich yuksalish davri bo'lib, 2016-yildan – hozirgi vaqtgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ushbu davrda baliqchilik sohasini rivojlantirish, xorij texnologiyalari va tajribalarini joriy qilish, aholi sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, sohada ilmiy faoliyatni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va boshqa maqsadlarda O'zbekiston Respublikasi tomonidan 20 ga yaqin farmonlar, qarorlar va boshqa normativ-huquqiy xujjatlar qabul qilindi va amaliyotga joriy etildi. Shuningdek, baliqchilik sohasida baliqchilik klasterlari tashkil qilindi. Tashkil qilingan baliqchilik klasterlariga baliqchilik ilmiy-tadqiqot sohasida ilm-fanni rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalar, innovatsion g'oyalar va ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqish va amaliyotda joriy etish, yuqori texnologik uskunalarni seleksiya-naslchilik ishlariga keng tatbiq etish, karp, o'txo'r va boshqa ona baliqlarning seleksiya-naslchilik to'dalarini shakllantirish, yuqori mahsuldor baliq lichinkalari ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy inkubatsiya quvvatlarini oshirish va naslli chavoq baliqlari yetishtirishni tashkil etish, suv havzalarini modernizatsiya qilish, gidrotexnik inshootlarni barpo etish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish, baliqlar uchun yuqori oqsilga boy va to'la qiymatli ozuqa ishlab chiqaruvchi yangi kompleks barpo etish, seleksiya-naslchilik yo'nalishida oliy ta'lim muassasalari talabalari, kasb-hunar va o'rta maxsus ta'lim muassasalari o'quvchilari, shuningdek, ilmiy tadqiqotchilar va baliqchi mutaxassislarning malaka oshirishiga amaliy yordam ko'rsatish choralari ishlab chiqish vazifalari yuklatilgan.

Respublika bo'yicha 2016-yilda 4096 ta baliqchilik xo'jaliklari tomonidan 65322,1 tonna baliq yetishtirilgan bo'lsa, 2021-yilda 7024ta baliqchilik xo'jaligi tomonidan 175427,2 tonna baliq yetishtirilgan. 2016-yilga nisbatan 2021-yilda baliqchilik xo'jaliklari 2928taga ya'ni 171,5 foizga, yetishtirilgan baliqlar hajmi 110105,1 tonnaga ya'ni 268 foizga o'sgan.

Biz tadqiqotlarimiz davomida olib borilgan izlanishlar natijasida respublikamiz baliqchilik sohasida KBXT ning o'ziga xos rivojlanish bosqichlarini yaxlit bir tizimini ishlab chiqdik (1.3.1.rasm).

Respublikamiz baliqchilik sohasida KBXTni tasniflash, rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va baholash, sohani rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish va ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, rivojlangan davlatlarda ushbu sohada tadbirkorlikni rivojlantirishning ilg'or tajribalarini tadqiq qilish,

sohada tadbirkorlikni rivojlanish tendensiyalarini aniqlash bo'yicha ilmiy-amaliy muammolarni hal qilish va amaliy tatbiq etishga haqiqiy zarurat tug'ilmoqda.

O'zbekiston Prezidentining 2017-yil 1-maydagi PQ-2939-son "Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 6-apreldagi PQ-3657-son "Baliqchilik tarmog'ini jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi va 2018-yil 6-noyabrdagi PQ-4005-sonli "Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari soha rivojini yangi bosqichga ko'tardi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi PQ-2939-son "Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bilan baliqchilik sohasini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirilishini muvofiqlashtirish, yagona ilmiy-texnik, texnologik, investitsion va eksport siyosatini izchil amalga oshirish, shuningdek, ichki va tashqi bozorlarda narxlar monitoringini olib borish ishlari vazifalari belgilandi. Baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirish, baliq yetishtirish va uni qayta ishlash sohasida ishlab chiqilgan innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish vazifalari belgilandi.

Ushbu qarorga muvofiq "O'zbekbaliqsanoat" uyushmasi tashkil etildi, uning tarkibiga joylarda baliqchilik tarmog'i tashkilotlari ishlarini muvofiqlashtiruvchi 13 ta hududiy "Baliqsanoat" mas'uliyati cheklangan jamiyati kiritildi.

Baliq mahsulotlari ishlab chiqarishning tashkiliy-texnologik jarayonlarini tizimli tashkil etish, baliq chavoqlarini takror ko'paytirish va ozuqa bazasini mustahkamlash, tabiiy suv havzalari va sun'iy ko'llarning resurslaridan oqilona foydalanish, shuningdek, baliq yetishtirish jarayoniga ilmiy asoslangan usullarni va intensiv texnologiyalarni joriy etish "O'zbekbaliqsanoat" uyushmasining asosiy vazifalari va yo'nalishlari hisoblanadi.

Bundan tashqari, baliqchilik sohasida ilmiy-tadqiqot izlanishlarini yanada takomillashtirish, ilmiy kadrlar tayyorlash, ilmiy va texnik yangiliklarni tadbirkorlik subyektlariga yetkazish maqsadida Baliqchilikni rivojlantirish ilmiy-tajriba stansiyasi Baliqchilik ilmiy-tadqiqot institutiga aylantirildi va Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida hamda respublikaning boshqa hududlarida uning filiallarini ochish belgilandi.

Ilmiy-tadqiqot, seleksiya va naslchilik ishlarini moliyalashtirish, ozuqalar-ning zamonaviy retsepturalarini ishlab chiqish va baliqchilik tarmog'iga ilg'or texnologiyalarni joriy etishda ko'maklashish, baliqlarning kasalliklari profilak-tikasi va ularni davolash hamda tarmoqni rivojlantirish bo'yicha investitsiya loyihalarini shakllantirish maqsadida "O'zbekbaliqsanoat" uyushmasida Baliqchi-likni rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi.

I bosqich turg'unlik davri (1991-yildan 1996-yilgacha): Ushbu davr baliqchilik xo'jaliklarining tugab nisbatan kamayib ketishi, yuqori malakali mutaxassislarning emigratsiyasi, mahalliy mutaxassislarni ko'pchiligining baliqchilik sanoatini tark etishi, shuningdek, 1993-yildan boshlab davlat tomonidan baliqchilik sohasini moliyalashtirishning to'xtatilishi natijasida baliq ishlab chiqarishning pasayishi va importning qisqarishi, 1994-yilda "O'zbaliq" konserni tugatilib, "O'zbaliq" davlat-aksionerlik korporatsiyasining tashkil etilishi, baliq yetishtirishga ixtisoslashgan o'quv yurtlarining yo'qligi tufayli baliq yetishtiruvchilarning bilim darajasi ancha pastligi, sanoat kam ish haqi tufayli yoshlarni jalb qilmasligi, yangi egalar yuqori ish haqi orqali yuqori malakali xodimlarni saqlab qolishga harakat qilishi bilan tavsiflanadi.



II bosqich tiklanish davri (1996-yildan 2008-yilgacha): soliq qiymatining kamaytirilishi, respublika baliqchilik tabiiy suv havzalaridan foydalanishni yaxshilash va baliq resurslari muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari tasdiqlanishi, baliqchilik uchun omixta yem tayyorlashni ko'paytirish va uning sifatini yaxshilash, baliq mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilanishi, baliqchilik tarmog'i boshqaruv tizimini takomillashtirish, raqobat muhitini shakllantirish, baliqchilik va baliq ovlash korxonalarini xususiylashtirish jarayonlari chuqurlashtirilishi, xorijiy investitsiyalarning jalb etilishi, tarmoq korxonalarining texnik jihatdan qayta jihozlanishi, "O'zbaliq" aksiyadorlik kompaniyasining tugatilishi, tugatilayotgan "O'zbaliq" aksiyadorlik kompaniyasi tarkibiga kiruvchi baliqchilik tarmog'ining baliq ovlash va baliqchilik korxonalarining to'liq xususiylashtirilishi va asosan, xususiy mulkchilikka aylantirilishi, baliq va baliq mahsulotlarini qayta ishlash hamda konservalash tarmog'iga to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar uchun beriladigan imtiyozlar joriy etilishi bilan tavsiflanadi.



III bosqich rivojlanish davri (2008-yildan 2016-yilgacha): Ushbu davr 2008-2010-yillarga mo'ljallangan baliqlarni himoya qilish inshootlari loyihalari ishlab chiqilishi, baliqlarning yo'qolib borayotgan va noyob turlarini ko'paytirish texnologiyalarini ishlab chiqish, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimidagi baliq resurslarini, sun'iy baliq yetishtirish texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish, baliq xo'jaligi suv havzalarini baliq bilan intensiv boyitish imko-niyatlarini oshirish, 2013-yil respublikaning har bir mintaqasida kamida 30 - 40 ta baliqchilik xo'jaliklari tashkil etilishi Obod turmush yili davlat dasturida belgilanishi bilan tavsiflanadi.



IV bosqich yuksalish davri (2016-yildan – hozirgi vaqtgacha): Ushbu davr "O'zbekbaliqsanoat" uyushmasining tashkil etilishi, baliqchilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish, baliqlantirish, baliq yetishtirish va ovlash ishlarini samarali tashkil etish, ushbu tarmoqqa yangi texnologiyalarni joriy qilish va imtiyozli kredit resurslarini jalb etish, baliqchilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi va baliqchilik sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari ishlab chiqilishi, baliq yetishtirish hajmlari oshirilishi, mazkur sohadagi iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xorijiy davlatlarning ijobiy tajribasini tizimli joriy etishni tashkillashtirish va intensiv usulda baliq yetishtirishning innovatsion texnologiyalarini o'zlashtirish, baliqchilik klasterlarining tashkil qilinishi, baliq yetishtirish texnologiyasini ilmiy asoslangan holda tashkil etish, baliqchilik ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini yanada takomillashtirish hamda xorijiy mamlakatlarning yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish bilan tavsiflanadi.

1.3.1-rasm. O'zbekiston respublikasi baliqchilik sohasida KBXT ning rivojlanish bosqichlari¹⁰⁷

¹⁰⁷ Muallif ishlanmasi

“O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasini, uning hududiy “Baliqsanoat” mas’uliyati cheklangan jamiyatlarini va uyushma tarkibiga kiruvchi yuridik shaxslarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularga 2022-yilning yakunigacha baliq urug‘lari, baliq chavoqlari hamda tovar baliq yetishtirishdan, baliq mahsulotlarini tayyorlash va qayta ishlashdan olinadigan daromadlaridan yagona soliq to‘lovi to‘lashdan ozod etish bo‘yicha imtiyozlar berilgan edi.

Ushbu qaror bilan, shuningdek, baliq yetishtirish, qayta ishlash hajmini ko‘paytirishga, baliq chavoqlari bilan ta‘minlash, baliq yetishtirishning innovatsion usullarini joriy etishga yo‘naltirilgan 2017-2021-yillarda baliqchilik tarmog‘ini yanada kompleks rivojlantirish bo‘yicha dasturiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadida ishchi guruh tashkil etildi. Yuqori mahsuldor baliq turlarini iqlimlashtirish ishlarini ilmiy asosda tashkil etish hisobiga baliqlarning afrika laqqasi, tilyapiya, forel, vengriya sazani va osyotr turlarini ko‘paytirish yo‘lga qo‘yildi. Bu, o‘z navbatida, ichki bozorlarga uzluksiz ravishda keng assortimentdagi arzon va sifatli baliq mahsulotlari yetkazib berilishini ta‘minlaydi.

Shubhasiz, bu yutuqlarga erishish uchun bir qator kechiktirib bo‘lmaydigan va amaliy vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli hal etish talab etiladi. Ular jumlasiga, qafas usulida baliq yetishtirishni keng joriy etish, baliq yetishtiruvchi va baliq ovlovchi tashkilotlarning moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash, Toshkent davlat agrar universitetida baliqchilik sohasi uchun kadrlar tayyorlash fakultetini tashkil etish, bu borada xalqaro tajribani o‘rganish va baliqchilik sohasida ishlash uchun chet el mutaxassislarini jalb etish kabi masalalar kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017-yil 9-dekabr kuni Qishloq xo‘jaligi xodimlari kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida quyidagilarni aytib o‘tgandi: *Oxirgi 20 yilda e‘tibordan chetda qolgan yana bir tarmoq –baliqchilik sohasini tiklash uchun “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasi tashkil etildi. Uning tizimiga 3 ming 600 ta baliqchilik xo‘jaligi kiritildi. Joriy yilda 580 ming gektar maydondagi tabiiy va 28 ming gektar sun‘iy ko‘llarda 100 ming tonnadan ortiq baliq yetishtirildi.*

*Vyetnam va Xitoy texnologiyasi asosida intensiv usulda baliq yetishtirish, uni ko‘paytirish, baliq ozuqasi ishlab chiqarish borasida ushbu mamlakatlar bilan yaqin xamkorlik yo‘lga qo‘yildi*¹⁰⁸.

So‘nggi yillarda respublikamizda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish, jumladan, ichki bozorni sifatli va arzon baliq va baliq mahsulotlari bilan ta‘minlash, oziq-ovqat mahsulotlarining talab yuqori bo‘lgan turlariga narxlar barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan maqsadli dasturlar qabul qilindi va amalga oshirilmoqda.

Natijada mamlakat miqyosida 3 mingdan ortiq baliqchilik xo‘jaliklari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Baliqchilik xo‘jaliklarini rivojlantirishni tizimli qo‘llab-quvvatlash maqsadida tijorat banklari tomonidan kreditlar ajratilmoqda va ushbu kreditlar suv omborlarida hamda tabiiy havzalardagi sun‘iy qurilmalarda intensiv usulda baliq yetishtirishning zamonaviy texnologiyalarini joriy etishga

¹⁰⁸ Мирзиёев, Шавкат Миромонович. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2018. –46-бет.

yo‘naltirilmoqda.

Shu bilan birga, baliqchilik sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, mavjud havzalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish, yangi inkubatsion sexlarni qurish va baliq pitomniklarini tashkil etish, intensiv texnologiyalar asosida baliq yetishtirish hajmlarini oshirish hamda baliqchilik xo‘jaliklarining ozuqa bazasini mustahkamlash va mazkur sohani moliyalashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar lozim darajada amalga oshirilmayapti.

Xususan, Qashqadaryo, Toshkent va Sirdaryo viloyatlaridagi sun‘iy havzalar, suv omborlari va Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining tabiiy havzalari imkoniyatlaridan to‘liq hajmda foydalanilmayapti, respublikaning barcha hududlaridagi suv havzalarini baliqlantirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar lozim darajada amalga oshirilmayapti.

Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish asosida baliq yetishtirish hajmlarini oshirish, mazkur sohadagi iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xorijiy davlatlarning ijobiy tajribasini tizimli joriy etishni tashkillashtirish va intensiv usulda baliq yetishtirishning innovatsion texnologiyalarini o‘zlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi PQ-3505-son “2018-yilda baliq mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-avgustdagi PQ-4816-son “Baliqchilik tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori mamlakatimizda baliqchilik sohasini qo‘llab-quvvatlash, baliqchilik hamda baliq ovlash xo‘jaliklari samaradorligini oshirish maqsadlarini o‘zida ifoda etgan. Qaror bilan sohada suv va yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanish hamda intensiv texnologiyalarni keng joriy etish ishlari yuqori bosqichga olib chiqildi. 2021-2022-yillarda suv tanqisligi sharoitida daryo va kanallardan suv oladigan baliqchilik xo‘jaliklari tomonidan sun‘iy suv havzalarida bosqichma-bosqich yangi resurs tejamkor intensiv texnologiyalardan va ikkilamchi suv manbalaridan keng foydalanish amaliyoti joriy etildi. Sohani malakali kadrlar bilan ta‘minlash, ularning malakasini oshirish, malakali kadrlarning zamonaviy laboratoriya uskunalardan foydalanish bo‘yicha ko‘nikma va bilimlarini shakllantirish maqsadida xorijiy stajirovkalar tashkil etildi. Kelgusida yirik baliqchilik klasterlarida baliqlarni inkubatsiya qilish, qafaslar, beton basseynlar hamda tuproq havzalari, yopiq suv aylanma tizimlarida intensiv usulda baliq chavoqlari hamda tovar baliqlar yetishtirish bo‘yicha baliqchilik xo‘jaliklari rahbarlari va mutaxassislarini o‘qitishga ixtisoslashtirilgan pullik o‘quv kurslari tashkil etildi. Aholi xonadonlarida intensiv usulda baliq yetishtirish istagidagi talabgorlarga tijorat banklari orqali kredit mablag‘lari olinishida alohida ko‘maklar berilishi ham qaror imtiyozlaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-martdagi “Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5017-son va 2021-yil 14-iyundagi “Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5146-son qarorlari ijrosini

ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2021-yil 12-iyulda "Chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik xo'jaliklariga ular tomonidan yetishtirilgan va sotilgan mahsulotlar uchun subsidiya ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 434-son qarori qabul qilindi.

Nizomga muvofiq eksportga sotilgan chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik mahsulotlariga subsidiya ajratilmaydi.

Ushbu nizomning 2-bobida subsidiya ajratish shartlari belgilab qo'yildi. Unga asosan qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lgan subsidiya oluvchilarga 2021-yil 1-iyundan boshlab respublika byudjetidan baliqchilik xo'jaliklariga – intensiv usulda yetishtirilgan sovuq suv baliqlarining (osyotr, losos va forel) har bir kg uchun 3000 so'm, boshqa turdagi baliqlarning har bir kg uchun 1000 so'm miqdorida subsidiya ajratilishi belgilandi.

Baliq yetishtirishning dolzarbligi shundan iboratki, avvalo, u – ozuqadir.

2021-yil 20-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida "Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, jumladan, baliqchilik sohasini rivojlantirish va kooperatsiya asosida baliq yetishtirish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari" yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda Davlatimiz rahbari tomonidan Respublikamiz-ning ko'pgina viloyatlarida hosildorlik haligacha gektariga 3-4 tonnani tashkil etayotgani, ushbu hududlarda intensiv baliq yetishtirish hajmi umumiy ishlab chiqarishning 10 foizidan oshmayotgani qayd etilib, kelgusi yilda baliq yetishtirish hajmini 600 ming tonnaga yetkazish vazifasi qo'yildi.

Hozirda O'zbekistonda 54 ming gektar suv havzasi borligini inobatga olsak, ilm bilan yondashilgan taqdirda, baliq yetishtirish hajmini bir necha barobarga oshirish mumkinligi ham aytib o'tildi. Ya'ni, hozirda olinayotgan bir gektardagi 2–3 tonnani ilm bilan yondashilganda 10–12 tonnagacha chiqarish mumkin bo'ladi. Shu sababli ham davlatimiz rahbari soha olimlarini ham jalb qilish borasida alohida ko'rsatmalar berdi. Shuningdek, Xitoy, Vyetnam va boshqa xorij davlatlari tajribalaridan foydalanish bo'yicha ham tavsiyalar berildi.

2020-yil holatiga tabiiy suv havzalariga 3 ming 850 qafas moslamasi o'rnatilgan bo'lib, ularning baliq yetishtirishda xizmati beqiyos. Shuningdek, baliq mahsulotlarini qayta ishlovchi 53 ta korxona faoliyati yo'lga qo'yilib, ushbu korxonalar tomonidan baliq konservalari, baliq filesi, baliq kotleti va tushkalari ishlab chiqarilmoqda.

Baliq va baliq mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirishga respublikamiz hududidagi suv havzalari bugungi holatini keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borish yo'li bilan o'rganib, shular asosida berilgan tavsiyalarga muvofiq ishlarni tashkil etish orqali erishishimiz mumkin bo'ladi.

Quyidagi 1.3.3-jadvalda 2017-2022-yillarda O'zbekiston Respublikasida baliqchilik tarmog'ini jadal rivojlantirish yuzasidan chiqarilgan qaror va farmonlar tahlili keltirilgan.

2017-2022-yillarda O‘zbekiston Respublikasida baliqchilik tarmog‘ini jadal rivojlantirish yuzasidan chiqarilgan qaror va farmonlar tahlili¹⁰⁹.

Qabul qilingan qaror va farmonlar	Qaror va farmonlarning maqsadi, qisqacha mazmuni.
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 7-martdagi 124-son “Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining biologik resurslaridan oqilona foydalanishni ta‘minlashga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori	Ushbu qarorning maqsadi Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining baliq resurslaridan oqilona foydalanishni ta‘minlash va samarali boshqarishni tashkil etish, biologik xilma-xillikni saqlash, baliqchilikni rivojlantirish, shuningdek tabiiy suv havzalarida baliqlarni ko‘paytirish bilan bog‘liq masalalarni hal etishga kompleks yondashishdan iborat.
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi PQ-2939-son “Baliqchilik tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori	Ushbu qaror Baliqchilik tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirish, baliqchilik va baliq ovlash tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish, baliq mahsulotlarini qayta ishlash bo‘yicha ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, tabiiy va sun‘iy suv havzalaridan oqilona foydalanish, shuningdek, baliq yetishtirishning ilmiy asoslangan usullari va intensiv texnologiyalarini joriy etish maqsadida qabul qilingan. Qarorda O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Davlat soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi va “Ipoteka-bank” aksiyadorlik tijorat ipoteka bankining “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasini tashkil etish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilgan hamda “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasining asosiy vazifalari va faoliyati yo‘nalishlari belgilab berilgan.
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 7-avgustdagi 593-son “Tabiiy suv havza uchastkalarini baliq ovlash xo‘jaliklariga ijaraga berish va Baliqchilikni rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori	Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Baliqchilik tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 1-maydagi PQ-2939-son qarorini bajarish yuzasidan qabul qilingan bo‘lib, ushbu qaror bilan quyidagi 2 ta nizom tasdiqlangan: 1. Baliq ovlash xo‘jaliklariga tabiiy suv havzalari uchastkalarini ajratish, baliqni sanoat yo‘li bilan ovlash, baliq ovlash xo‘jaliklarining tabiiy suv havzalaridan foydalanganligi uchun ijara to‘lovini hisoblash va undirish tartibi to‘g‘risida nizom. 2. “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasining Baliqchilikni rivojlantirish jamg‘armasini shakllantirish va uning mablag‘laridan foydalanish tartibi to‘g‘risida nizom.
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-sentyabrdagi 719-son “Baliqchilik tarmog‘ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori	Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Baliqchilik tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 1-maydagi PQ-2939-son qarorini ijro etish yuzasidan, shuningdek respublika baliqchilik tarmog‘ini kompleks rivojlantirish, baliqlantirish, baliq yetishtirish va ovlash ishlarini samarali tashkil etish, ushbu tarmoqqa yangi texnologiyalarni joriy qilish va imtiyozli kredit resurslarini jalb etish maqsadida qabul qilingan.

¹⁰⁹ <https://lex.uz/uz/>. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

	Qarorda 2017 — 2021-yillarda baliqchilik tarmog‘ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi (keyingi o‘rinlarda Kompleks dastur deb ataladi) va 2017 — 2021-yillarda baliqchilik sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari ma’qullangan.
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-oktyabrda 845-son “Chorvachilik va baliqchilik tarmoqlarining ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori	Qaror tarmoqlarning ozuqa bazasini tizimli asosda mustahkamlash, chorvachilik, baliqchilik xo‘jaliklari va tashkilotlarini yuqori sifatli ozuqa bilan barqaror ta‘minlash maqsadida qabul qilingan. Ushbu qarorning 1-ilovasi Davlat resurslaridan bug‘doyni chorvachilik va baliqchilik yo‘nalishidagi tadbirkorlik subyektlariga ozuqa maqsadlari uchun sotish tartibi to‘g‘risidagi Nizom bo‘lib, unga muvofiq chorvachilik va baliqchilik yo‘nalishidagi tadbirkorlik subyektlari ozuqa maqsadlari uchun davlat resurslaridan ularga mo‘ljallangan bug‘doyni xaridorlarning tasdiqlangan reestriga binoan, ularning chorvachilik hamda baliqchilik mahsulotlarini O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi va Qishloq xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda tasdiqlangan hajmlar va narxlarida sotishi sharti bilan xarid qiladilar.
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagi PQ-3505-son “2018-yilda baliq mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori	Qaror mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish asosida baliq yetishtirish hajmlarini oshirish, mazkur sohadagi iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xorijiy davlatlarning ijobiy tajribasini tizimli joriy etishni tashkillashtirish va intensiv usulda baliq yetishtirishning innovatsion texnologiyalarini o‘zlashtirish maqsadida qabul qilingan bo‘lib, baliqchilik tarmog‘ini rivojlantirish sohasidagi ustuvor vazifalar belgilangan.
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-apreldagi PQ-3657-sonli “Baliqchilik tarmog‘ini jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori	Qaror baliqchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, ilmiy-innovatsion tadqiqotlar va ishlanmalar sifatini oshirish, ularning natijalarini amaliyotga keng joriy etish maqsadida qabul qilingan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Toshkent viloyati hokimligi va “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasining Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumani hokimligiga sud qarori bilan berilgan mol-mulk va yer uchastkalari, shu jumladan, suv havzalari negizida “Baliq ishlab chiqaruvchi” erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullangan.
<u>O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-iyuldagi 572-son “Namangan viloyatida baliq yetishtirish bo‘yicha mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori</u>	Qaror Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, baliq mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, baliq yetishtirish texnologiyasini ilmiy asoslangan holda tashkil etish hamda Namangan viloyati hududidan o‘tuvchi Norin daryosi bo‘ylarida baliq yetishtirish bo‘yicha mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish maqsadida qabul qilingan.
<u>O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-iyuldagi 606-son “Baliqchilik sohasidagi ilmiy faoliyatni yanada takomillashtirish chora-</u>	Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Baliqchilik tarmog‘ini jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2018-yil 6-apreldagi PQ-3657-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida qabul qilingan. Qaror bilan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi va

tadbirlari to'g'risida"gi qarori	"O'zbekbaliqsanoat" uyushmasining O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat ta'minoti ilmiy-ishlab chiqarish markazi tizimidagi Baliqchilik ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini yanada takomillashtirish hamda xorijiy mamlakatlarning yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish to'g'risidagi takliflari ma'qullangan.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-noyabrdagi PQ-4005-sonli "Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori	Ushbu qaror Respublikada intensiv usulda baliq yetishtirishni bosqichma-bosqich yo'lga qo'yish va rag'batlantirish, mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish, sohaga innovatsion g'oyalar, ilmiy ishlanmalar, zamonaviy texnologiyalar va ilm-fan yutuqlarini keng ko'lamda joriy qilish, baliqchilik tarmog'ini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida qabul qilingan. Shuningdek, qarorda O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, "O'zbekbaliqsanoat" uyushmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda ishlab chiqilgan 2019-yilda respublikada baliq yetishtirish va ovlashning, baliq yetishtirish inshootlari va qurilmalarini barpo etishning, baliqchilik xo'jaliklariga omuxta yem va mineral o'g'it (ammofos) yetkazib berishning, reproduktor hovuzlarni tashkil etish, baliq chavoqlari yetishtirish, baliq mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash quvvatlarini ishga tushirishning prognoz parametrlari tasdiqlangan.
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-maydagi 280-son "Chorvachilik tarmog'iga davlat tomonidan subsidiya ajratishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori	Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan ko'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4576-son qaroriga muvofiq qabul qilingan. Ushbu hujjatning ikkinchi ilovasiga muvofiq 2020-2022-yillarda "O'zbekbaliqsanoat" uyushmasiga a'zo bo'lgan baliqchilik xo'jaliklari tomonidan intensiv usulda yetishtirilgan baliq hamda O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilingan nasldor ona baliqlar uchun davlat tomonidan subsidiyalar ajratish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlangan.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-avgustdagi PQ-4816-son "Baliqchilik tarmo-g'ini qo'llab-quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori	Ushbu qaror Respublikada baliqchilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash, baliqchilik va baliq ovlash xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish, ushbu sohada yer va suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish hamda intensiv texnologiyalarning keng joriy etilishini ta'minlash maqsadida qabul qilingan. Qaror bilan 2020-yildan boshlab sun'iy suv havzalarida baliq yetishtiradigan baliqchilik xo'jaliklariga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq suv obyektidan olingan va qaytarib chiqarilgan suv hajmi o'rtasidagi farqidan kelib chiqib, qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orish uchun belgilangan stavkalarda hisoblanishi belgilandi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-martdagi "Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5017-son qarori	Qaror ichki iste'mol bozorida go'sht, sut, tuxum va boshqa chorvachilik mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash, chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik ozuqa bazasini kengaytirish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish bo'yicha ilmiy asoslangan usullar va intensiv texnologiyalarni keng joriy etish maqsadida qabul qilingan. Qarorga ko'ra, 2021-yil 1-martdan Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasining kompensatsiya va kafilligidan foydalangan chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va quyunchilik yo'nalishidagi krediti bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida

	qaytarayotgan tadbirkorlarga, ularning kredit bo'yicha qarzдорligi to'liq qoplanmaguncha, yangi kreditlar bo'yicha jamg'armaning kafilligidan yana foydalanishga ruxsat berilgan.
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-iyuldagi 434-son "Chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik xo'jaliklariga ular tomonidan yetishtirilgan va sotilgan mahsulotlar uchun subsidiya ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi qarori	Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 3-martdagi PQ-5017-son, "Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 14-iyundagi PQ-5146-son qarorlariga muvofiq, shuningdek, chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik xo'jaliklariga ular tomonidan yetishtirilgan va sotilgan mahsulotlar uchun subsidiyalar ajratish sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish maqsadida maqsadida qabul qilingan.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-yanvardagi "Baliqchilik tarmog'ini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-83-son qarori	Qaror baliqchilik sohasini yanada rivojlantirish, baliq mahsulotlari turlarini ko'paytirish, eksport salohiyatini oshirish, mavjud havzalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish, intensiv texnologiyalar asosida baliq yetishtirish hajmlarini ko'paytirish hamda baliqchilik xo'jaliklarining ozuqa bazasini mustahkamlash maqsadida qabul qilindi. Unga ko'ra 2022-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda baliq yetishtirish prognoz parametrlari 1-ilovaga muvofiq; 2022-yilda sun'iy (ekstensiv) suv havzalarini intensivlashtirish va baliq ovlash hajmlari bo'yicha prognoz parametrlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlandi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni.	Farmon jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida qabul qilingan. Ushbu hujjat yettita ustuvor yo'nalishni o'z ichiga olgan bo'lib, uchinchi yo'nalishi milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashga qaratilgan. Farmonning 2-ilovasida, ya'ni 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturining 32-maqsadida Baliqchilikni rivojlantirish va baliq yetishtirish hajmi ko'paytirish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash mexanizmi berilgan.

Qishloq xo'jaligi baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirishning huquqiy asoslarini, ya'ni qishloq xo'jalik baliqchilik sohasini ilmiy asosda shakllantirish tizimini davr talabiga javob bera oladigan yangicha huquqiy shakllariga o'tishni ta'minlash imkonini beradi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida Respublikamiz va uning mintaqalarida baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish uchun quyida keltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Qishloq xo'jaligi baliqchilik sohasida KBXT faoliyatini tartibga solishning barcha sohalarini yanada liberallashtirish borasida yaxlit milliy dastur, ya'ni

O‘zbekiston Respublikasida Baliqchilik sohasida KBXT faoliyatini liberallashtirish milliy konsepsiyasi qabul qilinishi lozim.

2. Qishloq xo‘jaligi baliqchilik sohasida KBXT subyektlarini moddiy-texnik resurslar bilan ta‘minlashdagi mavjud muammolar hal qilishni huquqiy asoslarini ta‘minlashni takomillashtirish;

3. Qishloq xo‘jaligi baliqchilik sohasida faqat an‘anaviy yo‘nalishlarni emas, balki innovatsion yo‘nalishlarni ham rivojlantirish va o‘z navbatida bunday yo‘nalishlarda faoliyat yurituvchi kichik biznes vakillariga imtiyozlar asosida uzoq muddatli venchur kreditlar berishni huquqiy asoslarini hamda berilgan yengilliklar va imtiyozlardan foydalanish jarayonida sun‘iy to‘siqlar paydo bo‘lmashini qattiq nazoratga olishni huquqiy asosini ta‘minlash;

Jahon amaliyotidan kelib chiqib, oqar suv basseynlarida intensiv usulda baliq yetishtirish tizimini joriy etish, respublikadagi akvakultura-intensiv baliqchiligi orqali aholini baliq mahsulotlariga bo‘lgan kundan kunga oshib borayotgan ehtiyojini to‘liq ta‘minlash imkoniyatini beradi, shu bilan birga aholi bandligini ta‘minlashda ham ahamiyati kattadir.

Tadqiqotning metodologik asosini qishloq xo‘jaligi baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirish borasidagi qonun osti va me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-yanvardagi “Baliqchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-83-son qarori¹¹⁰, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmon¹¹¹ tashkil etadi.

Mazkur farmon va qarorlarda xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, KBXT hamda qishloq xo‘jaligi baliqchilik sohasi faoliyati rivojini rag‘batlantirish, sun‘iy (ekstensiv) suv havzalarini intensivlashtirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirishning asosiy yo‘nalishlari taklif etiladi.

Fikrimizcha, yuqoridagi huquqiy-me‘yoriy xujjatlar baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirishning huquqiy asoslari bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish kerakki, O‘zbekiston Respublikasi va viloyatlarida KBXT subyektlarini shu bilan birga baliqchilik sohasida ham KBXTni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash orqali ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish, jahon talablariga javob bera oladigan import o‘rnini bosadigan eksportbop sifatli mahsulot ishlab chiqarish hamda xizmatlar ko‘rsatishning izchilligini taminlaydigan mustahkam iqtisodiy tizimni shakllantirish lozim.

¹¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 13 январдаги “Балиқчилик тармоғини янада ривожлантиришнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-83-сон қарори

¹¹¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт Стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон фармони.

Birinchi bob bo'yicha qisqacha xulosalar

Mustaqillikning dastlabki davrida iqtisodiyotdagi eng muhim va strategik yo'nalishlar sifatida xususiy mulk, KBXTni rivojlantirish uchun yanada keng ko'lamli imkoniyatlarni yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan xususiy mulkni yanada rivojlantirish va uni himoya qilish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini strategik asoslangan darajada qisqartirishga doir kompleks masalalarni hal etish - hukumat, davlat boshqaruvi organlari, shu bilan barcha darajadagi hokimliklar uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Shunga qaramasdan, KBXTni tashkil etish va rivojlantirish bilan bog'liq hisob raqamlarni ochish, ro'yxatdan o'tish, kredit foiz stavkalarining yuqoriligi, turli ruxsatnoma, mahsulotlar sertifikatlashi va litsenziyalar uchun xar xil rasmiy va norasmiy to'lovlar mavjudligi ham yana bir muhim muammolardan biri hisoblanadi. Baliqchilik sohasida KBXTni barqaror rivojlantirish davlat siyosatining eng asosiy ustuvor strategik maqsadlaridan biri sanaladi. Hozirda dunyo aholisining to'yib ovqatlanmaslik va ovqatlanish bilan bog'liq kasalliklar, o'sib borayotgan dunyo aholisini yetarli darajada sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlash zarurati, tabiiy resurslarning tugashi, iqlim o'zgarishi oqibatlari va davom etayotgan COVID-19 koronavirus pandemiyasi kabi bir qator murakkab muammolarga duch kelayotganligi ham qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlari qatori baliqchilik sohasida KBXT rivojlantirishni taqozo etadi.

Respublikada baliqchilik tarmog'ini jadal rivojlantirish, baliq mahsulotlari ishlab chiqarishga innovatsion va zamonaviy uslublarni joriy etgan holda baliq yetishtirish hajmlarini oshirish, shuningdek, sohani tartibga solish bo'yicha bir qator qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, ularning ijrosini puxta va sifatli ta'minlash choralari ko'rilmoqda. Shuningdek, intensiv usulda baliq yetishtirish bo'yicha ishlarga yetarli darajada e'tibor qaratilyapti, baliqchilik xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash, hududlarda baliqchilik tarmog'ini rivojlantirishda yuzaga kelayotgan muammolarni hal etish borasida olib borilayotgan ishlarni jadallashtirish hozirgi kunni dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston jahonda, xalqaro maydonda yetakchi o'rin tutadigan davlatlar – AQSH, Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Germaniya, Fransiya va Yevropa Ittifoqining boshqa mamlakatlari bilan hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlashga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekistonda baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz tadqiqotlarimizda Rossiya, Xitoy, Koreya, Yaponiya, Ozarbayjon, Turkiya davlatlarini baliqchilik sohasidagi tajribalarini o'rgandik va ayrim jihatlarini O'zbekistonda qo'llash bo'yicha tavsiyalar keltirdik.

Fikrimizcha, baliqchilik sohasida xorijiy tajribalarni qo'llash sohani rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, baliqchilik sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, mavjud havzalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish, yangi inkubatsion sexlarni qurish va baliq pitomniklarini tashkil etish, intensiv texnologiyalar asosida baliq yetishtirish hajmlarini oshirish hamda

baliqchilik xo‘jaliklarining ozuqa bazasini mustahkamlash va mazkur sohani moliyalashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar lozim darajada amalga oshirish zarur.

Baliqchilik sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishning yana bir muhim jihatlaridan biri bu ishlab chiqarilgan baliq va baliq mahsulotlarini sotish uchun tashqi bozorlarni topish masalasi hamdir. Tadbirkorlar tomonidan yetishtirilayotgan baliq va baliq mahsulotlarining asosan ichki bozorlarga yo‘naltirilganligi sababli talabga nisbatan taklifning ortib borishi natijasida tadbirkorlar ko‘zlangan samaraga ega bo‘lmayapti. Hozirda pandemiya sharoitida aholining go‘sht va go‘sht mahsulotlariga bo‘lgan talabini ortishi ushbu mahsulotlarning tannarxi oshib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa o‘z navbatida aholi talabini qondirish maqsadi-da parranda va baliq mahsulotlari bilan ta‘minlashni taqozo etadi. Buning yechimi sifatida parrandachilik va baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirish va takomil-lashtirish zaruriyatini taqozo etadi. Bu esa o‘z navbatida baliqchilik sohasida KBXT subyektlarini ham rivojlanishi, yangi ishchi o‘rinlarning yaratilishi va shu orqali aholi turmush darajasini, mamlakatimiz bozorlariga baliq va baliq mahsulotlarining chiqarilishini oshishiga hamda narxlarning tushishiga sabab bo‘ladi.

II BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA UNING HUDUDLARIDA BALIQCHILIK SOHASIDA KBXT TARAQQIYOTINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI VA RIVOJLANISH OMILLARINI BAHOLASH.

2.1-§. O‘zbekiston Respublikasi baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirishning hozirgi xolati tahlili.

KBXTning rivojlanishi hamda ushbu sektorni davlat tomonidan tartibga solinishi O‘zbekistonda yanada faollashib bormoqda. Mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitining tobora kengayishi kichik biznes subyektlarining rag‘bat asosidagi faoliyatini ta‘minlashga olib kelmoqda, shuningdek deyarli barcha tarmoqlardagi kichik biznes subyektlari yildan-yilga miqdor jihatidan ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022—2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash” deb nomlangan 1-ilovasi 3-ustuvor yo‘nalishida yalpi ichki mahsulotni mamlakatimiz aholisi jon boshiga – 1,6 baravar hamda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravar ko‘paytirish, qo‘shilgan qiymat solig‘ini amaldagi 15 foizdan 12 foizgacha tushirish, iqtisodiyotga 120 mlrd., shu jumladan 70 mlrd. dollar miqdorida xorijiy investitsiyalarni jalb etish, eksport hajmini 30 mlrd dollarga yetkazish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘shishini kamida 5 foizga yetkazish, dehqon hamda fermer xo‘jaliklari daromadlarini kamida 2 baravarga oshirish, “og‘ir” sharoitdagi 14 ta tumanda tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun soliq stavkalarini pasaytirish va boshqa maqsadlarga erishishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar belgilandi.

Respublikamiz iqtisodiyotida o‘shishni ta‘minlash, yangi ish o‘rinlarini tashkil etish orqali aholini bandlik muammosini hal etib, daromadlarini oshirish va farovonligini ta‘minlashda tobora muhim o‘rin tutayotgan KBXTni jadal sur‘atlarda rivojlantirish, ularni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, “2022—2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining 1-ilovasi 3-ustuvor yo‘nalishi-ning 21-maqsadi “Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni - 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish¹¹²” deb, 29-maqsadi esa “Tadbirkorlik faoliyatini tashkil kilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish¹¹³” deb belgilangan.

2022—2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot

¹¹² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт Стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон фармони.

¹¹³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт Стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон фармони.

strategiyasi O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotini barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish natijasida tadbirkorlikka asoslangan turli mulk shaklidagi korxonalarning vujudga kelishi, bir tomondan korxonalarning mustaqil faoliyati uchun katta imkoniyat yaratib bersa, ikkinchi tomondan, ularning mas'uliyatini ham oshirdi. Korxonalarning iqtisodiy erkinligi va mas'uliyatining oshganligi o'z faoliyatini chuqur tahlil qilishni taqozo qiladi. Bu jarayon, eng avvalo, iqtisodiy tahlilning zarurligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, uni har bir xo'jalik yurituvchi subyektda qanday tashkil qilish muammosini xal qilishda namoyon bo'ladi¹¹⁴.

Tahlil jarayonida barcha kamchiliklar aniqlanadi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda esa aniqlangan kamchiliklarga kelgusida yo'l qo'yilmaslik chora-tadbirlarini ishlab chiqadi. Shu tariqa kamchiliklar bartaraf qilinib, xo'jalik faoliyatining uzluksiz ravishda takomillashuvi va uning samaradorligining oshib borishi ta'minlanadi¹¹⁵.

Respublikamizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, KBXTni ishonchli himoya qilinishini ta'minlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish borasida amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar 2021-yil davomida 98,9 mingta yangi kichik tadbirkorlik subyektlarini (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) tashkil etish imkonini berdi. Natijada 2022-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni **462 834** ta (yangi tashkil qilingan **98 886**) ni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **51631** taga ko'paygan.

Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdo sohasida (38,9 %), sanoat sohasida (19,5 %), **qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (11,8 %)**, qurilish sohasida (6,4 %) tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda **38459** ta, sanoatda **19285** ta, **qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 11710** ta, qurilishda **6330** ta, yashash va ovqatlanishda **6621** ta, tashish va saqlashda **2642** ta tashkil etilgan.

KBXT subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratib berila-yotganligi qaramasdan 2021-yil yakuni bo'yicha yalpi ichki mahsulotda ulushi – 54,9 foizni (2020-yilda 55,7 foiz), sanoatda – 27,0 foizni (27,9 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 96,7 foizni (96,7 foiz), qurilishda 72,4 foizni (72,5 foiz), savdoda 82,1 foizni (82,3 foiz), xizmatlar sohasida - 51,1 foizni (51,8 foiz), eksportda – 22,3 foizni (20,5 foiz) va importda – 48,7 foizni (51,7 foiz) tashkil etgan. Tahlillarga ko'ra YAIM 2021-yilda 2020-yilga nisbatan – 0,6 foizga kamaygan. Birgina qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida o'tgan yilga nisbatan o'zgarishsiz qolgan. 2021-yilda YAIM ning o'tgan yilga nisbatan kamayishi yirik korxonalar ulushining oshishi hamda koronavirus pandemiyasi bilan izohlanadi.

¹¹⁴ Пардаев М.К. Иктисодий таҳлил назарияси. Дарслик. 2-нашр. - Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2021. 8-бет.

¹¹⁵ Пардаев М.К. Иктисодий таҳлил назарияси. Дарслик. 2-нашр. - Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2021. 33-бет.

2-3-illovalarda 2010-2021-yillarda bo'yicha O'zbekistonda KBXTning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari hajmi hamda hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi haqida haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ilovadagi jadvaldan ko'rinadiki, 2021-yilda KBXTning **qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligidagi** asosiy ko'rsatkichlari hajmi–307280,2 mlrd.so'mni tashkil qilib, 2010-yildagi 31900,4 mlrd.so'mga nisbatan 9,6 baravarga o'sgan.

2021-yilda O'zbekiston Respublikasi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 317 781,6 mlrd. so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik sohalarida ko'rsatilgan xizmatlar 307 515,0 mlrd. so'mni, o'rmon xo'jaligi – 7 581,5 mlrd. so'mni, **baliqchilik xo'jaligi – 2 685,1 mlrd. so'mni** tashkil qilgan (2.1.1-jadval).

2021-yilda O'zbekiston Respublikasi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni (2020-yilda mos ravishda 2019 – yilga nisbatan – 102,9 %), jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik sohalarida ko'rsatilgan xizmatlar – 103,9 % (102,9 %)ni, o'rmon xo'jaligi – 101,5 % (101,7 %)ni, **baliqchilik xo'jaligi – 121,4 % (117,9 %)ni** tashkil qilgan.

2.1.1-jadvalda 2016-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyati baliqchilik xo'jaliklari mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan. 2016-yilda O'zbekiston respublikasida jami 246,5 **mlrd.** so'mni tashkil qilib, Xorazm viloyatining ulushi 33,6 **mlrd.** so'mni tashkil qilgan. 2021-yilda O'zbekiston respublikasida jami 2685,1 **mlrd.** so'mni tashkil qilib, Xorazm viloyatining ulushi 556,5 **mlrd.** so'mni tashkil qilgan. 2021-yilda Xorazm viloyati baliqchilik xo'jaliklari mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmini o'sish sur'atlari 142,7 foizni tashkil qilgan.

2.1.1-jadval

2016-2021-yillarda O'zbekiston respublikasi va hududlarida baliqchilik xo'jaliklarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ko'rsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi¹¹⁶

Yillar	O'zbekiston Respublikasi		Xorazm viloyati	
	Hajmi mlrd. so'm	O'sish sur'atlari, %	Hajmi mlrd. so'm	O'sish sur'atlari, %
2021	2 685,1	121,4	556,5	142,7
2020	1 800,0	119,8	350,6	159,5
2019	1 400,0	127,0	237,8	173,8
2018	1 076,6	113,8	95,4	90,9
2017	479,6	126,8	54,5	102,6
2016	246,5	121,6	33,6	117,5

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan baliq ovlash va akvakultura yo'nalishidagi korxonalar soni quyidagi 2.1.2-jadvalda keltirilgan.

¹¹⁶ O'zbekiston respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2.1.2-jadval

2016-2021-yillarda Respublika bo'yicha faoliyat yuritayotgan baliq ovlash va akvakultura yo'nalishidagi korxonalar soni¹¹⁷

Hududlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021
O'zbekiston Respublikasi	4096	4638	5279	5869	6908	7024
Qoraqalpog'iston Respublikasi	411	578	673	711	870	856
viloyatlar:						
Andijon viloyati	399	424	461	503	664	685
Buxoro viloyati	258	312	328	355	388	424
Jizzax viloyati	285	295	323	392	447	402
Qashqadaryo viloyati	276	314	367	420	521	487
Navoiy viloyati	162	164	176	197	214	203
Namangan viloyati	244	264	329	378	428	455
Samarqand viloyati	344	379	423	432	500	545
Surxondaryo viloyati	258	277	294	331	420	448
Sirdaryo viloyati	275	284	320	378	439	432
Toshkent viloyati	449	511	615	725	857	858
Farg'ona viloyati	274	298	340	383	407	422
Xorazm viloyati	461	538	630	664	753	807

2.1.2-jadvaldan ko'rinadiki Respublikada faoliyat yuritayotgan baliq ovlash va akvakultura yo'nalishidagi korxonalar sonining eng ko'p ulushi Toshkent va Xorazm viloyatlariga, eng kam ulushi esa Navoiy viloyatiga to'g'ri keladi. Tadqiqotlar natijasida baliq ovlash va akvakultura yo'nalishidagi korxonalar soni 2021-yilda **(7024)** 2016-yilga **(4096)** nisbatan 1,7 baravarga ko'payganligi kuzatildi.


O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra 2021-yil holatiga O'zbekiston Respublikasi bo'yicha jami baliqchilik xo'jaliklari maydoni – **649 301,7 ga**.ni tashkil qilgan. Shundan, baliq boqish va ovlash uchun ijaraga olingan tabiiy suv havzalari maydoni – **569 221,6 ga**.ni, sun'iy suv havzalarida baliq boqish maydonlari esa – **80 080,1 ga**.ni tashkil qilgan.

2.1.3-jadvalda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha viloyatlari kesimida baliq ovlash va akvakultura yo'nalishidagi korxonalar tomonidan 2011-2021-yillarda ovlangan baliqlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu jadvaldan ko'rinadiki, Respublikada faoliyat yuritayotgan baliq ovlash va akvakultura yo'nalishidagi korxonalar ovlagan baliqlarning katta ulushi **(31 117,0 t.)** Xorazm viloyatiga to'g'ri kelmoqda. Xorazm viloyatidan keyingi ulush garchi korxonalar soni jihatidan Toshkent viloyatidan orqada bo'lsada **(20 178,1 t.)** Andijon viloyatiga to'g'ri kelmoqda. Ovlangan baliqlar ulushi bo'yicha eng past daraja Qashqadaryo,

¹¹⁷ O'zbekiston respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlariga to'g'ri kelgan.

Tadqiqotlar natijasida baliq ovlash va akvakultura yo'nalishidagi korxonalar tomonidan ovlangan baliqlar 2021-yilda (175 427,2 t.) 2011-yilga (17 234,9 t.) nisbatan 10,2 baravarga ko'payganligi kuzatildi.



2.1.1–rasm. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha 2011-2021-yillarda ovlangan baliqlar¹¹⁸, (tonna)

2.1.1-rasmda O‘zbekiston Respublikasida baliq ovlash va akvakultura yo'nalishidagi korxonalar tomonidan 2011-2021-yillarda ovlangan baliqlarning o'sish dinamikasi keltirilgan.

2.1.4-jadvalda 2010-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyati baliqchilik xo'jaliklarida yetishtirilgan baliqlar hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

2010-yilda O‘zbekiston respublikasida jami 16878,0 tonna baliq yetishtirilib, Xorazm viloyatining ulushi 2554,0 tonnani (15,13 foizni) tashkil qilgan. 2021-yilda O‘zbekiston respublikasida 171933,1 tonna baliq yetishtirilib, Xorazm viloyatining ulushi 31117,0 tonnani (18,4 foizni) tashkil qilgan. Xorazm viloyatida 2010-yilga nisbatan 2021-yilda o'sish kuzatilgan.

¹¹⁸ O‘zbekiston respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2.1.3-jadval

O'zbekiston Respublika va viloyatlari bo'yicha ovlangan baliqlar haqida ma'lumot¹¹⁹

tonnada

Hududlar	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2021yilni 2011 yilga nisbati, %
O'zbekiston Respublikasi	17234,9	25885,1	37505,0	46391,6	59851,5	65322,1	83900,4	90984,3	121717,0	144102,6	175427,2	1017,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1112,0	1895,7	2654,0	2658,0	3410,0	4515,0	6157,2	9856,7	12847,0	14441,9	12637,3	1136,4
Andijon	731,0	1212,0	1776,0	2176,0	2535,0	2088,1	4081,0	10224,0	11048,6	17414,6	20178,1	2760,3
Buxoro	569,0	870,0	1321,0	1570,7	1951,0	2812,7	3399,7	3737,9	5798,3	7082,0	10877,0	1911,6
Jizzax	2921,0	4550,0	7396,0	9035,5	10850,3	11197,7	13837,6	7151,5	10314,9	13117,9	13687,2	468,6
Qashqadaryo	900,0	1679,0	2277,0	2608,0	3151,0	3952,3	4769,6	4796,1	5714,4	5441,5	5323,3	591,5
Navoiy	1546,0	2197,0	2459,0	3771,1	5610,1	7669,7	12565,9	10882,4	11997,6	12458,2	12769,0	825,9
Namangan	676,0	1146,0	1742,0	2146,0	2733,0	3383,6	5218,0	5360,0	6931,6	8740,2	11997,1	1774,7
Samarqand	513,0	594,0	1124,0	1384,0	1839,0	2540,3	3435,3	4006,1	8974,1	12725,1	19534,9	3808,0
Surxondaryo	451,1	854,8	1266,0	1521,8	1911,0	2579,9	3876,0	3815,9	3610,8	4497,2	5476,9	1214,1
Sirdaryo	152,8	319,9	1122,0	1545,0	1822,0	2279,0	2222,4	5375,9	9994,1	5551,1	6434,7	4211,2
Toshkent	3393,0	4850,7	6706,0	8000,4	11557,1	8171,1	8155,1	9867,2	7896,6	9726,9	13239,0	390,2
Farg'ona	1038,0	1844,0	2606,0	3485,1	4025,0	5214,1	6781,6	6430,3	10567,6	11151,7	12155,7	1171,1
Xorazm	3232,0	3872,0	5056,0	6490,0	8457,0	8918,6	9401,0	9480,3	16021,4	21754,3	31117,0	962,8
Xorazm viloyatining ulushi, %	18,8	15,0	13,5	14,0	14,1	13,7	11,2	10,4	13,2	15,1	17,7	-1,1

¹¹⁹ O'zbekiston respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga asosan muallif ishlanmasi

2.1.4-jadval


**2010-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyati baliqchilik
xo‘jaliklarida yetishtirilgan baliqlar hajmi, tonnada ¹²⁰**

Yillar	Respublika bo‘yicha	Xorazm viloyati bo‘yicha	Xorazm viloyatini respublikaga nisbatan ulushi, foizda
2010	16878,0	2554,0	15,13
2011	17234,9	3232,0	18,75
2012	25885,1	3872,0	14,96
2013	37505,0	5056,0	13,48
2014	46391,6	6490,0	13,99
2015	59851,5	8457,0	14,13
2016	65322,1	8918,6	13,65
2017	83900,4	9401,0	11,20
2018	90984,3	9480,3	10,42
2019	121717,0	16021,4	13,16
2020	144102,6	21754,3	15,10
2021	175427,2	31117,0	17,74
2021-yilda 2010 yilga nisbatan o‘zgarish	158549,2	28563,0	18,02

Quyidagi 2.1.2-rasmda 2010-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyati baliqchilik xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilgan baliqlar o‘rtacha narxlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.


2011-yilda O‘zbekiston Respublikasida yetishtirilgan baliqlar o‘rtacha narxlari 6649,1 so‘mni tashkil qilib, Xorazm viloyatida yetishtirilgan baliqlar o‘rtacha narxlari 7250 so‘mni tashkil qilgan. Xorazm viloyatida yetishtirilgan baliqlar o‘rta-cha narxlari O‘zbekiston Respublikasidagi o‘rtacha narxlarga nisbatan yuqoriligi kuzatildi. Tahlillardan ko‘rinadiki, faqat 2015-yilda Xorazm viloyatida yetishtirilgan baliqlar o‘rtacha narxlari (10393 so‘m) O‘zbekiston Respublikasidagi o‘rtacha narxlarga (11682,8 so‘m) nisbatan pasaygan. 2021-yilda O‘zbekiston Respublikasida yetishtirilgan baliqlar o‘rtacha narxlari 22444,6 so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, Xorazm viloyatida yetishtirilgan baliqlar o‘rtacha narxlari 27080 so‘mni tashkil qilgan. Xorazm viloyatida yetishtirilgan baliqlar o‘rtacha narxlari O‘zbekiston Respublikasidagi o‘rtacha narxlariga nisbatan 4635,4 so‘mga yuqoriligini kuzatdik.

¹²⁰ O‘zbekiston respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi Xorazm viloyat statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi



2.1.2-rasm. 2010-2021-yillarda turli baliqlar o'rtacha narxlari, yillar kesimida (so'm)¹²¹.

2.1.3-rasmda O'zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik (KT) subyektlarining YAIM dagi ulushi keltirilgan. 2021-yilda KT subyektlarining YAIM dagi ulushi respublikada 54,9 foizni, Xorazm viloyatida 73,9 foizni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2012-yilda respublikada 60,8 foizni, Xorazm viloyatida esa 73,5 foizni tashkil qilgan. 2021-yilda 2012-yilga nisbatan respublikada 5,9 foiz pasayish, Xorazm viloyatida esa 0,4 foiz o'sish kuzatilgan.



2.1.3-rasm. O'zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyatida KT subyektlarining YAIM dagi ulushi¹²².

¹²¹ <https://stat.uz/uz/> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

¹²² <https://stat.uz/uz/> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti ma'lumotlari asosida muallif

2.1.5-jadvaldan ko‘rinadiki, 2021-yilda Xorazm viloyatida 4914 ta yangi kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil qiliningan va bu o‘tgan yilga nisbatan 6 foizga ko‘p demakdir.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) respublikada 2017-yilda 12,4 birlikni, 2021-yilda 16,5 birlikni, Xorazm viloyatida 2017-yilda 6,3 birlikni, 2021-yilda 12,1 birlikni tashkil qilib, respublika va Xorazm viloyatida xam 2021-yilda 2017-yilga nisbatan o‘shish kuzatilgan.

2.1.5 – jadval

O‘zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyatida KT subyektlarining asosiy ko‘rsatkichlari, birlikda¹²³

Yillar	O‘zbekiston Respublikasi			Xorazm viloyati		
	KT subyektlari soni,	KT subyektlari soni, har 1000 axoliga	Yangi tashkil qilingan KT subyektlari soni	KT subyektlari soni	KT subyektlari soni, har 1000 axoliga	Yangi tashkil qilingan KT subyektlari soni
2017	229666	12,4	38167	11315	6,3	1565
2018	262930	13,2	48922	12576	6,9	2009
2019	334767	13,3	91874	16282	8,7	4668
2020	411203	15,6	93214	20177	10,7	4632
2021	462834	16,5	98866	23324	12,1	4914

2.1.4-rasmda Xorazm viloyatida 2021-yilda yangi tashkil qilingan KT subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p KT subyektlari savdo sohasida 37,5%, sanoat sohasida 22,4%, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 12,9% ni tashkil etgan.



2.1.4-rasm. Xorazm viloyatida 2021-yilda yangi tashkil qilingan KT subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, foizda¹²⁴.

ishlanmasi.

¹²³ <https://stat.uz/uz/> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

¹²⁴ <https://stat.uz/uz/> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

O'zbekiston Respublikasi rahbariyati tomonidan keyingi yillarda baliqchilik sohasiga katta e'tibor berilayotgani, bu sohada olib borilayotgan islohotlarda o'z aksini topmoqda. Shunday bo'lsada, sohada e'tibor berilishi kerak bo'lgan muammolar mavjud. Bu o'z navbatida sohani malakali kadrlar bilan ta'minlash, xorijiy tajriba va texnologiyalarni sohaga kiritilishini yana takomillashtirishni taqozo etadi.

2.2-§. Xorazm viloyati qishloq xo'jaligi tarmog'i baliqchilik sohasida kichik biznes subyektlarining rivojlanishini baholash.

Qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirish uchun tarmoqda erkin faoliyat yurituvchi turli mulkchilik shakllariga asoslangan tadbirkorlik shakllari hamda ular o'rtasidagi erkin bozor munosabatlarining nazariy asoslarini o'rganish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo'jaligi tarmog'ining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyatini inobatga olgan holda, tarmoqqa investitsiyalarni ko'proq jalb etib, fan-texnika yutuqlarini, innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish, yer, kapital hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo'llarini aniq belgilash, mehnat unumdorligini yuksaltirish, mahsulot tannarxini pasaytirish, ishchi-xizmatchilarni rag'batlantirish tizimini takomillashtirish negizida foyda summasini ko'paytirish yo'llarini belgilab olish maqsadga muvofiqdir. Bu masalalarning ilmiy hamda amaliy asoslarini yaratishda, rivojlantirishda, ularni ishlab chiqarishga joriy etishda qishloq xo'jaligi tarmog'ining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish zarur¹²⁵.

Qishloq xo'jaligi tarmog'i sanoatni ayrim sohalarini xom-ashyo hamda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashi sababli ham O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega.

Biz tadqiqotlarimiz davomida Xorazm viloyati qishloq xo'jaligi tarmog'i hamda uning bir sohasi bo'lgan baliqchilik sohasini rivojlanishini o'rgandik.

Xorazm viloyat va tuman, shaharlari kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi haqida ma'lumotlar quyidagi 2.2.1-jadvalda keltirilgan.

4-ildavda 2010-2021-yillar bo'yicha Xorazm viloyatida KBXTning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ilovadagi jadvaldan ko'rinadiki, 2021-yilda KBXTning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligidagi asosiy ko'rsatkichlari hajmi – 19218,6 mlrd.so'mni tashkil qilib, 2010-yildagi 987,9 mlrd.so'mga nisbatan 19,4 baravarga o'sgan. Bunda Xorazm viloyatida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida KBXTning asosiy ko'rsatkichlari hajmi Respublikaga nisbatan keskin o'sganligini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Xorazm viloyati qishloq xo'jaligi tarmog'ida baliqchilik sohasi kichik biznes subyektlarining rivojlanishi viloyat aholisini baliq va baliq mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Aholining baliq va baliq mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji yildan –

¹²⁵ Nurmatov N.J., Avliyaqulov A.A. // Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti // darslik – Toshkent.: "Fan ziyosi" nashriyoti, 2021, 580 bet.

yilga oshib bormoqda.

2021 – yilda Xorazm viloyati qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi – 20 327,1 mlrd. soʻmni tashkil qilib (2.2.1 – jadvalga qarang), oʻtgan yilga nisbatan 103,4 foizni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik sohalarida koʻrsatilgan xizmatlar – 19 805,5 mlrd. soʻmni, oʻtgan yilga nisbatan 103,3 foizni, oʻrmon xoʻjaligida koʻrsatilgan xizmatlar – 139,3 mlrd. soʻmni, oʻtgan yilga nisbatan 101,2 foizni, **baliqchilik xoʻjaligida – 556,5 mlrd. soʻmni**, oʻtgan yilga nisbatan 142,7 foizni tashkil qilgan. Xorazm viloyatining Respublika qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi tarkibidagi ulushi 6,4 foizni tashkil qilgan.

2.2.1-jadval


Xorazm viloyati va tumanlari kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi¹²⁶ (joriy narxlarida. mlrd. soʻm)

Yillar	Hududlar nomi (shahar va tuman)													
	Xorazm viloyati	Urganch sh	Xiva sh.	Bogʻot	Gurlan	Qoʻshkoʻpir	Urganch	Xazorasp	Tuproqqalʼa	Xonqa	Xiva	Shovot	Yangiariq	Yangibozor
2010	2020,7	55,5		196,1	212,8	178,6	225,6	228,8		202,6	216,9	199,7	150,8	153,3
2011	2808,1	84		280	296,4	240,2	307,1	338		277,1	298,2	272,2	204	210,9
2012	3544,7	102,9		339,6	389,1	302,7	400,5	412,9		355,4	371,8	345,4	264,7	259,7
2013	4121,3	110,8		412,4	473,7	356,9	453,3	481,6		406,5	427,6	397,5	302	299
2014	5302	134,3		533,1	606,8	457,8	585,7	615,3		523,8	552,1	516,2	395,8	381,1
2015	6373,3	150,3	22,6	649,1	739,2	550,8	699,9	749,3		622,9	636,1	621,8	474,3	457
2016	7699,3	179,2	27,7	779,3	859,1	681,1	859,2	892,8		743	787,5	752,5	581,8	556,1
2017	9351,3	208,5	33,6	891,9	881,2	837,8	1130,2	1117,5		978	901,2	913,8	737,9	719,7
2018	12727,8	347,9	36	1225,9	1196,4	1115,5	1498,1	1558,5		1374,1	1012,7	1272,9	1070,7	1019,1
2019	14447,6	321,7	47,5	1383,3	1345	1336,3	1735,5	1657,2		1515,8	1205,4	1473,4	1222,9	1203,6
2020	16957,7	386,7	53,2	1642,9	1607,4	1501,4	2061,1	1503,8	424,2	1822,6	1371,5	1718,4	1454,1	1410,4
2021	20327,9	485,1	62,8	1989	1902,5	1814,1	2324,3	1842,7	530,8	2161,3	1728,9	1995,4	1771	1720
2021-yilda 2010-yilga nisbatan oʻzgarish	18307,2	429,6	62,8	1792,9	1689,7	1635,5	2098,7	1613,9	530,8	1958,7	1512	1795,7	1620,2	1566,7

2.2.1 – rasmda 2012-2021-yillarda Xorazm viloyatida KBXTning qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi tarmogʻidagi asosiy koʻrsatkichlari hajmi keltirilgan. Rasmdan koʻrinadiki, Xorazm viloyatida KBXTning qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi tarmogʻidagi asosiy koʻrsatkichlari hajmi 2018-yildan boshlab keskin oʻsgan. Bu esa oʻz navbatida davlatimiz tomonidan qishloq,

¹²⁶ Oʻzbekiston respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi Xorazm viloyat statistika boshqarmasi maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi

o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘ida amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasidir.



2.2.1–rasm. 2012-2021-yillarda Xorazm viloyatida KBXTning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘idagi asosiy ko‘rsatkichlari hajmi¹²⁷, mlrd.so‘m.

Xorazm viloyatida 2021-yilda ro‘yxatga olingan kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni jami **23 324** tani, shundan baliqchilik subyektlari 807 tani tashkil qilgan. Quyidagi 2.2.2-jadvalda 2021-yil bo‘yicha viloyatimiz hududlaridagi kichik tadbirkorlik (biznes) va baliqchilik subyektlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

**2.2.2.-jadval
Xorazm viloyati kichik tadbirkorlik (biznes) va baliqchilik subyektlari soni¹²⁸**

Hududlar nomi (shahar va tuman)	Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari soni	Baliqchilik subyektlari	
		soni	ulushi
Viloyat bo‘yicha	23 324	807	3,5
Urganch sh.	4 835	5	0,1
Xiva sh.	2 055	7	0,3
Xiva	1 784	98	5,5
Urganch	2 702	54	2,0
Xonqa	1 797	80	4,5
Yangiariq	1 277	91	7,1
Hazorasp	1 312	69	5,3
Gurlan	1 543	77	5,0
Qo‘shko‘pir	1 747	77	4,4
Bog‘ot	1 375	99	7,2
Shovot	1 214	78	6,4
Tuproqqal’a	545	31	5,7
Yangibozor	1 138	41	3,6

¹²⁷ O‘zbekiston respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi Xorazm viloyat statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

¹²⁸ O‘zbekiston respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi Xorazm viloyat statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2.2.2-jadvaldan ko‘rinadiki, kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlariga nisbatan baliqchilik subyektlarining ulushi 3,5 foizni tashkil qilgan. Eng katta ulushni Bog‘ot, Yangiariq, Shovot tumanlari tashkil qilgan.

2.2.3-jadvalda 2021-yilda viloyatimiz hududlarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari va yaratilgan ish o‘rinlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

2021-yilda Xorazm viloyatida jami 6265 ta yangi tadbirkorlik subyektlari hamda 7300 ta yangi ish o‘rinlari tashkil qilish prognoz qilingan bo‘lsa, amalda 4370 ta yangi tadbirkorlik subyektlari hamda 8298 ta yangi ish o‘rinlari tashkil qilingan. Shundan qishloq xo‘jaligida jami 663 yangi tadbirkorlik subyektlari va 812 ta yangi ish o‘rinlari tashkil qilingan. Shuningdek, 54 ta baliqchilik xo‘jaliklari yangi tashkil qilingan.

2.2.3.-jadval

Xorazm viloyatida 2021-yilda yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari va ish o‘rinlari¹²⁹

Hududlar nomi (shahar va tuman)	Prognoz		Amalda	
	Tadbirkorlik subyektlari soni	Ish o‘rinlari soni	Tadbirkorlik subyektlari soni	Ish o‘rinlari soni
Xorazm viloyati	6265	7300	4370	8298
Urganch sh.	736	880	692	1123
Xiva sh.	533	567	353	681
Bog‘ot t.	527	585	323	593
Gurlan t.	427	504	334	532
Qo‘shko‘pir t.	419	497	287	674
Urganch t.	264	333	388	506
Xazarasp t.	864	976	457	1013
Xonqa tumani	352	402	310	411
Xiva t.	513	594	261	649
Shavot t.	486	577	270	623
Yangiariq t.	486	571	285	621
Yangibozor t.	351	425	290	476
Tuproqqal’a t.	307	389	120	396

2022-yilda viloyatda jami 6550ta yangi tadbirkorlik subyektlari hamda 8305ta yangi ish o‘rinlari tashkil qilish prognoz qilingan bo‘lsa, yanvar-sentyabr oylarida amalda 4490ta yangi tadbirkorlik subyektlari hamda 5765ta yangi ish o‘rinlari tashkil qilingan. Shundan qishloq xo‘jaligida jami 663 yangi tadbirkorlik subyektlari va 812ta yangi ish o‘rinlari tashkil qilingan. Shuningdek, 38ta baliqchilik xo‘jaliklari tashkil qilingan.

Xorazm viloyati tumanlari bo‘yicha baliq ovlash va akvakultura yo‘nalishidagi baliqchilik xo‘jaliklari soni quyidagi 2.2.4-jadvalda keltirilgan.

2.2.4-jadvaldan ko‘rinadiki Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan baliq ovlash va akvakultura yo‘nalishidagi korxonalar sonining eng ko‘p ulushi Bog‘ot, Xiva va Yangiariq tumanlariga, eng kam ulushi esa Xiva va Urganch shaharlariga to‘g‘ri keladi. Tadqiqotlar natijasida baliq ovlash va akvakultura yo‘nalishidagi

¹²⁹ Xorazm viloyati iqtisodiyot bosh boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

korxonalar soni 2021-yilda **(807)** 2010-yilga **(182)** nisbatan 4,4 baravarga ko'payganligi kuzatildi.

2.2.4-jadval

Xorazm viloyati va tumanlari buyicha baliqchilik xo'jaliklari soni¹³⁰

Hududlar nomi (shahar va tuman)	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Xorazm viloyati	182	200	257	258	303	358	461	538	630	664	753	807
Bog'ot	20	18	33	37	44	56	67	70	84	87	99	99
Gurlan	21	22	26	23	24	23	24	33	39	48	59	77
Qo'shko'pir	23	21	30	29	32	36	36	60	62	64	68	77
Urganch	9	7	16	16	16	22	28	34	40	42	45	54
Xazorasp	19	23	28	34	49	56	69	73	83	89	70	69
Tuproqqa'la	-	-	-	-	-	-	-	-	0	-	28	31
Xonqa	12	13	15	12	12	14	48	51	71	75	78	80
Xiva	27	40	39	32	35	37	55	58	77	83	90	98
Shovot	12	11	19	27	34	46	53	66	66	67	78	78
Yangiariq	28	33	40	35	42	50	55	63	66	69	88	91
Yangibozor	11	12	11	13	15	18	22	26	36	37	35	41
Urganch sh.	-	-	-	-	-		4	4	4	3	7	5
Xiva sh.	-	-	-	-	-				2		8	7

Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan baliq ovlash va akvakultura yo'nalishidagi korxonalarning 2022-yildagi faoliyat turlari bo'yicha soni quyidagi 2.2.5-jadvalda keltirilgan.

2.2.5 – jadval

Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan baliq ovlash va akvakultura yo'nalishidagi korxonalarning faoliyat turlari bo'yicha soni¹³¹


2022-yil iyul oyi holatiga

Hududlar nomi (shahar va tuman)	Jami	Ferner xo'jaligi	MCHJ	Oilaviy korxona	Xususiy korxona	I/ch koopera tivi	Agro- firma
Viloyat bo'yicha	845	592	166	53	31	2	1
Xiva tumani	102	69	26	1	6	0	0
Bog'ot tumani	99	89	8	1	1	0	0
Yangiariq tumani	93	74	16	2	1	0	0
Shovot tumani	84	78	1	4	1	0	0
Xazorasp tumani	79	65	9	4	0	0	1
Ko'shko'pir tumani	80	68	8	3	1	0	0
Xonqa tumani	78	22	18	24	14	0	0
Gurlan tumani	76	31	41	2	2	0	0
Urganch tumani	61	35	17	6	2	1	0
Yangibozor tumani	42	37	3	2	0	0	0
Tuproqqa'la tumani	34	24	7	1	1	1	0
Urganch sh.	10	0	7	3	0	0	0
Xiva sh.	7	0	5	0	2	0	0

¹³⁰ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

¹³¹ O'zbekiston respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Xorazm viloyatida mavjud baliqchilik xo‘jaliklari soni – **845** tani tashkil qilib, umumiy suv maydoni **13 774** ga. dan iborat.



2.2.2—rasm. Xorazm viloyati bo‘yicha bo‘yicha 2010-2021-yillarda ovlangan baliqlar¹³², (tonna)

2.2.2-rasmda Xorazm viloyatida baliq ovlash va akvakultura yo‘nalishidagi korxonalar tomonidan 2011-2021-yillarda ovlangan baliqlarning o‘sinh dinamikasi keltirilgan.

2.2.2-rasmdan ko‘rinadiki, Xorazm viloyatida ovlangan baliqlar 2010-2018-yillarga nisbatan 2019-2021-yillarda keskin o‘sganligini ko‘rish mumkin. Bu o‘z navbatida baliqchilik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasi ekanligidan dalolat beradi.

2.2.6-jadvalda Xorazm viloyati bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida baliq ovlash va akvakultura yo‘nalishidagi korxonalar tomonidan 2011-2021-yillarda ovlangan baliqlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Viloyatda baliq ovlash va akvakultura yo‘nalishidagi korxonalar tomonidan ovlangan baliqlar 2011-yilda **3 232,0 tonnani** tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2021-yilda **31117,0 tonnani** tashkil qilib, 2021-yilda 2011-yilga nisbatan 10,38 baravarga ko‘paygan. Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan baliq ovlash va akvakultura yo‘nalishidagi korxonalar ovlagan baliqlarning katta ulushi Yangiariq (**9 012,5 t.**) va Xiva (**8 486,9 t.**) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda. Viloyatda Yangibozor (**507,2 t.**), Xonqa (**615,4 t.**) va Gurlan (**875,9 t.**) tumanlari baliq yetishtirish bo‘yicha eng past ko‘rsatkichga ega.

¹³² O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi Xorazm viloyat boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2.2.6-jadval

Xoram viloyati bo'yicha ovlangan baliqlar haqida ma'lumot¹³³

tonnada

yillar	Hududlar nomi (shahar va tuman)													
	Xorazm viloyati	Urganch sh	Xiva sh.	Bog'ot	Gurlan	Qo'sh-ko'pir	Urganch	Xazorasp	Tuproq-qal'a	Xonqa	Xiva	Shovot	Yangi-ariq	Yangi-bozor
2011	3232			230	197	204	128	230		111	538	219	1260	115
2012	3872			356	203	287	186	234		122	775	347	1235	127
2013	5056			434	250	352	227	306		162	961	450	1769	145
2014	6490			573	357	450	293	584		198	1149	565	2121	200
2015	8457			747	474	588	386	787		264	1521	746	2682	262
2016	8918,6			775,6	519,8	623,1	439,6	811,1		240,6	1654,5	747,1	2838,2	269
2017	9401			833	457,5	1051,9	360,9	944,3		256,7	1993,9	734,7	2576	192,1
2018	9480,3	40	0,4	947,6	424,2	859,1	353,9	819,5		298,4	2156,3	633,3	2727,1	220,5
2019	16021,4	0	27,5	2352,2	578,7	1348,9	655,7	1578,6		352,5	3890,3	1206,6	3633,9	396,5
2020	21754,3	16,5	34,4	2275,1	778,7	1521,7	906,3	1490,1	410,7	594	3886,7	1115,7	8349,7	374,7
2021	31117	249,7	3	3056,8	875,9	2442	983,6	1831,3	1005,2	615,4	8486,9	2047,5	9012,5	507,2
2021-yilni 2011-yilga nisbati, %	962,8			1329	444,6	1197,1	768,4	796,2		554,4	1577,5	934,9	715,3	441

¹³³ O'zbekiston respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga asosan muallif ishlanmasi

2.2.7-jadval

2010-2021-yillarda Xorazm viloyati baliqchilik xo‘jaliklari ko‘rsatkichlari¹³⁴

Yillar	Baliqchilik xo‘jaliklari soni	Yetishtirilgan baliq hajmi, tonna	Har bir baliqchilik xo‘jaligiga to‘g‘ri kelgan baliq miqdori, tonna
2010	182	2554,0	14,0
2011	200	3232,0	16,2
2012	257	3872,0	15,1
2013	258	5056,0	19,6
2014	303	6490,0	21,4
2015	358	8457,0	23,6
2016	461	8918,6	19,3
2017	538	9401,0	17,5
2018	630	9480,3	15,0
2019	664	16021,4	24,1
2020	753	21754,3	28,9
2021	807	31117,0	38,6
2021-yilda 2010 yilga nisbatan o‘zgarish	625,0	28563,0	24,6

2.2.7-jadvalda Xorazm viloyati baliqchilik xo‘jaliklari tomonidan 2010-2021-yillarda yetishtirilgan baliqlarning viloyatda mavjud har bir baliqchilik xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan miqdori haqida ma’lumotlar keltirilgan. 2010-yilda jami 182 ta baliqchilik xo‘jaliklari tomonidan 2554,0 tonna baliq yetishtirilib, har bir baliqchilik xo‘jaligiga to‘g‘ri kelgan baliq miqdori 14,0 tonnani tashkil qilgan. 2021-yilda esa jami 807 ta baliqchilik xo‘jaliklari tomonidan 31117,0 tonna baliq yetishtirilib, har bir baliqchilik xo‘jaligiga to‘g‘ri kelgan baliq miqdori 38,7 tonnani tashkil qilgan. 2010-yilga nisbatan har bir baliqchilik xo‘jaligiga to‘g‘ri kelgan baliq miqdori 2021-yilda 24,6 tonnaga ko‘paygan.

2.2.8-jadval

2010-2021-yillarda Xorazm viloyati baliqchilik xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilgan baliq mahsulotlari iste’moli¹³⁵

Yillar	Aholi soni, ming kishi	Yetishtirilgan baliq hajmi, tonna	Baliq mahsulotlari iste’moli aholi jon boshiga o‘rtacha, kg.
2010	1601,1	2554,0	1,6
2011	1629,1	3232,0	2,0
2012	1653,8	3872,0	2,3
2013	1684,1	5056,0	3,0
2014	1715,6	6490,0	3,8
2015	1746,9	8457,0	4,8
2016	1776,7	8918,6	5,0
2017	1805	9401,0	5,2
2018	1835,7	9480,3	5,2
2019	1866,5	16021,4	8,6
2020	1893,3	21754,3	11,5
2021	1924,2	31117,0	16,2

¹³⁴ O‘zbekiston respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi Xorazm viloyat statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

¹³⁵ O‘zbekiston respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi Xorazm viloyat statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2.2.8-jadvalda 2010-2021-yillarda Xorazm viloyati baliqchilik xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilgan baliq miqdorining aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha miqdori haqida ma‘lumotlar keltirilgan. 2010-yilda Xorazm viloyati aholisi 1601,1 ming kishini tashkil qilib, baliq mahsulotlari iste‘moli aholi jon boshiga o‘rtacha 1,6 kilogrammdan to‘g‘ri kelgan. 2021-yilda Xorazm viloyati aholisi 1924,2 ming kishini tashkil qilib, baliq mahsulotlari iste‘moli aholi jon boshiga o‘rtacha 16,2 kilogrammdan to‘g‘ri kelgan. 2021-yilda baliq mahsulotlari iste‘moli aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha baliq miqdori 2010-yilga nisbatan 10 baravarga o‘sganini ko‘ramiz.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, amaliy va nazariy jihatdan statistik ma‘lumotlar asosida KBXT rivojlanish barqarorligini baholash muhim qurol hisoblanadi.

Viloyatimizda qishloq xo‘jaligi tarmog‘i va uning baliqchilik sohasini rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsada, sohada e‘tibor berilishi kerak bo‘lgan muammolar mavjud.

Fikrimizcha, Xorazm viloyatida mavjud imkoniyat va resurslardan oqilona foydalangan holda qishloq xo‘jaligi tarmog‘i va uning baliqchilik sohasini rivojlantirish orqali nafaqat viloyatimiz aholisini, balki qo‘shni viloyatlar hamda qo‘shni respublikalar aholisini ham qishloq xo‘jaligi tarmog‘i mahsulotlari, shuningdek baliq va baliq mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirib, aholi farovonligini ta‘minlashga erishilardi. Shu sababli ham, aynan Xorazm viloyati qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va istiqbollariga dissertatsiya ishimizning uchinchi bobida to‘xtalib o‘tamiz.

2.3-§. Viloyatda kichik biznes asosida baliqchilik majmuasi salohiyatini oshirishning zahira va imkoniyatlarini SWOT tahlili usulida baholash.

Bugungi kunda pandemiya davrida aholining go‘sht va go‘sht mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojining o‘sib borishi, bir vaqtning o‘zida mahsulot-larning ushbu turlari tannarxini ko‘tarilishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa o‘z navbatida aholining mol go‘shtiga bo‘lgan o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida substitut tovarlar sifatida parranda hamda baliq mahsulotlari bilan ta‘minlashni taqozo etmoqda. Ushbu masalaning yechimi sifatida parrandachilik hamda baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirish va takomillashtirish zaruriyatini taqozo etadi. Bu esa o‘z navbatida yangi ishchi o‘rinlarning yaratilishi, aholining real daromadlarining oshishi, turmush farovonligining oshishi, shu jumladan mamlakatimiz mahalliy bozorlariga hamda xorijiy iste‘molchilarga baliq va baliq mahsulotlarining chiqarilishini oshishiga, narxlarning tushishiga va ushbu sohada raqobat muhitining shakllanishiga sabab bo‘lib, aholining sifatli va arzon baliq mahsulotlarini iste‘moli oshishiga zamin yaratadi.

KBXT va qishloq xo‘jaligi baliqchilik sohasining taraqqiyotini tadqiq etishning ilmiy, nazariy va amaliy asoslari, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Ammo, olimlarning ishlari KBXTni, qishloq xo‘jaligi baliqchilik sohasini

rivojlantirishning umumiy nazariy-uslubiy asoslarini yoritishda muhim ilmiy manbalar bo‘lib xizmat qilsada, mamlakatda KBXTni hamda qishloq xo‘jaligi baliqchilik sohasining rivojlanish tendensiyalari, baliqchilik sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, ushbu sohada KBXT faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishning turli jihatlarini chuqur tadqiq etish, baliqchilik sohasida KBXTni ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish masalalari kam o‘rganilgan.

Shu sababli, hozirgi kunda respublikamizda qishloq xo‘jaligi baliqchilik sohasida KBXTni tasniflash, rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va baholash, sohani rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, rivojlangan davlatlarda ushbu sohada tadbirkorlikni rivojlantirishning ilg‘or xorijiy tajribalarini tadqiq qilish, baliqchilik sohasida KBXTni tashkil qilish, boshqarishda samarali qo‘llanilayotgan usul va modellar yordamida respublika baliqchilik sohasida KBXTni barqaror va mutanosib rivojlanishini ta‘minlash, sohada tadbirkorlikni rivojlanish tendensiyalarini aniqlash bo‘yicha ilmiy-amaliy muammolarni hal qilish va amaliy tatbiq etishga haqiqiy zarurat tug‘ilmoqda.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturining “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash” deb nomlangan 2-yo‘nalishida bir qator vazifalar belgilangan. **Jumladan, 2022-yilda chorvachilikda** o‘sish sur‘atini o‘rtacha **6,2 foizga** oshirish choralarini ko‘rish, **qoramollar** bosh sonini **14,5 mln boshga**, shundan **sigirlar** bosh sonini **4,9 mln boshga**, **go‘sht** ishlab chiqarishni **2,7 mln tonnaga**, **sut** — **12,2 mln tonnaga** yetkazish, **8,2 mlrd dona** tuxum va **468,4 ming tonna** parranda go‘shti ishlab chiqarish, **700 ming tonna baliq** ishlab chiqarish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan.

O‘zbekistonda 2022-yilda 700 ming tonna baliq yetishtirish maqsadida 2022-yil 1-fevraldan xonadonida baliq yetishtiruvchilar o‘zini-o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatga olinadi hamda ularga ajratiladigan kredit miqdori BHMning 300 baravarigacha (81 mln. so‘mgacha) oshiriladi. Shu bilan birga xonadonida baliq yetishtiruvchilarning yer va mol-mulk solig‘i 50 foizga qisqartiriladi.

Shuningdek, baliqchilikni rivojlantirish va baliq yetishtirish hajmini ko‘paytirish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlarga ko‘ra hosildorligi past bo‘lgan **31 ming gektar** sun‘iy suv havzalarini bosqichma-bosqich **intensivlashtirish** va baliq yetishtirish hosildorligini **4-5 barobarga** oshirish, **baliqchilik klasterlari** sonini **15 taga** yetkazish va **10 mingta aholi xonadonlarida kooperatsiya** usulida intensiv baliq yetishtirishni yo‘lga qo‘yish, qimmatbaho sovuq suv baliqlari yetishtiruvchi korxonalar quvvatini **2 barobarga** oshirish (*hozirda 3,5 ming tn*) va yiliga **6 ming tonna** sovuq suv (*forel, osyotr, losos*) baliqlarini yetishtirish, **qayta ishlash** korxonalari sonini **84 taga (2 barobarga)**, **omuxta yem** korxonalari sonini **84 taga (2,5 barobarga)** yetkazish chora-tadbirlari ishlab chiqildi.

2.3.1-jadval

**2022-yilda O‘zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyatida baliq yetishtirish
prognoz parametrlari¹³⁶**

(tonna)

Hududlar nomi	Jami baliq yetishtirish hajmi	Shundan:						
		Sun'iy suv havzalarda	Tabiiy havza va suv omborlarda	Qafas (sadok) moslamasida	Intensiv suv havzalarda			Yopiq suv aylanma tizimi (UZV)da
					yarim intensiv	intensiv kichik suv havzalar	aholi xonadonlarida	
O‘zbekiston Respublikasi	700 000	54 245	36 351	15 290	404 941	151 883	22 000	15 290
Xorazm viloyati	66 000	8 669	950	130	50 990	3 167	1 694	400

Respublikada baliqchilik sohasini yanada rivojlantirish, baliq mahsulotlari turlarini ko‘paytirish, eksport salohiyatini oshirish, mavjud havzalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish, intensiv texnologiyalar asosida baliq yetishtirish hajmlarini ko‘paytirish hamda baliqchilik xo‘jaliklarining ozuqa bazasini mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil

13-yanvardagi “Baliqchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-83-son qarori qabul qilindi. Qarorning 1-2 ilovalarida 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasi va viloyatlarda baliq yetishtirish, sun'iy (ekstensiv) suv havzalarini intensivlashtirish va baliq ovlash hajmlari bo‘yicha prognoz parametrlari tasdiqlandi (2.3.1- va 2.3.2-jadvallar).

2022-yilda Xorazm viloyatida intensiv usulda baliq yetishtirishni ko‘paytirish va aholi xonadonlarida kichik basseynlarda baliq yetishtirish-ni yo‘lga qo‘yish hisobiga 66 000 tonna baliq yetishtirish rejalashtirilgan. Yopiq aylanma suv tizimida baliq yetishtirganda har bir basseyndan 1 tonnadan ortiq baliq olish imkoniyati bo‘ladi. 2022-yilda “Har bir xonadon tadbirkor” dasturi asosida 770 ta aholi xonadonlarida basseynlar qurilib, 1 tonnadan 1,2 tonnagacha baliq olish imkoniyati yaratiladi. Aholi xonadonlari baliq yetishtirish mavsumida, ya‘ni 6 oyda 13 million daromad bilan chiqishadi. Agar qish mavsumida ham baliq yetishtirishni yo‘lga qo‘ysalar 1 yilda 26 million daromadga ega bo‘ladilar. Xorazm viloyatida sohaga 20 000 000 dollar va 20 000 000 yevro kredit ajratiladi. Aholi xonadonlarida baliq yetishtirish uchun 9 milliard so‘m ajratiladi.

Baliqchilik sohasiga omuxta yem yetkazib bergan klasterlarga 30 foiz, chavoq baliq yetishtirib bergan klasterlarga 25 foiz subsidiya beriladi. Klaster-kooperatsiya-xonadon dasturi ishlab chiqilgan bo‘lib, xar bir klaster kooperatsiyaga chavoq baliq va omuxta yem yetkazib beradi. Kooperatsiya esa o‘z navbatida klaster tomonidan etkazilgan chavoq baliq va omuxta yemni aholi xonadonlariga yetkazib beradi. Aholini xonadonlarda basseyn usulida baliq

¹³⁶ <https://lex.uz/> O‘zbekiston respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi

yetishtirishlarini samarali tashkil qilishlari uchun bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida aholiga baliqchilik bo'yicha qisqa muddatli maxsus o'quv kurslari tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2.3.1 – jadvalda Xorazm viloyati bo'yicha 2022-yilda jami – 66000 t. baliq yetishtirish prognoz qilingan bo'lib, sun'iy suv havzalarida – 8699 t., tabiiy suv havzalarida – 950 t., qafas (sado) moslamalarida – 130 t., intensiv suv havzalarida 55851 t.(shundan yarim intensiv – 50990 t., intensiv kichik suv havzalarida – 3167 t., aholi xonadonlarida – 1694 t.), yopiq suv aylanma tizimi (UZV) da – 400 t. baliq yetishtirish prognoz qilingan bo'lib, eng katta ulush intensiv suv havzalarida baliq yetishtirishga prognoz qilingan.

2.3.2–jadvalda Xorazm viloyati bo'yicha 2022-yilda sun'iy (ekstensiv) suv havzalarini intensivlashtirish bo'yicha jami – 3815 ga. aeratsiya maydoniga 9545 ta aeratorlar o'rnatilib, intensiv usulda 47940 t. baliq yetishtirish prognoz qilingan.

Xorazm viloyati baliqchilik xo'jaliklari tomonidan 2021 – yilda 100 mln dona baliq lichinkalari yetishtirilgan, 30 gektar reproduktiv havzada 2 mln. dona chavoq yetishtirilgan. 2 ta inkubatsiya sexi va 5000 tonna baliq uchun omuxta yem ishlab chiqish quvvatlari tashkil qilingan.

2.3.2-jadval

2022-yilda sun'iy (ekstensiv) suv havzalarini intensivlashtirish va baliq ovlash hajmlari bo'yicha prognoz parametrlari¹³⁷

Hudud nomi	Aeratsiya maydoni, (ga)	O'rnatiladigan aeratorlar, (soni)	Baliq ovlash (tonna)
O'zbekiston Respublikasi	31 000	78 000	372 000
Xorazm viloyati	3 815	9 545	47 940

Biz tadqiqotlarimiz davomida Xorazm viloyati baliqchilik kompleksi tabiiy resurslar salohiyati va rivojlanish istiqbollarini ko'rib chiqamiz.

Xorazm viloyatida mavjud ko'l maydonlari 13872,31 ga.ni tashkil qilib, shundan sun'iy suv havzalari 7746,81 ga.ni (shundan yarim intensiv sun'iy suv havzalari 117,16 ga., intensiv kichik suv havzalari 2 ga.) va tabiiy suv havzalari 6125,5 ga.ni tashkil qiladi (2.2.3-jadval).

Viloyatimizda baliqchilik xo'jaliklari tomonidan ovlangan baliqlar 2021-yilda 31117,0 tonnani tashkil qilgan. Eng katta ulush Yangiariq va Xiva tumanlaridagi baliqchilik xo'jaliklariga to'g'ri keladi. 2022-yilda baliqchilik xo'jaliklari tomonidan ovlanadigan baliqlar hajmini 66000 tonnaga prognoz qilingan. Bu ko'rsatkich o'z navbatida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha qiymatni o'sishiga olib keladi.

Eng muhimi, viloyatimiz bozor va do'kon rastalarida baliq va baliq mahsulotlari soni hamda sifati oshishi tufayli xaridorning tanlash imkoniyati kengayib boradi.

2.3.3-jadvaldan ko'rinadiki, Xorazm viloyatida mavjud suvli maydonlar 13872,31 ga.ni tashkil qilib, shundan sun'iy suv havzalari 7746,81 ga., tabiiy suv havzalari 6125,5 ga. maydonni egallaydi. Yarim intensiv (117,16 ga.) va intensiv

¹³⁷ <https://lex.uz/> O'zbekiston respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi

kichik suv havzalari (2 ga.) maydoni eng kam ulushga ega.

Baliqchilik xo‘jaliklari baliq yetishtirishning xorij texnologiyalarini qo‘llagan holda intensiv usullaridan keng foydalanib katta natijaga erishadilar. Intensiv kichik suv havzalari, yopiq suv aylanish tizimi, qafas (sadoq) va “sholi+baliq” usullarida yetishtirilgan baliqlar inson salomatligida muhim ahamiyatga ega.

2.3.3-jadval

Xorazm viloyatida mavjud ko‘l maydonlari va baliq yetishtirish hajmlari to‘g‘risida ma‘lumot¹³⁸

Hududlar nomi (shahar va tuman)	Xo‘jalik soni	Jami suvli maydon, ga	Shundan:				Baliq yetishtirish (tonna)	
			Sun’iy suv havza, ga			Tabiiy suv havzalari, ga		
			jami	intensiv suv havzalari				
				yarim intensiv	intensiv kichik suv havzalar			
2021-yil amalda	2022-yil prognoz							
Jami:	807	13872,31	7746,81	117,16	2	6125,5	31 117	66 000
Xiva	98	6115,88	1617,08	0	2	4498,8	8486,9	19846
Shovot	78	502,5	383,4	0	0	119,1	2047,5	4982
Gurlan	77	228,2	215,8	0	0	12,4	875,9	1682
Qo‘shko‘pir	77	1323,29	774,99	86,5	0	548,3	2442	5555
Bog‘ot	99	782,6	618,4	0	0	164,2	3056,8	6264
Yangiariq	91	2862,00	2765,30	0	0	96,7	9012,5	16760
Xazorasp	69	856,26	459,16	0	0	397,1	1831,3	3988
Yangibozor	41	114,6	102,2	30,66	0	12,4	507,2	1045
Tuproqqala	31	477,21	460,81	0	0	16,4	1005,2	2543
Urganch	54	246,62	179,92	0	0	66,7	983,6	1942
Xonqa	80	200,65	167,85	0	0	32,8	615,4	1393
Xiva sh.	7	30,5	0	0	0	30,5	3	
Urganch sh.	5	132.00	1.90	0	0	130.10	249.7	

Viloyatimiz aholisiga baliq va baliq mahsulotlari 807 ta baliqchilik xo‘jaliklari hamda 3 ta baliqchilik klasterlari tomonidan arzon narxlarda yetkazib beriladi. Bu klasterlar - “Xiva qora ko‘l” fermer xo‘jaligi (Xiva tumani), “Xorazm baliq klaster” MCHJ (Yangiariq tumani), “Ummon baliq” fermer xo‘jaliklari (Qo‘shko‘pir tumani) klasterlaridir.

Biz tadqiqotlarimizda Xorazm viloyati Yangiariq tumanidagi “Xorazm baliq klaster” MCHJ baliqchilik xo‘jaligi va “Ummon baliq” fermer xo‘jaliklari (Qo‘shko‘pir tumani) klasterlari bilan tanishib, tajriba va yillik baliq yetishtirish ko‘rsatkichlarini o‘rgandik.

2.3.4 – jadvalda Xorazm viloyati Yangiariq tumanidagi “Xorazm baliq klaster” MCHJ baliqchilik xo‘jaligining yillik baliq yetishtirish ko‘rsatkichlari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

¹³⁸ Xorazm viloyat davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2.3.4-jadval

**“Xorazm baliq klaster” MCHJ baliqchilik xo‘jaligining yillik
baliq yetishtirish ko‘rsatkichlari¹³⁹**

Yillar	Ko‘rsatkichlar										
	Jami maydoni (ga)	Shundan tovar baliqlar uchun maydon (ga)	Baliq ovlash rejasi (tonna)	Ovlangan baliq (tonna)	Baliqlantirish (ming dona)	Mineral o‘g‘it bilan ta‘minlash (tonna)	Omuxta yem yetkazib berish (tonna)	Yetishtirilgan chavoq baliqlar (sotish uchun, tonna)	Jami sarflangan xarajatlar (ming. so‘mda)	Sof daromad (so‘mda)	Rentabellik darajasi %
2015	1550	1550	1450	1501	5100	752	3124	163	13658819	3602716	0,26
2016	1550	1550	1600	1616	5200	710	2792	185	14804346	3565648	0,24
2017	1560	1560	1670	1726	6000	689	3391	192	15912310	3501234	0,22
2018	1560	1560	1800	1832	8817	677	3838	203	19842616	8781510	0,44
2019	1601	1601	2000	2017	9291	736	3166	226	25009506	10742416	0,43
2020	1601	1601	4300	4517	9291	628	4050	265	30690044	3991694	0,13
2021	1650	1650	2800	2826,16	5783	695	1440	300	29645122	3012705250	0,1
2021-yilni 2015-yilga nisbatani +/-	100	100	1350	1325	683	-57	-1684	137	15986303	+3009102534	-0,16

“Xorazm baliq klaster” MCHJ baliqchilik xo‘jaligi tomonidan 2021-yilda yetishtirilgan baliqlar 2826,16 tonnani tashkil qilib, 2015-yilda yetishtirilgan 1501 tonnaga nisbatan 188 foizga o‘shish kuzatildi. Lekin shunga qaramasdan rentabellik darajasi 2021-yilda 10 foizni tashkil qilib, 2015-yilga nisbatan 16 foizga kamaygan. Rentabellik darajasini pasayib ketishi baliq kasalliklari va jahon hamjamiyatini tashvishga solayotgan COVID-19 koronavirus pandemiyasi bilan izohlanadi. Rentabellik darajasi COVID-19 koronavirus pandemiyasi boshlanishidan oldin ya’ni, 2018-yilda 44 foizni, 2019-yilda 43 foizni tashkil qilgan. 2020-yilda koronavirus pandemiyasi sababli ko‘plab mamlakatlar qatori O‘zbekiston Respublikasida ham chuqur iqtisodiy muammolar boshlangani hammamizga ma’lum.

2015-yilda 3 602 716 so‘m sof daromad olingan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2021-yilda 3 012 705 250 so‘mni tashkil qilgan.

2.3.5 – jadvalda “Xorazm baliq klaster” MCHJ baliqchilik xo‘jaligining 2021-yilda yetishtirilgan 2 826 160 kg. baliq uchun yillik baliq yetishtirish

¹³⁹ “Xorazm baliq klaster” MCHJ baliqchilik xo‘jaligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

ko'rsatkichlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

O'rganishlar davomida "Xorazm baliq klaster" MCHJ baliqchilik xo'jaligida baliq yetishtirish faqat an'anaviy usulda amalga oshirilib kelayotganligi aniqlandi. Intensiv usullardan umuman foydalanilmay kelingan.

2.3.5-jadval

**"Xorazm baliq klaster" MCHJ baliqchilik xo'jaligida 1 ga suv havzasida baliq yetishtirishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari¹⁴⁰
2021-yilda jami ovlangan 2 826 160 kg. baliq uchun**

Xarajatlarning nomlanishi va o'lchov birligi	Baliq yetishtirish		Farqi
	An'anaviy usulda	Intensiv usulda	
Ish haqi xarajatlari, so'm	6 109 882 962	-	6 109 882 962
Baliq chavoqlari yetishtirish xarajatlari, so'm	1 088 645 100	-	1 088 645 100
Ozuqa xarajati, so'm	7 638 521 200	-	7 638 521 200
Elektr energiya xarajatlari, so'm	1 865 746 312	-	1 865 746 312
Amortizatsiya, so'm	1 382 409 396	-	1 382 409 396
Transport xarajatlari	985 040 900	-	985 040 900
Veterinariya xizmati, so'm	42 827 300	-	42 827 300
Jami xarajatlar, so'm	19 113 073 170	-	19 113 073 170
Davr xarajatlari, so'm	6 008 707 200	-	6 008 707 200
Soliq to'lovlari, so'm	1 690 210 700	-	1 690 210 700
Ko'zda tutilmagan xarajatlar, so'm	2 833 130 930	-	2 833 130 930
Umumiy xarajatlar, so'm	29 645 122 000	-	29 645 122 000
Baliq mahsuldorligi, so'm	1766	-	1766
Yalpi mahsulot qiymati (1 kg), so'm	10490	-	10490
Olingan foyda, so'm	1 881 764	-	1 881 764
Rentabellik, %	10	-	10

"Xorazm baliq klaster" MCHJ baliqchilik xo'jaligida 1 ga suv havzasida baliq turlari bo'yicha baliq yetishtirishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari 5-6-7-8-ilovalarda keltirilgan.

Tadqiqotlarimiz davomida Qo'shko'pir tumani tadbirkorlik subyektlari, shu jumladan baliqchilik xo'jaliklari faoliyati bilan ham tanishdik.

Qo'shko'pir tumanida jami 2829 ta tadbirkorlik subyektlari mavjud bo'lib (80 tasi baliqchilikka ixtisoslashgan) bo'lib, 497 ta tadbirkorlik subyektlari pandemiya davrida o'z faoliyatini to'xtatgan edi. Shundan 485 ta tadbirkorlik subyektlari karantin qoidalariga qat'iy amal qilgan holda o'z faoliyatini qayta tiklagan. Aynan shu tadbirkorlik subyektlaridan biri baliqchilikka ixtisoslash-tirilgan "Ummon baliq" fermer xo'jaligidir.

"Ummon baliq" fermer xo'jaligi Qo'shko'pir tumani Kenagas mahalla fuqarolar yig'inida o'z faoliyatini olib borib, tumanda muvaffaqiyatli faol faoliyat olib borayotgan xo'jaliklardan biri hisoblanadi. Ushbu fermer xo'jaligi nafaqat mahallada, balki viloyatimiz va respublika viloyatlariga ham baliq yetkazib beradi. Ichki bozorni ta'minlash, aholini baliq va baliq mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilmoqda. Jumladan, Poytaxt aholisini ham sifatli baliq va

¹⁴⁰ "Xorazm baliq klaster" MCHJ baliqchilik xo'jaligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

baliq mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida "Xorazm qamish taomlari" restoraniga baliq yetkazib berishni samarali yo'lga qo'ygan.

Fermer xo'jaligi 2003-yil 11-martda ro'yxatga olinib, o'z faoliyatini boshlagan bo'lib, hozirda umumiy yer maydoni 100 gektarni tashkil qiladi. Shundan, jami suvli maydoni 97,2 ga bo'lib, intensiv suv havzalari 50 ga.ni tashkil qiladi. Tashkilotning ustav fondi - 1 724 300 000,000 UZS ni tashkil qiladi. Ta'sischi – Atabayev Baxram Ruzmetovich, ulushi - 100,00 %. Asosiy iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha - Dengiz akvakulturasini - (03210) tarkibiga kiradi.

Baliqchilik xo'jaligida intensiv va yopiq aylanma suv tizimida baliq yetishtirish yo'lga qo'yilgan. Fermer xo'jaligi rahbari o'z mablag'lari va Ipoteka bank Xorazm viloyat filialining 1,5 milliard so'm kredit evaziga ushbu fermer xo'jaligini tashkil qilgan. Fermer xo'jaligida super intensiv usulda gektariga 400 tonnagacha baliq yetishtirish imkoniyati mavjud. Fermer xo'jaligida osyotr baliqlarini yetishtirish ham yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularni urchitish orqali chavoq baliqlarni ham yetishtiradilar.

"Ummon baliq" baliqchilik xo'jaligi nafaqat Xorazmda, balki butun O'zbekistonda yetakchi xo'jaliklardan biri.

Fermer xo'jaligi 100 tonnalik sovutish uskunasi bilan ta'minlangan. Baliq va mahsulotlarini qayta ishlash, noyob baliq (osyotr) va qora ikra yetishtirish imkoniyatlari mavjud.

Osyotr baliqlarini yetishtirish bilan parallel ravishda super intensiv usulda baliq yetishtirish amaliyoti ham yo'lga qo'yilgan. Super intensiv usulda maxsus uskunalar yordamida suvni kislorod bilan to'yintirish orqali baliq yetishtirish samaradorligini oshirishga erishiladi. Ushbu uskunalarni ishlatish vaqtida elektr energiyasidagi yuzaga keladigan uzilishlarni oldini olish maqsadida maxsus generatorlarni Turkiyadan davlatidan, kislorod generatorlarini Slaveniya davlatidan olib kelib o'rnatilgan.

Xo'jalikda ona baliqlar to'dasi shakllantirilgan. Bahorda shu ona baliqlar to'dasidan baliqlarni sun'iy urchitish orqali, o'z xo'jaligiga va viloyatdagi boshqa xo'jaliklarga, shuningdek, viloyatimizga yaqin joylashgan qo'shni viloyatlardagi baliqchilik xo'jaliklari uchun chavoq baliqlar yetishtiradilar.

Biz tadqiqotlarimiz davomida Xorazm viloyatidagi turizm salohiyati mavjud baliqchilik xo'jaliklari ko'llari bilan ham tanishdik.

2.3.1-rasmda Xorazm viloyatidagi turizm salohiyati mavjud baliqchilik xo'jaliklari ko'llari xaritasi keltirilgan. 2.2.1-rasmda keltirilganidek turizm salohiyati mavjud baliqchilik xo'jaliklari soni Urganch tumanida – 1 tani, Yangibozor tumanida – 1 tani, Qo'shko'pir tumanida – 1 tani, Xiva tumanida – 6 tani, Bog'ot tumanida – 1 tani tashkil qiladi.

2.3.6 – jadvalda viloyatdagi turizm salohiyati mavjud baliqchilik xo'jaliklarining ayrimlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Baliq xo'jaliklari subyektlari iqtisodiyotini barqaror rivojlanishiga erishish, tadbirkorlarga bozor muhitining tashqi va ichki omillari ta'siriga moslashish imkon beruvchi innovatsion rivojlanishning maqbul strategiyalarini izlash va

amalda qo‘llashni talab etadi¹⁴¹.



2.3.1 – rasm. Xorazm viloyatidagi turizm salohiyati mavjud baliqchilik xo‘jaliklari

2.3.6 – jadval

Viloyatdagi turizm salohiyati mavjud baliqchilik xo‘jaliklarining ayrimlari haqida ma‘lumot¹⁴²

Hudud nomi (tuman)	Xo‘jalik nomi	Jami suvli maydon, ga	Shundan:			
			Sun’iy suv havza, ga			Tabiiy suv havzalari, ga
			jami	intensiv suv havzalari		
				yarim intensiv	intensiv kichik suv havzalar	
Yangibozor	“Shoxrux Akmal baliqchi”	1,6	1,6	0,48		
Qo‘shko‘pir	Xorazm Oqqush ko‘li	13,5	13,5			
Xiva	Jilovdor Boburmirza	27,4	27,4			
Xiva	Xiva Bodomzor	10	10			
Xiva	Dunyo-Invest MCHJ	1	1			
Xiva	Xiva qorako‘l	199,8	84,5		2	115,3
Xiva	Valiko plyus	30,4	30,4			
Xiva	Boltoboy Oqsogol	608,4	108			500,4

¹⁴¹ Сарсенбаев Бахитжан Абдулгазиевич. Балиқчилик соҳаси ривожланишини маркетинг ёндашувлари асосида такомиллаштириш (Қорақалпоғистон Республикаси мисолида). АВТОРЕФЕРАТ. Нукус 2021.

¹⁴² <http://www.xorazmstat.uz/uz/> Xorazm viloyat statistika boshqarmasi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Baliqchilik xo‘jaliklarining rivojlanishi va samaradorligini oshirish uchun, eng avvalo, xo‘jalikning SWOT tahlilini amalga oshirish lozim bo‘ladi¹⁴³.

Biz ham tadqiqotlarimiz davomida Xorazm viloyati baliqchilik sohasida KBXT subyektlarining bugungi kundagi ustunliklari, zaif jihatlari, imkoniyatlari hamda unga nisbatan tahdidlarni SWOT tahlili yordamida ko‘rib chiqdik.

SWOT tahlilini o‘tkazishning asosiy mazmuni va amalga oshirish metodologiyasi turli manbalarda keng tarqalgan. Jumladan, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari va o‘quv adabiyotlarida o‘z aksini topgan.

SWOT tahlili strategik rejalashtirish usuli bo‘lib, tashkilotning ichki va tashqi muhitidagi omillarni aniqlash va ularni to‘rt toifaga bo‘lishdan iborat: Strengths (kuchli tomonlari), Weaknesses (zaif tomonlar), Opportunities (imkoniyatlar) va Threats (tahdidlar)¹⁴⁴.

Fikrimizcha, SWOT tahlilidan Xorazm viloyati baliqchilik sohasida KBXTning rivojlanishini kuchli va zaif tomonlarini, imkoniyatlari va tahdidlarini aniqlash vositasi sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, SWOT tahlili bizga baliqchilik sohasida KBXTning samarali yoki samarasiz ishlashining sabablarini aniqlash imkonini beradi, bu marketing ma‘lumotlarining ixcham tahlili bo‘lib, uning asosida tadbirkor o‘z faoliyatini qaysi yo‘nalishda rivojlantirishi kerakligi haqida xulosa chiqarishimiz va pirovardida segmentlar bo‘yicha olingan resurslarni aniqlashimiz mumkin.

Istiqbolda respublikaning barcha xududlarida, xususan, Xorazm viloyatida tegishli chora–tadbirlarni, baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirishning mitaqaviy dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatini e‘tiborga olib, quyidagi 2.3.7-jadvalda SWOT tahlili natijalarini keltiramiz.

2.3.7-jadvalda keltirilgan SWOT tahlili natijalariga ko‘ra, baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirishning kuchli tomonlari sifatida tabiiy-iqlimiy sharoitlarning mavjudligi, davlat dasturlari asosida imtiyozlar va shart-sharoitlar yaratilayotganligi, Intensivlashtirish hisobiga ishlab chiqarish hajmlarini oshirish imkoniyati mavjudligi, geografik joylashuvning qulayligi, is‘temolchilar uchun to‘lovni amalga oshirishning turli imkoniyat va variantlari mavjudligi va boshqalarni qayd etishimiz mumkin.

Baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirishning zaif tomonlari sifatida baliq yetishtirishning mavsumiyliги, baliq va baliq mahsulotlari yaroqlilik muddatining qisqaligi, ob-havo sharoitlari va uning maxsulot hosildorligi bilan bog‘liqligi, baliq va baliq mahsulotlari turlarining nisbatan kamligi va tor assortimentda yangi bozorlarni izlash zarurati mavjudligi, faoliyatning dastlabki bosqichlarida bozor raqobatiga ta’sirchanligi, sohani ilmiy jihatdan hududiy o‘rganilmaganligi, sohada omuxta yem va mineral o‘g‘itlar yetkazib berish tizimining kam rivojlanganligi, natijada yetkazib berishda tanlash darajasining deyarli yo‘qligi, milliy sifat tizimini takomillashtirilmaganligi, mahsulot sifatini ta‘minlashda sovuq

¹⁴³ Беглаев Учқун Хуррамович. Балиқчилик хўжаликларини барқарор ривожлантириш ва бошқариш механизмларини такомиллаштириш (Қашқадарё вилояти мисолида). АВТОРЕФЕРАТ. Тошкент 2021.

¹⁴⁴ Сафаров С. М. Основы социального предпринимательства. – Иваново: Издательство «Роща», 2014. – 295 стр.

moslamalari bilan ta'minlash darajasini deyarli yo'qligi kabi ko'rsatkichlarni aytish zarur.

2.3.7-jadval

Xorazm viloyati baliqchilik sohasida KBXT subyektlarining SWOT tahlili¹⁴⁵

Kuchli tomonlari (Strengths)	Zaif tomonlari (Weaknesses)
• Tabiiy-iqlimiy sharoitlarning mavjudligi • Rivojlanib borayotgan infratuzilmalarga yaqinligi • Yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish imkoniyati mavjudligi • Sohada keskin raqobatning yo'qligi • Baliqchilik sohasida katta tajribaning mavjudligi • Akvakulturaning yuqori ta'mli xususiyatlari mavjudligi • Davlat dasturlari asosida imtiyozlar va shart-sharoitlar yaratilayotganligi • Intensivlashtirish hisobiga ishlab chiqarish hajmlarini oshirish imkoniyati mavjudligi • O'zi hohlagan brend asosida mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati mavjudligi • Geografik joylashuvning qulayligi • Talabning taklifga nisbatan yuqoriligi • Iste'molchilar orasida baliq mahsulotlariga barqaror ehtiyojning mavjudligi • Is'temolchilar uchun to'lovni amalga oshirishning turli imkoniyat va variantlari mavjudligi	• Baliq yetishtirishning mavsumiyligi • Baliq va baliq mahsulotlari yaroqlilik muddatining qisqaligi • Ob-havo sharoitlari va uning maxsulot hosildorligi bilan bog'liqligi • Baliq va baliq mahsulotlari turlarining nisbatan kamligi sababli tor assortimentda yangi bozorlarni izlash zaruratini mavjudligi • Ishlab chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar • Faoliyatning dastlabki bosqichlarida bozor raqobatiga ta'sirchanligi • Investorlar jalb qilishda ezaga keladigan qiyinchiliklar • Sohani ilmiy jihatdan hududiy o'rganilmaganligi • Sohada omuxta yem va mineral o'g'itlar yetkazib berish tizimining kam rivojlanganligi, natijada yetkazib berishda tanlash darajasining deyarli yo'qligi sababli, narxlar balandligi • Milliy sifat tizimini takomillashtirilmaganligi • Mahsulot sifatini ta'minlashda sovutish moslamalari bilan ta'minlash darajasini pastligi • Sohada raqamlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilinish darajasining pastligi • Sohani bozor munosabatlariga moslashmaganligi • Moliyaviy jihatdan mablag' yetishmasligi • Hududda baliq bozori ko'rgazmalari (yarmarkalar) tashkil qilinmaganligi • Mutaxassislar va ixtiologlarning yetishmasligi • Aholi orasida baliq mahsulotlari xarid qobiliyatining pastligi • Import va eksport qilishda transport logistikasining rivojlanmaganligi • Naslchilik va urug'chilik xo'jaliklarining nisbatan kamligi • Baliq va baliq mahsulotlarini xom va pishirilgan sotuv xizmat ko'rsatish darajasining nisbatan pastligi • Kuchli brendning shakllanmaganligi

¹⁴⁵ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

	Baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlariga xizmat (servis) ko'rsatish darajasining pastligi
Imkoniyatlar (Opportunities)	Tahdidlar (Treats)
- Mahsulotlarni sotish uchun o'z savdo shaxobchalarini ochish imkoniyati mavjudligi. - Xom-ashyoga manbalariga yaqinligi. - Noyob va qimmatbaho baliq turlarini yetishtirishni tashkil etish. - Ishchi kuchini mavjudligi va nisbatan arzonligi. - Tabiiy resurslarning mavjudligi. - Imtiyozli kreditlar olish imkoniyati mavjudligi - Suv havzalari va tabiiy ko'llar mavjudligi - Aholi ovqatlanish ratsionida baliq mahsulotlari iste'molini ko'paytirish imkoniyati mavjudligi - Xorijiy tajribalarni qo'llash imkoniyati mavjudligi - Sohaga investitsiya kiritish imkoniyati mavjudligi - Yangi ishchi o'rinlari yaratish imkoniyati mavjudligi - Xorijiy va mintaqaviy baliqchilik xo'jaliklari bilan aloqani yo'lga qo'yish imkoniyatlari mavjudligi. - Davlat tomonidan sohaga imtiyoz va preferensiyalar berishda yengilliklar berilayotganligi - Respublika markazida va MDH davlatlarida kadrlar malakasini oshirish imkoniyati mavjudligi - Sholichilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklarida qo'shimcha soha sifatida baliqchilikni tashkil qilish imkoniyatlari mavjudligi	- Sohada g'irrom raqobatning mavjudligi. - Favqulodda vaziyatlar va tabiiy ofatlar yuzaga kelishi. - Kuchli raqobatchilarning paydo bo'lishi. - Faoliyatni dastlabki davrida sinib ketish xavfi. - Inflyatsiya darajasining yuqoriligi. - Davlat tomonidan sohaga tegishli me'yoriy xujjatlarning doimiy o'zgarib turishi. - Dunyoda beqaror siyosiy vaziyat mavjudligi. - Ekologik muammolar tufayli xom-ashyo bazasining kamayishi. - Omuxta yem va mineral o'g'itlar narxining oshishi, yetishtirish uchun subsidiyalar yo'qligi. - Baliq kasalliklari - Mahalliy byurokratik to'siqlarning mavjudligi - Ish xaqining yetishtirilgan baliq hajmiga bog'liqligi - Baliq yetishtirish mavsumiyligi hisobiga ishchi kuchini saqlab turish muammosi mavjudligi - Suv tanqisligi bilan bog'liq muammolar - Elektr energiyasi bilan bog'liq muammolar - Moliyaviy muammolar - Tabiiy monopolialarning mavjudligi - Transport-logistika tizimi mavjud muammolar - Malakali kadrlarning yetishmasligi, xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish tizimini takomillashtirilmaganligi - Yer ajratish va sotish, jumladan xususiyashtirib berishda ochiqlik tamoyillariga amal qilinmasligi, tadbirkorlarning yerga bo'lgan mulkiy huquqlarini kafolatlanmaganligi

Sohada KBXTni rivojlantirishning imkoniyatlari sifatida mahsulotlarni sotish uchun o'z savdo shaxobchalarini ochish, ishchi kuchini mavjudligi va nisbatan arzonligi, imtiyozli kreditlar olish, suv havzalari va tabiiy ko'llar mavjudligi, xorijiy tajribalarni qo'llash, sohaga investitsiya kiritish va yangi ishchi o'rinlari yaratish, xorijiy va mintaqaviy baliqchilik xo'jaliklari bilan aloqani yo'lga qo'yish, davlat tomonidan sohaga imtiyoz va preferensiyalar berishda yengilliklar berilayotganligi, respublika markazida va MDH davlatlarida kadrlar malakasini oshirish imkoniyatlari mavjudligi kabilarni ta'kidlashimiz mumkin.

Biz o'z navbatida KBXTni rivojlantirishga tahdid soluvchi jihatlar sifatida sohada g'irrom raqobatning mavjudligi, favqulodda vaziyatlar va tabiiy ofatlar yuzaga kelishi, kuchli raqobatchilarning paydo bo'lishi, faoliyatni dastlabki davrida sinib ketish xavfi, inflyatsiya darajasining yuqoriligi, davlat tomonidan sohaga tegishli me'yoriy xujjatlarning doimiy o'zgarib turishi, dunyoda beqaror


siyosiy vaziyat mavjudligi, ekologik muammolar tufayli xom-ashyo bazasining kamayishi, omuxta yem va mineral o'g'itlar narxining oshishi, yetishtirish uchun subsidiyalar yo'qligi, baliq kasalliklari, byurokratik to'siqlarning mavjudligi, ish xaqining yetishtirilgan baliq hajmiga bog'liqligi, baliq yetishtirish mavsumiyligi hisobiga ishchi kuchini saqlab turish muammosi mavjudligi, suv tanqisligi va elektr energiyasi bilan bog'liq muammolar kabi tahdidlarni ko'rsatib o'tishimiz zarur.

Bizga ma'lumki, baliqchilik sohasida KBXT faoliyati doimiy ravishda rivojlanib bormoqda. Buning isboti sifatida quyidagi raqamlarni keltirishimiz mumkin:

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra Respublika bo'yicha faoliyat yuritayotgan baliq ovlash va akvakultura yo'nalishidagi korxonalar soni 2016-yilda 4096 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 7024 taga yetgan. Shuningdek, Xorazm viloyatida ham 2010-yilda 182 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 807 taga yetib, 4,43 barovarga o'sish kuzatildi.

Xukumatimiz rahbariyati tomonidan keyingi yillarda baliqchilik sohasiga katta e'tibor berilayotgani, bu sohada olib borilayotgan islohotlarda o'z aksini topmoqda. Shunday bo'lsada, sohada e'tibor berilishi kerak bo'lgan muammolar mavjud. Bu o'z navbatida sohani malakali kadrlar bilan ta'minlash, xorijiy tajriba va texnologiyalarni sohaga kiritilishini yana takomillashtirishni taqozo etadi.

Fikrimizcha, tadqiqotlarimiz davomida o'tkazgan SWOT tahlili natijalari mintaqamizdagi barcha imkoniyatlarni ishga solib mavjud zaif tomonlar va tahdidlarni bartaraf etish, kuchli tomonlar hamda imkoniyatlarni to'liq ishga solish bo'yicha samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradi va shu asosida mintaqamizda baliqchilik sohasida KBXTning taraqqiy etishiga zamin yaratadi.



2.3.2-rasm. Baliq va baliq mahsulotlarini savdoga chiqarish tizimi¹⁴⁶

KBXT subyektlari O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlanishida hamda aholi bandligi muammosini hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Barcha tadbirkorlar uchun bir xil, teng imkoniyatlar beradigan sog'lom ishbilarmonlik muhiti KBXT o'sishining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi¹⁴⁷.

Yuqoridagi 2.3.2-rasmda baliq va baliq mahsulotlarini tarqatish va savdoga

¹⁴⁶ Ўзбекистон Республикасида Қорақалпоғистоннинг ҳудудий ривожланиш имкониятларини тадқиқот қилиш. Якуний ҳисобот қисқача мазмуни. Япония Халқаро Ҳамкорлик Агентлиги (ЈІСА), 2011 йил феврал.

¹⁴⁷ Салаев С.К. Кичик бизнес ривожланиш тенденцияларини моделлаштириш ва башоратлаш (Ўзбекистон республикаси мисолида): иқт.фан.док.дисс.-Т.:ТДИУ.2008-250 б.

chiqarish tizimi berilgan.

Baliqchilik sohasida KBXT ni rivojlantirish nafaqat aholini baliq va baliq mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, balki ish o'rinlarining yaratilishi natijasida aholini ish bilan ta'minlash hamda aholi daromadlarining o'sishida hamda davlatimiz ravnaqida eng muhim manbalardan biriga aylanishi lozim.

II-bob bo'yicha qisqacha xulosalar

Respublikamizda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil etish orqali bandlik muammosini hal etish, aholi farovonligi va daromadlarini oshirishda tobora muhim o'ringa ega KBXTni jadal rivojlantirish, ularni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamiz iqtisodiyotida o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil etish orqali aholini bandlik muammosini hal etib, daromadlarini oshirish va farovonligini ta'minlashda tobora muhim o'rin tutayotgan KBXTni jadal sur'atlarda rivojlantirish, ularni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, KBXTni ishonchli himoya qilinishini ta'minlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish borasida amalga oshirilayotgan kompleks chora – tadbirlar 2021-yil davomida 98,9 mingta yangi kichik tadbirkorlik subyektlarini (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) tashkil etish imkonini berdi. Natijada 2022-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni 462 834 ta (yangi tashkil qilingan 98 886) ni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 51631 taga ko'paygan. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 11,8 % tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasida baliqchilik sohasida faoliyat olib borayotgan baliq baliq ovlash va akvakultura yo'nalishidagi korxonalar soni 2016-yilga nisbatan 2021-yilda 1,7 baravarga ko'paygan. Baliq ovlash 2016-yildagi 65 322,1 tonnaga nisbatan 2021-yilda 175 427,2 tonnaga, ya'ni 2,7 baravarga o'sgan.

Fikrimizcha, bu ko'rsatkichlar, O'zbekiston Respublikasida baliqchilik soha-siga bo'lgan e'tibor va olib borilayotgan islohotlar natijasidir. Shunga qaramasdan sohada qilinishi lozim bo'lgan muammolar ham mavjud. Bu esa o'z navbatida O'zbekiston Respublikasi va uning hududlarida baliqchilik sohasida KBXT taraqqiyotining hozirgi holati tahlili va rivojlanish omillarini baholashni talab etadi. Biz dissertatsiyamizni 2 bob 1 va 2 rejalarida aynan O'zbekiston Respublikasi va uning hududlarida baliqchilik sohasida KBXT taraqqiyotining hozirgi holati tahlili va rivojlanish omillarini baholashni tadqiq qildik.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, amaliy va nazariy jihatdan statistik ma'lumotlar asosida KBXT rivojlanish barqarorligini baholash muhim qurol hisoblanadi.

Biz tadqiqotlarimiz davomida Xorazm viloyati baliqchilik kompleksi tabiiy resurslar salohiyati va rivojlanish istiqbollari ham o'rgandik. Jumladan, Xorazm viloyati Yangiariq tumanidagi "Xorazm baliq klaster" MCHJ baliqchilik xo'jaligi va "Ummon baliq" fermer xo'jaliklari (Qo'shko'pir tumani) klasterlari bilan tanishib, tajriba va yillik baliq yetishtirish ko'rsatkichlarini o'rgandik.

O'rganishlar davomida "Xorazm baliq klaster" MCHJ baliqchilik xo'jaligida baliq yetishtirish faqat an'anaviy usulda amalga oshirilib kelayotganligi, intensiv usullardan umuman foydalanilmay kelinganligi kuzatildi.

Fikrimizcha, "Xorazm baliq klaster" MCHJ baliqchilik xo'jaligida xorijiy tajribalar asosida intensiv usulda baliq yetishtirishni yo'lga qo'yib, baliq yetishtirish samaradorligi va rentabellikni oshishiga erishishimiz mumkin.

Viloyatimizda qishloq xo'jaligi tarmog'i va uning baliqchilik sohasini rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, sohada e'tibor berilishi kerak bo'lgan muammolar mavjud.

Fikrimizcha, Xorazm viloyatida mavjud imkoniyat va resurslardan oqilona foydalangan holda qishloq xo'jaligi tarmog'i va uning baliqchilik sohasini rivojlantirish orqali nafaqat viloyatimiz aholisini, balki qo'shni viloyatlar hamda qo'shni respublikalar aholisini ham qishloq xo'jaligi tarmog'i mahsulotlari, shuningdek baliq va baliq mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirib, aholi farovonligini ta'minlashga erishilardi. Shu sababli ham, aynan Xorazm viloyati qishloq xo'jaligi tarmog'ining baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollariga dissertatsiya ishimizning uchinchi bobida to'xtalib o'tamiz.

III BOB. XORAZM VILOYATI BALIQCHILIK TIZIMIDA KBXTNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI.

3.1-§. Xorazm viloyati baliqchilik tizimida KBXTning rivojlanishini sotsiologik so'rovlar asosida baholash natijalari.

Biz ilmiy tadqiqotlarimiz jarayonida baliqchilik sohasi KBXT subyektlari rahbarlari-respondentlar bilan baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan anketa so'rovnomalari o'tkazdik.

Anketa so'rovnomasida viloyatning 11 ta tuman va 2 ta shahar hududlaridagi baliqchilik sohasi KBXT subyektlaridan jami 427 nafar respondentlar qatnashdi. Respondentlar eng ko'p qatnashgan hudud Xiva tumani bo'lib jami 67 nafar va eng kam qatnashgan hudud Xonqa tumani bo'lib jami 19 nafar (24,4%) respondentlar qatnashdi. Baliqchilik xo'jaliklari soniga nisbatan oladigan bo'lsak eng ko'p respondentlar qatnashgan hudud Xiva shahri hisoblanadi, ya'ni 71,4 foizni tashkil qiladi.

Shuningdek, respondentlarning 41 nafarini ya'ni 9,6 foizini ayollar, 386 nafarini ya'ni 90,6 foizini erkaklar tashkil qildi. Anketa so'rovnomasida qatnashgan respondentlarning 118 nafarini (27,63 foizini) oliy ma'lumotlilar, 4 nafarini (0,94 foizini) tugallanmagan oliy ma'lumotlilar, 305 nafarini (71,43 foizini) o'rta-maxsus ma'lumotlilar tashkil qildi.

"Hozirgi sharoitda tadbirkorlikning qaysi turi eng daromadli deb hisoblaysiz: (Bir nechtasini tanlashingiz mumkin)" degan savolga baliqchilik xo'jaliklari respondentlarining 292 nafari yoki 68,38 foiz baliq yetishtirish va sotish, 211nafari yoki 49,41 foizi baliq va baliq mahsulotlari savdosi, 84 nafari yoki 19,67 foizi baliqchilik sohasida xizmat ko'rsatish, 85 nafari yoki 19,91 foizi baliq va baliq mahsulotlarini qayta ishlash, 26 nafari yoki 6,09 foizi urug'lar (baliq turlari bo'yicha) yetishtirish tadbirkorligi, 77 nafari yoki 18,03 foizi dekorativ baliqchilik tadbirkorligi, 71 nafari yoki 16,63 foizi Baliq importi va eksporti tadbirkorligi, 33 nafari yoki 7,73 foizi xududlardagi tirik va iste'molga tayyor baliq mahsulotlarini sotish bilan shug'ullanuvchi mobil (ko'chma) tadbirkorlik deb javob berishgan.

"Sizning fikringizcha hududda tadbirkorlikning qaysi turi rivojlangan" deb berilgan savolga respondentlar quyidagi 3.1.1-jadvaldagidek javob berishgan.

*"Baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirish bilan bog'liq muammolar mavjudmi? *Agar "Ha" bo'lsa qanday? (Bir nechtasini tanlashingiz mumkin)"* degan savolga respondentlarning 331 nafari yoki 77,5 foizi "Ha", 96 nafari yoki 22,5 foizi "Yo'q" deb javob berishgan. "Ha" degan respondentlarning 166 nafari "Moliyaviy muammolar", 163 nafari "Yer ajratish, sotish va xususiylashtirib berishda ochiqlik tamoyillariga amal qilinmasligi hamda tadbirkorlarning yerga bo'lgan mulkiy huquqlarini kafolatlanmaganligi" deb javob berishgan (3.1.2-jadvalga qarang).

3.1.1-jadval

Respondentlarning tadbirkorlikni rivojlangan deb hisoblagan faoliyat turlari¹⁴⁸

Javoblar mazmuni	Respondentlar	
	soni	foizi
Baliq yetishtirish	299	70,02
Baliq va baliq mahsulotlari savdosi	224	52,46
Baliqchilik sohasida xizmat ko'rsatish	94	22,01
Baliq va baliq mahsulotlarini qayta ishlash	48	11,24
Urug'lar (baliq turlari bo'yicha) yetishtirish tadbirkorligi	6	1,41
Dekorativ baliqchilik tadbirkorligi	13	3,04
Baliq importi va eksporti tadbirkorligi	21	4,92
Xududlardagi tirik va iste'molga tayyor baliq mahsulotlarini sotish bilan shug'ullanuvchi mobil (ko'chma) tadbirkorlik	37	8,67

3.1.2-jadval

“Baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirish bilan bog'liq muammolar”¹⁴⁹

Javoblar mazmuni	Respondentlar soni
Xaridorning kamligi	49
Narxlarning pastligi yoki yuqoriligi	75
Markazning uzoqligi	59
Baliqchilik sohasi uchun infratuzilmani yaxshi rivojlanmaganligi	74
Moliyaviy muammolar	166
Transport-logistika tizimi	94
Iqlim sharoitlari	65
Baliq yetishtirishning mavsumiyiligi	38
Baliq va baliq mahsulotlarini sotish va saqlashda sovitish moslamalari bilan ta'minlanganlik darajasining pastligi.	54
Malakali kadrlarning yetishmasligi, xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish tizimini takomillashtirilmaganligi	119
Yer ajratish, sotish va xususiy lashtirib berishda ochiqlik tamoyillariga amal qilinmasligi hamda tadbirkorlarning yerga bo'lgan mulkiy huquqlarini kafolatlanmaganligi	163
Baliq boqish uchun sharoitning yo'qligi	50
Baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlariga xizmat (servis) ko'rsatish darajasining pastligi	59
Tabiiy monopoliyalarning mavjudligi	149
Mahalliy byurokratik to'siqlar	95
Sohada tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlanmaganligi	15
Boshqa	7

“Sohani malakali kadrlar bilan yetarli darajada ta'minlangan deb hisoblaysizmi?” degan savolga respondentlarning 176 nafari yoki 41,2 foizi “Ha”, 251 nafari yoki 58,8 foizi “Yo'q” deb javob berishgan.

¹⁴⁸Sotsiologik anketa-so'rovnoma natijalari asosida muallif hisob-kitoblari

¹⁴⁹Sotsiologik anketa-so'rovnoma natijalari asosida muallif hisob-kitoblari


“Qishloq joylarida baliqchilik sohasining qaysi yo‘nalishlaridagi faoliyatlarni istiqbolli deb o‘ylaysiz? (Bir nechtasini tanlashingiz mumkin)” deb berilgan savolga respondentlar quyidagi 3.1.3-jadvaldagidek javob berishgan.

3.1.3-jadval

“Qishloq joylarida baliqchilik sohasining istiqbolli faoliyat yo‘nalishlari”¹⁵⁰

Javoblar mazmuni	Respondent-lar soni
Baliq va baliq mahsulotlarini yetishtirish	294
Baliq va baliq mahsulotlarini saqlash	176
Baliq va baliq mahsulotlarini qayta ishlash	113
Baliqchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlariga xizmat (servis) ko‘rsatish	31
Baliq va baliq mahsulotlarini eksport qilish	87
Baliq va baliq mahsulotlarini import qilish	50
Dekorativ baliqchilik tadbirkorligi	69
Baliq va baliq mahsulotlarini yetkazib berish (dostavka) xizmati bilan shug‘ullanish	27
Baliq va baliq mahsulotlari savdosi bilan shug‘ullanish	56
Umumovqatlanish joylarida baliq va baliq mahsulotlarini savdosini tashkil qilish	132
Urug‘lar (baliq turlari bo‘yicha) yetishtirish	21

“Xususan qaysi baliq turlarini yetishtirish siz uchun samarali deb o‘ylaysiz?” deb berilgan savolga respondentlar quyidagi 3.1.1-rasmdagidek javob berishgan.




3.1.1-rasm. Yetishtirish samarali hisoblangan baliq turlari¹⁵¹

¹⁵⁰Sotsiologik anketa-so‘rovnoma natijalari asosida muallif hisob-kitoblari


¹⁵¹ Sotsiologik anketa-so‘rovnoma natijalari asosida muallif ishlanmasi

“Fikringizcha baliq yetishtirishda qaysi texnologiya samarali? (Bir nechtasini tanlashingiz mumkin)” deb berilgan savolga respondentlar yuqoridagi 3.1.2-rasmdagidek javob berishgan.



3.1.2-rasm. Baliq yetishtirishda samarali hisoblangan texnologiya¹⁵²

“Qishloq joylarida baliqchilik tadbirkorligi bilan shug‘ullanishning qanday imkoniyat va afzalliklari mavjud? (Bir nechtasini tanlashingiz mumkin)” deb berilgan savolga respondentlar quyidagi 3.1.3-rasmdagidek javob berishgan.



3.1.3-rasm. Qishloq joylarida baliqchilik tadbirkorligi bilan shug‘ullanishning imkoniyat va afzalliklari¹⁵³

“Baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirish uchun davlat tomonidan yordam ko‘rsatilishi kerakmi? *Agar “Ha” bo‘lsa qanday? (Bir nechtasini tanlashingiz mumkin)” degan savolga respondentlarning 412 nafari yoki 96,5 foizi “Ha”, 15 nafari yoki 3,5 foizi “Yo‘q” deb javob berishgan. “Ha” degan respondentlar

¹⁵² Sotsiologik anketa-so‘rovnoma natijalari asosida muallif ishlanmasi

¹⁵³ Sotsiologik anketa-so‘rovnoma natijalari asosida muallif ishlanmasi

quyidagi 3.1.4-jadvaldagidek javob berishgan.

3.1.4-jadval

Davlat tomonidan baliqchilik sohasida KBXTni qo‘llab-quvvatlashga e‘tibor berish kerak bo‘lgan asosiy yo‘nalishlar¹⁵⁴

Davlat tomonidan beriladigan yordam yo‘nalishlari va turlari	Respondentlar soni
Imtiyozli kreditlar berish	332
Huquqiy asosni takomillashtirish	106
Tadbirkorlar uchun o‘quv-treninglar tashkil qilish	84
Bilim va tajribalarni tarqatish va omma e‘tiboriga yetkazish.	56
Xorijiy davlatlar bilan malaka almashishni tashkil qilish	103
Soliqlardan imtiyozlar berish mexanizmini takomillashtirish	174
Baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari eksport va bojxona imtiyozlarini kengaytirish	55
Xorijiy investitsiyalarni kiritish hamda zamonaviy texnika va texnologiyalarni keng jalb qilish	124
Baliqchilik sohasida yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo‘llab quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	89
Malakali kadrlar bilan ta‘minlash	156
Baliqchilik sohasida KBXT rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish	70
Boshqalar	1

“Baliqchilik sohasida KBXTni tashkil qilishda xamda faoliyatida nodavlat va notijorat tashkilotlar ahamiyati mavjudmi?” degan savolga respondentlarning 300 nafari yoki 70,3 foizi “Ha”, 127 nafari yoki 29,7 foizi “Yo‘q” deb javob berishgan. “Ha” degan respondentlar javoblari 3.1.5-jadvalda keltirilgan.

3.1.5-jadval


Baliqchilik sohasida KBXTni tashkil qilishda xamda faoliyatida nodavlat va notijorat tashkilotlar ahamiyati mavjud bo‘lgan asosiy yo‘nalishlar¹⁵⁵

Javoblar mazmuni	Respondentlar soni
Imtiyozli kredit olishga yordam berish	246
Huquqiy bilimlarni oshirish	115
Tadbirkorlar, xususan yoshlar va ayol tadbirkorlar uchun o‘quv-treninglar tashkil qilish	84
Soliq o‘zgarishlaridan xabardor bo‘lish va imtiyozlaridan foydalanishda ko‘maklashish	145
Baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari uchun eksport va bojxona imtiyozlarini kengaytirishda ko‘maklashish	64
Xorijiy investitsiyalarni kiritish hamda zamonaviy texnika va texnologiyalarni keng jalb qilishda ko‘maklashish	110
Aholida tadbirkorlik ko‘nikma va madaniyatini shakllantirish hamda ularga tavsiyalar berish maqsadida maxsus guruhlar tashkil qilishga ko‘maklashish	80
Baliqchilik sohasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘nalishlari va mexanizmlarini ishlab chiqishda ko‘maklashish	117
Tadbirkorlar uchun onlayn konsalting xizmatlarini tashkil etish	62
Boshqalar	0

¹⁵⁴ Sotsiologik anketa-so‘rovnoma natijalari asosida muallif hisob-kitoblari

¹⁵⁵ Sotsiologik anketa-so‘rovnoma natijalari asosida muallif hisob-kitoblari

“Sohani rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni zarur deb hisoblaysizmi? “Ha”-Nima uchun, “Yo‘q”-Nima uchun” degan savolga respondentlarning 352 nafari yoki 82,4 foizi “Ha”, 75 nafari yoki 17,6 foizi “Yo‘q” deb javob berishgan. “Ha”-deb javob bergan respondentlar sohani rivojlantirish, yangi ish urinlarini yaratish, xorijiy investitsiya mablag‘ va tajriba olib kelishi hamda baliq maxsulotlarini eksport qilish imkonini kengaytirishi, raqobatni kuchaytirish va yangi ish o‘rinlari yaratish, samarador elita zotlarni yetishtirish, ilg‘or davlatlar texnologiyasini joriy etilishi, sohada yangi loyihalarni amalga oshirish, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda ishlansa soha yanada rivojlanishi, oziq-ovqat xavfsizligi uchun zarur degan sabablarni keltirganlar. “Yo‘q”-deb javob bergan respondentlar esa ko‘p pul shart emas faqat mehnat qilish kerak, o‘zlarimizda mablag‘ va imkoniyat yetarli degan sabablarni keltirganlar.




3.1.4-rasm. Tayyor baliq va baliq mahsulotlarini tarqatish imkoniyatlari¹⁵⁶

“Tayyor baliq va baliq mahsulotlarini tarqatish imkoniyatlaringiz mavjudmi? *Agar “Ha” bo‘lsa qayerlarga? (Bir nechtasini tanlashingiz mumkin)” deb berilgan savolga respondentlarning 349 nafari yoki 81,7 foizi “Ha”, 78 nafari yoki 17,3 foizi “Yo‘q” deb javob berishgan. “Ha” degan respondentlar quyidagi 3.1.4-rasmdagidek javob berishgan.

“Tayyor baliq va baliq mahsulotlarini tarqatish uchun transport vositalaringiz mavjudmi?*Agar “Ha” bo‘lsa qaysilari?” deb berilgan savolga respondentlarning 296 nafari ya’ni 69,3 foizi “Ha”, 131 nafari ya’ni 30,7 foizi “Yo‘q” deb javob berishgan. “Ha” degan respondentlar javoblari 3.1.5-rasmda keltirilgan.


“Tayyor baliq va baliq mahsulotlarini sotish uchun o‘z savdo shaxobchalariningiz mavjudmi?” degan savolga respondentlarning 127 nafari yoki 29,7 foizi “Ha”, 300 nafari yoki 70,3 foizi “Yo‘q” deb javob berishgan.

¹⁵⁶ Sotsiologik anketa-so‘rovnoma natijalari asosida muallif ishlanmasi



3.1.5-rasm. Tayyor baliq va baliq mahsulotlarini tarqatish uchun mavjud transport vositalari¹⁵⁷

“Baliqchilik sohasida xorijiy davlat tajribalari bilan tanishganmisiz? *Agar “Ha” bo‘lsa qanday? (Bir nechtasini tanlashingiz mumkin)” deb berilgan savolga respondentlarning 366 nafari ya’ni 85,7 foizi “Ha”, 61 nafari ya’ni 14,3 foizi “Yo‘q” deb javob berishgan. “Ha” degan respondentlar yuqoridagi 3.1.6-rasmdagidek javob berishgan.



3.1.6-rasm. Baliqchilik sohasida xorijiy davlat tajribalari bilan tanishganlik bo‘yicha respondentlarning javoblari taqsimoti¹⁵⁸

“Baliqchilik sohasida xorijiy davlatlarning qaysi tajribalari (ilg‘or texnologiyalari)ni qo‘llashni tavsiya qilgan bo‘lardingiz?” degan savolga respondentlarning bergan javoblari quyidagi 3.1.6-jadvalda ko‘rsatilgan.

¹⁵⁷ Sotsiologik anketa-so‘rovnoma natijalari asosida muallif ishlanmasi

¹⁵⁸ Sotsiologik anketa-so‘rovnoma natijalari asosida muallif ishlanmasi

3.1.6-jadval

Respondentlarning tomonidan baliqchilik sohasida qo‘llash tavsiya qilingan xorijiy davlatlar tajribalari¹⁵⁹

Javoblar mazmuni	Respondentlar soni
Xitoy tajribasi asosida baliq yetishtirish, shuningdek uy sharoitida, kichik hajmdagi suv havzalarida baliq yetishtirish, baliqni qayta ishlash texnologiyalarini joriy qilish	133
Singapur texnologiyalari asosida	87
Vyetnam texnologiyalari asosida	63
Xorij texnikalari va baliqchilik bo‘yicha malakalarini qo‘llagan holda	46
Intensiv usulda baliq yetishtirish	44
Bilmayman	24
Innovatsion va zamonaviy intensiv texnologiyalar asosida baliq yetishtirish	17
Rossiya texnikalaridan foydalangan holda	7
Xorij texnologiyasi asosida sovuq suvda yashovchi baliqlarni iqlim sharoitimizga moslashtirish orkali baliq yetishtirish	6
Sholi + baliq usulida	6
Yaponiya	5
Yopiq tizimli va intensiv usulda kichik suv havzalarida baliq yetishtirish	5

“Baliqchilik sohasini mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rnini qanday baholaysiz?” degan savolga respondentlarning 29 nafari (6,8%) **“a’lo”**, 241 nafari (56,4%) **“yaxshi”**, 152 nafari (35,6%) **“qoniqarli”**, 3 nafari (0,7%) **“qoniqarsiz”**, 2 nafari (0,5%) **“bilmayman”** deb baho berishgan.

3.1.7-jadval

Baliq va baliq mahsulotlari tannarxini o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillar¹⁶⁰

Javoblar mazmuni	Respondentlar soni
Omuxta yem va mineral o‘g‘it (ammofos) ning narxini balandligi	275
Soliqlar yuqoriligi	137
Elektr energiyasi sarfi	132
Talab va taklifning nomutanosibligi	92
Sohada raqobatning yo‘qligi, monopoliyaning mavjudligi	74
Noqulay ob-havo sharoiti	73
Baliqchilik sohasida bank krediti uchun foiz stavkalari va inqiroz	57
Baliqchilik korxonasining geografik joylashuvi	56
Sohada kadrlar malakasini oshirish bilan bog‘liq xarajatlar	54
Reklama xarajatlari	49
Baliq turlarining kasallanishi	47
Mahsulotni sotish xarajatlari	46
Mehnatga haq to‘lash	42
Ishlab chiqarishning asosiy vositalarini ta’minlashga ketgan mablag‘lar	41
Yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilish	35
Ko‘zda tutilmagan xarajatlar	35
Qo‘shimcha qiymat solig‘i mavjudligi	34
Baliq va baliq mahsulotlari logistikasi bilan bog‘liq xarajatlar	26
Axborot-kommunikatsion texnologiyalar joriy qilish xarajatlari	23
Veterinariya va servis xizmatlari narxi yuqoriligi	18

¹⁵⁹ Sotsiologik anketa-so‘rovnoma natijalari asosida muallif hisob-kitoblari

¹⁶⁰ Sotsiologik anketa-so‘rovnoma natijalari asosida muallif hisob-kitoblari

“Baliq va baliq mahsulotlari tannarxini o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillar? (Bir nechtasini tanlashingiz mumkin)” degan savolga respondentlar 3.1.7-jadvalda ko‘rsatilganidek javob berishgan.

“Bugungi kunda baliqchilik sohasida KBXTni rivojlanish holatini qanday baholaysiz?” degan savolga respondentlarning 16 nafari (3,8%) **“a’lo”**, 243 nafari (56,9%) **“yaxshi”**, 162 nafari (37,9%) **“qoniqarli”**, 4 nafari (0,9%) **“qoniqarsiz”**, 2 nafari (0,5%) **“bilmayman”** deb baho berishgan.

“Agar sizda qo‘shimcha biznes bilan shug‘ullanish imkoniyati bo‘lganida baliqchilikning qanday biznes turi bilan shug‘ullangan bo‘lar edingiz?” degan savolga respondentlarning respondentlarining 143 nafari eksport qilish, 96 nafari qayta ishlash, 66 nafari savdo, 55 nafari dekorativ baliq savdosi, 23 nafari xizmat ko‘rsatish, 13 nafari tashish, 12 nafari saqlash, 8 nafari urug‘chilik tadbirkorligi, 4 nafari baliqchilik xo‘jaliklariga servis xizmatlari ko‘rsatish, 3 nafari baliqlarga veterinariya xizmati ko‘rsatish, 4 nafar boshqalar deb javob berishgan.

“Sizning fikringizcha viloyatdagi qaysi tuman baliq va baliq mahsulotlarini eksport qilish salohiyatiga ega?” degan savolga respondentlar eng ko‘p Xiva va Yangiariq tumanlari, eng kam Urganch tumani deb javob berishgan (3.1.8-jadval).

3.1.8-jadval

Viloyatdagi tuman va shaharlarining baliq va baliq mahsulotlarini eksport qilish salohiyati¹⁶¹


Shahar va tuman nomi	Respondentlar soni			Shahar va tuman nomi	Respondentlar soni	
	nafar	foiz			nafar	foiz
Urganch shahri	4	0,94		Xazorasp tumani	7	1,64
Urganch tumani	3	0,70		Tuproqqal’a tumani	5	1,17
Yangibozor tumani	7	1,64		Qo‘shko‘pir tumani	10	2,34
Gurlan tumani	13	3,04		Xiva tumani	150	35,13
Shovot tumani	71	16,63		Xiva shahri	7	1,64
Xonqa tumani	13	3,04		Yangiariq tumani	111	26,00
Bog‘ot tumani	26	6,09				

“Sohani rivojlantirishda raqamlashtirish va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni o‘rnini qanday baholaysiz?” degan savolga respondentlarning 18 nafari (4,5%) **“a’lo”**, 221 nafari (51,7%) **“yaxshi”**, 181 nafari (42,4%) **“qoniqarli”**, 5 nafari (1,2%) **“qoniqarsiz”**, 2 nafari (0,5%) **“bilmayman”** deb baho berishgan.

“Baliqchilik sohasini rivojlanishini oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda rolini qanday baholaysiz?” degan savolga respondentlarning 20 nafari (4,7%) **“a’lo”**, 225 nafari (52,7%) **“yaxshi”**, 177 nafari (41,4%) **“qoniqarli”**, 5 nafari (1,2%) **“qoniqarsiz”**, 0 nafari (0,0%) **“bilmayman”** deb baho berishgan.

Sizning fikringizcha viloyatdagi qaysi hudud baliqchilik sohasida turizmni rivojlantirish salohiyatiga ega? degan savolga respondentlar bergan javoblari 3.1.7-rasmda keltirilgan.

¹⁶¹ Sotsiologik anketa-so‘rovnoma natijalari asosida muallif hisob-kitoblari



3.1.7-rasm. Baliqchilik sohasida turizmni rivojlantirish salohiyatiga ega hududlarning respondentlar tomonidan baholanishi¹⁶²

“Baliqchilik xo‘jaliklariga omuxta yem va mineral o‘g‘it (ammofos) yetkazib berish holatini qanday baholaysiz?” degan savolga respondentlarning 7 nafari (1,64%) **“a‘lo”**, 215 nafari (50,35%) **“yaxshi”**, 191 nafari (44,73%) **“qoniqarli”**, 11 nafari (2,58%) **“qoniqarsiz”**, 3 nafari (0,7%) **“bilmayman”** deb baho berishgan.

“Sohani rivojlantirishda baliq ovlash uchun kvota belgilashni zarur deb hisoblaysizmi?” degan savolga respondentlarning 195 nafari ya‘ni 45,7 foizi **“Ha”**, 232 nafari ya‘ni 54,3 foizi **“Yo‘q”** deb javob berishgan.

“Baliqchilik sohasida KBXTning rivojlanishiga infratuzilmaning ta‘sirini qanday baholaysiz?” degan savolga respondentlarning 7 nafari (1,6%) **“yuqori”**, 179 nafari (42,0%) **“yaxshi”**, 228 nafari (53,4%) **“o‘rtacha”**, 6 nafari (1,6%) **“past”**, 7 nafari (1,6%) **“bilmayman”** deb baho berishgan.

“Baliqchilik sohasida KBXT huquqiy himoyasini tashkil qilish holatini qanday baholaysiz?” degan savolga respondentlarning 3 nafari (0,7%) **“yuqori”**, 172 nafari (40,3%) **“yaxshi”**, 232 nafari (54,3%) **“o‘rtacha”**, 12 nafari (2,8%) **“past”**, 8 nafari (1,9%) **“bilmayman”** deb baho berishgan.

“Baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirish uchun nima qilish lozim? (Bir nechtasini tanlashingiz mumkin)” degan savolga respondentlar bergan javoblari 3.1.9-jadvalda keltirilgan.

“Baliqchilik sohasida transport logistikasi holatining KBXT rivojiga ta‘siri qanday?” degan savolga respondentlarning 5 nafari (1,2%) **“yuqori”**, 159 nafari (37,2%) **“yaxshi”**, 248 nafari (58,1%) **“o‘rtacha”**, 7 nafari (1,6%) **“past”**, 8 nafari (1,9%) **“bilmayman”** deb baho berishgan.

¹⁶² Sotsiologik anketa-so‘rovnoma natijalari asosida muallif ishlanmasi

3.1.9-jadval

Baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirish uchun qilinishi lozim bo'lgan ishlar¹⁶³

Javoblar mazmuni	Respondentlar soni
Aholini iqtisodiy va tadbirkorlik bo'yicha bilimlarini oshirish	180
Milliy sifat tizimini takomillashtirish	144
Xalqaro bozorlarda tan olingan sifat standartlarini joriy etishga ko'maklashish mexanizmlarini ishlab chiqish	88
Respublikaning eksport bozorida mavqeini mustahkamlash va kengaytirish, yangi eksport bozorlarini egallash.	81
Baliqchilik sohasida KBXT ning eksportdagi ishtirokini rag'batlantirish, buning uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.	54
Sohada mahsulot sifatini ta'minlash maqsadida sovetlash moslamalari bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish.	74
Soha va sohaning hududlar eksport salohiyatidan samarali foydalanishni ko'zda tutadigan, o'zaro muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va izchil amalga oshirish.	57
Baliqchilik sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish	61
Rejali baliq tutish orqali baliqchilik sohasini rivojlantirish.	90
Baliqchilik sohasini bozor munosabatlariga moslashtirib borish, bozor talablariga qarab takomillashtirish, barqarorlikni ta'minlash, bozorlardagi talab va takliflarni o'rganish.	76
Baliqchilik sohasini moliyaviy tizimini yaxshilash. Imtiyozli kreditlar, subsidiyalar ajratish orqali. Buning uchun tijorat banklari bilan hamkorlikni kuchaytirish kerak.	158
Urug'lar (baliq turlari bo'yicha) ishlab chiqarishni jonlantirish va kichik biznes (fermer) xo'jaliklariga urug' yetkazib berish tizimi samaradorligini takomillashtirish. Qimmatli baliq turlari va chavoqlarini intensiv yetishtirish uchun pitomnik va naslchilik ishlarini davlat-xususiy sheriklik shartlarida takomillashtirish.	121
Qishloq xo'jalik baliqchilik sohasini ilmiy asosda shakllantirish tizimini davr talabiga javob bera oladigan yangicha huquqiy shakllariga o'tishni ta'minlash	91
O'zbekiston Respublikasining Qonuni bilan Baliqchilar kunini belgilash.	84

Baliqchilik sohasini maxsus texnika va jihozlar bilan ta'minlanish holatini qanday baholaysiz? degan savolga respondentlarning 7 nafari (1,6%) **“yuqori”**, 148 nafari (34,7%) **“yaxshi”**, 253 nafari (59,2%) **“o'rtacha”**, 17 nafari (4,0%) **“past”**, 2 nafari (0,5%) **“bilmayman”** deb baho berishgan.


“Baliqchilik sohasida KBXT rivojiga reklama va axborot xizmatlari ta'siri qanday?” degan savolga respondentlarning 13 nafari (3,1%) **“yuqori”**, 161 nafari (37,7%) **“yaxshi”**, 237 nafari (55,5%) **“o'rtacha”**, 10 nafari (2,3%) **“past”**, 6 nafari (1,4%) **“bilmayman”** deb baho berishgan.

“Baliqchilik sohasida KBXT rivoji qishloq xo'jalik mahsulotlari eksportiga ta'sir qiladimi?” degan savolga respondentlarning 298 nafari ya'ni 69,8 foizi **“Ha”**, 129 nafari ya'ni 30,2 foizi **“Yo'q”** deb javob berishgan.

¹⁶³ Sotsiologik anketa-so'rovnoma natijalari asosida muallif hisob-kitoblari

“Baliqchilik sohasida KBXT rivoji qishloq xo‘jalik mahsulotlari importiga ta’sir qiladimi?” degan savolga respondentlarning 285 nafari ya’ni 66,7 foizi “Ha”, 142 nafari ya’ni 33,3 foizi “Yo‘q” deb javob berishgan.

“Xududlarda baliqchilik tadbirkorligini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan davlat dasturlarini samaradorligini qanday baholaysiz?” degan savolga respondentlar quyidagi rasmdagidek baho berishgan (3.1.8-rasm).



3.1.8-rasm. Xududlarda baliqchilik tadbirkorligini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan davlat dasturlarini samaradorligini respondentlar tomonidan baholanishi¹⁶⁴

“Baliqchilik sohasi davlat dasturlari doirasidagi imkoniyatlardan shaxsan foydalanganmisiz? *Agar “Ha” bo‘lsa qaysilaridan? (Bir nechtasini tanlashingiz mumkin)” deb berilgan savolga respondentlarning 289 nafari ya’ni 67,7 foizi “Ha”, 138 nafari ya’ni 32,3 foizi “Yo‘q” deb javob berishgan. “Ha” degan respondentlar javoblari 3.1.10-jadvalda keltirilgan.

3.1.10-jadval


Respondentlarning baliqchilik sohasi davlat dasturlari doirasidagi imkoniyatlardan foydalanganlik holati¹⁶⁵

Javoblar mazmuni	Respondentlar soni
O‘zbekiston Respublikasi (O‘zR.) Prezidentining 2017-yil 1-maydagi PQ-2939-son “Baliqchilik tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori	68
O‘zR. Vazirlar Mahkamasi (VM)ning 2017-yil 7-avgustdagi 593-son “Tabiiy suv havza uchastkalarini baliq ovlash xo‘jaliklariga ijaraga berish va Baliqchilikni rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori	36
O‘zR. VMning 2017-yil 13-sentyabrdagi 719-son “Baliqchilik tarmog‘ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori	23
O‘zR. VM ning 2017-yil 18-oktyabrdagi 845-son “Chorvachilik va baliqchilik tarmoqlarining ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori	8
O‘zR. Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagi PQ-3505-son “2018-yilda baliq mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori	11

¹⁶⁴ Sotsiologik anketa-so‘rovnoma natijalari asosida muallif ishlanmasi

¹⁶⁵ Sotsiologik anketa-so‘rovnoma natijalari asosida muallif hisob-kitoblari

O‘zR. Prezidentining 2018-yil 6-apreldagi PQ-3657-sonli “Baliqchilik tarmog‘ini jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori	6
O‘zR. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-iyuldagi 606-son “Baliqchilik sohasidagi ilmiy faoliyatni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori	5
O‘zR. Prezidentining 2018-yil 6-noyabrdagi PQ-4005-sonli “Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori	33
O‘zR. Prezidentining 2020-yil 19-martdagi “Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta‘sirini yumshatish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5969-sonli farmoni.	5
O‘zR. Prezidentining 2020-yil 3-apreldagi PF-5978-sonli “Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni	3
O‘zR. Prezidentining 2020-yil 27-apreldagi “Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5986-sonli Farmoni	1
O‘zR. Prezidentining 2020-yil 22-apreldagi “Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, byudjet, bazaviy infratuzilma va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash uchun tashqi yordam mablag‘larini jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4691- sonli qarori	3
O‘zR. Prezidentining 2020-yil 18-maydagi “Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5996 sonli Farmoni.	3
O‘zR. VMning 2020-yil 12-maydagi 280-son “CHorvachilik tarmog‘iga davlat tomonidan subsidiya ajratishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori	5
O‘zR. Prezidentining 2020-yil 29-avgustdagi PQ-4816-son “Baliqchilik tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori	46
O‘zR. VMning 2021-yil 12-iyuldagi 434-son “Chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik xo‘jaliklariga ular tomonidan yetishtirilgan va sotilgan mahsulotlar uchun subsidiya ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi qarori	13
O‘zR. Prezidentining 2022-yil 13-yanvardagi “Baliqchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-83-son qarori	132
O‘zR. Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni.	11



3.1.9-rasm. Baliqchilik sohasida fan-texnika taraqqiyoti, uning yo‘nalishlari va innovatsion texnologiyalar o‘rnini respondentlar tomonidan baholanishi¹⁶⁶

¹⁶⁶ Sotsiologik anketa-so‘rovnoma natijalari asosida muallif ishlanmasi

“Baliqchilik sohasida Fan-texnika taraqqiyoti, uning yo‘nalishlari va innovatsion texnologiyalar o‘rnini qanday baholaysiz?” degan savolga respondentlar quyidagi rasmdagidek baho berishgan (3.1.9-rasm)

“Sizni davlat organlarining baliqchilik sohasida tadbirkorlik subyektlari huquq va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha faoliyati qoniqtiradimi?” degan savolga respondentlarning 86 nafari (20,1%) **“Ha”**, 31 nafari (7,3%) **“Yo‘q”**, 269 nafari (63,0%) **“Qisman”**, 41 nafari (9,6%) **“Javob berishga qiynalaman”** deb javob berishgan.

“Sizni baliqchilik sohasida tadbirkorlik subyektlari huquq va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha amaldagi qonunchilik qoniqtiradimi?” degan savolga respondentlarning 98 nafari (22,9%) **“Ha”**, 20 nafari (4,7%) **“Yo‘q”**, 274 nafari (64,2%) **“Qisman”**, 35 nafari (8,2%) **“Javob berishga qiynalaman”** deb javob berishgan.

“Baliqchilik sohasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda qaysi jarayonlarda korrupsion omillar mavjud? (Bir nechtasini tanlashingiz mumkin)” deb berilgan savolga respondentlar 3.1.11-jadvalda keltirilgandek javob berishgan.

3.1.11-jadval

Baliqchilik sohasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda korrupsion omillar mavjudligi haqida ma’lumot¹⁶⁷

Javoblar mazmuni	Respondentlar soni
Davlat ro‘yxatidan o‘tishda	30
Litsenziya va boshqa ruxsatnomalar olishda	104
Kredit va subsidiya olish, boshqa bank xizmatlarida	208
Hisobotlar topshirishda	85
Tekshiruvlar o‘tkazish jarayonida	105
O‘z fikringiz (yozib ko‘rsating)	169
Shundan:	
Korrupsion omillar mavjud emas.	163
Bilmayman	3
Javob berishga qiynalaman	2
Qisman	1

“Siz baliqchilik sohasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda korrupsion holatga duch kelganmisiz?” degan savolga respondentlarning 24 nafari (5,6%) **“Ha”**, 239 nafari (56,0%) **“Yo‘q”**, 164 (38,4%) **“Javob berishga qiynalaman”** deb javob berishgan.


“Sohada baliqchilik klasteri tashkil etilishi va shakllanishini zarur deb hisoblaysizmi?” degan savolga respondentlarning 383 nafari (89,3%) **“Ha”**, 44 nafari (10,3%) **“Yo‘q”** deb javob berishgan.

“Baliqchilik sohasi rivojlanishiga sohada raqobatning kuchayishi ta’sir qiladimi?” degan savolga respondentlarning 413 nafari (96,7%) **“Ha”**, 14 nafari (3,3%) **“Yo‘q”** deb javob berishgan.

“Baliqchilik sohasida raqobatni kuchaytirish uchun qaysi turlarni birinchi navbatda rivojlantirish zarur deb o‘ylaysiz?” degan savolga respondentlar

¹⁶⁷ Sotsiologik anketa-so‘rovnoma natijalari asosida muallif hisob-kitoblari

10-rasmda keltirilgandek javob berishgan.



10-rasm. Baliqchilik sohasida raqobatni kuchaytirish uchun qaysi turlarni birinchi navbatda rivojlantirish zarurligini respondentlar tomonidan baholanishi¹⁶⁸

*Sohada turizmni rivojlantirish imkoniyatlaringiz mavjudmi? *Agar “Ha” bo‘lsa qaysilari? (Bir nechtasini tanlashingiz mumkin)”* deb berilgan savolga respondentlarning 290 nafari ya’ni 67,7 foizi “Ha”, 137 nafari ya’ni 32,3 foizi “Yo‘q” deb javob berishgan. “Ha” degan respondentlar quyidagi 3.1.12-jadvaldagidek javob berishgan.

3.1.12-jadval

Respondentlarning sohada turizmni rivojlantirish imkoniyatlari haqida ma’lumot¹⁶⁹


Mavjud imkoniyat turi	Respondentlar soni
Ekoturizm	176
Ov turizmi	97
Ekstremal turizm	87
Turistlarni ovqatlantirish	202
Qayiqalar mavjud	10
Skuterlar mavjud	8
Dam olish uchun sharoitlar mavjud	166

“Sizda turizmni rivojlantirish uchun infratuzilma (turistlar uchun yo‘llar) mavjudmi?” deb berilgan savolga respondentlarning 273 nafari ya’ni 64,0 foizi “Ha”, 154 nafari ya’ni 36,0 foizi “Yo‘q” deb javob berishgan.

“Sohada turizm shakllarini rivojlantirish istiqbollarini qanday baholaysiz?” degan savolga respondentlar javobi quyidagi 3.1.11-rasmda keltirilgan.

¹⁶⁸ Sotsiologik anketa-so‘rovnoma natijalari asosida muallif ishlanmasi

¹⁶⁹ Sotsiologik anketa-so‘rovnoma natijalari asosida muallif hisob-kitoblari



3.1.11-rasm. Baliqchilik sohasida turizm shakllarini rivojlantirish istiqbollari respondentlar tomonidan baholanishi¹⁷⁰

“Baliqchilik sohasida KBXT ni rivojlantirish uchun qulay tashkiliy -huquqiy shakl qaysi deb hisoblaysiz?” deb berilgan savolga respondentlar eng ko‘pi ya’ni 148 nafari “Baliqchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaligi negizida” javob berishgan (3.1.13-jadvalga qarang).

3.1.13-jadval
Baliqchilik sohasida KBXT ni rivojlantirish uchun qulay tashkiliy -huquqiy shakllar¹⁷¹

Javoblar mazmuni	Respondentlar soni	
	nafar	foiz
Baliqchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaligi negizida	148	34,7
Baliqchilikka ixtisoslashgan dehqon xo‘jaligi negizida	25	5,8
Baliqchilikka ixtisoslashgan mas’uliyati cheklangan jamiyat negizida	76	17,8
Baliqchilikka ixtisoslashgan oilaviy korxona negizida	30	7
Baliqchilikka ixtisoslashgan xususiy korxona negizida	14	3,3
Baliqchilikka ixtisoslashgan kup tarmoqli fermer xo‘jaligi negizida	41	9,6
Baliqchilikka ixtisoslashgan ishlab chiqarish kooperativi negizida	2	0,5
Baliqchilikka ixtisoslashgan davlat-xususiy sheriklik asosidagi tadbirkorlik negizida	91	21,3

“Qishloq xo‘jalik baliqchilik sohasida KBXTni rivojlanishi bo‘yicha tavsiya va takliflar” degan savolga aksariyat respondentlar ko‘proq imtiyozli kredit ajratish va ularni muddatini uzaytirish, qisqa muddatli baliqchilikka oid kurslar tashkil qilish, soliqlarda imtiyozlar yaratish, ta’lim muassasalarida baliqchilik fakulteti va yo‘nalishlarini ochish, malakali kadrlar bilan ta’minlash, soliqlarni kamaytirish, xodimlarni o‘qitish va malakasini oshirishga etiborni kuchaytirish zarurligi, subsidiyalarni ajratish, omuxta yem, mineral o‘g‘it, yoqilg‘i-moylash materiallarini imtiyoz bilan berilishini tashkil etish, baliq va baliq maxsulotlarini importi hamda eksportini rivojlantirish zarurligi, xorijlik mutaxassislar bilan xamkorlikni kuchaytirish, ular ishtirokida o‘quv seminarlarni tashkil qilish, xorijiy investorlarni jalb qilish, xorij tajribalari asosida intensiv usulda baliq etishtirishni

¹⁷⁰ Sotsiologik anketa-so‘rovnoma natijalari asosida muallif ishlanmasi

¹⁷¹ Sotsiologik anketa-so‘rovnoma natijalari asosida muallif hisob-kitoblari

yo'lga qo'yish va h.k. deb javob berishgan. Shu bilan birga bir qator muammolarni, ya'ni suv tanqisligi bilan bog'liq bo'lgan, elektr energiyasi ta'minotida yuzaga keladigan, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlanmaganligi, bahor oylarida chavoq baliqlar yetmay qolishi, davlat aralashuvining mavjudligi, transport logistikasida, infratuzilmada mavjud bo'lgan muammolar bildirishgan. Shuningdek, tirik baliqlarni arzon narxda sotilishi, agar imkon bo'lganda o'zlari mahallalarda kichik tadbirlik savdo shaxobchalarini tashkil qilib, aholini tirik va pishirilgan baliq hamda baliq mahsulotlari bilan ta'minlashlarida amaliy yordam so'rashgan.

Sotsiologik anketa-so'rovnoma natijalariga ko'ra aytish mumkinki, baliqchilik sohasida an'anaviy tarzda baliq yetishtirishni daromadli deb hisoblashmoqda. Sohada xorij texnologiyalari asosida intensiv usulda baliq yetishtirishning to'laqonli yo'lga qo'yilmaganligi, malakali kadrlar bilan yetarlicha ta'minlanmaganligi achinarli holdir.

Tadqiqotlarimizda olib borayotgan tahlillarimizga ko'ra, baliqchilik sohasida amalga oshirilayotgan davlat dasturlari bilan soha mutaxassislari yetarlicha ma'lumotga ega emas. Baliqchilik sohasida haligacha yer bilan bog'liq, suv resurslari tanqisligi, korrupsiya, byurokratik to'siqlar kabi muammolar mavjud.

Bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan baliqchilik sohasi KBXTga katta e'tibor berilayotgani, baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qaror va farmonlar mazmun mohiyatini aholisi o'rtasida keng targ'ib qilish lozim.

Baliqchilik sohasida KBXT ni rivojlantirishda soha xodimlarini, qolaversa aholining baliqchilik bo'yicha malaka va ko'nikmalarini oshirish, qisqa muddatli kurslarni tashkil qilish, xorijiy tajribalarni ommalashtirish, aholini arzon narxda tirik baliq va baliq mahsulotlari bilan ta'minlash, buning uchun viloyatimiz tuman va shaharlarining har bir mahallalarida kichik tadbirlik savdo shaxobchalarini tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Sohada turizmni rivojlantirish, ekoturizm, ov turizmi, ekstremal turizm kabi istiqbolli sohalarni rivojlantirish uchun baliqchilik xo'jaliklarini o'ziga xos turistik resurslari va salohiyatidan kelib chiqqan holda qayiqlar, skuterlar bilan ta'minlash, turistlarni dam olishlari va ovqatlantirish uchun sharoitlar yaratib berish lozim.

3.2-§. Baliqchilik tizimida KBXTni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish va samaradorligini oshirish.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni yangi, yanada yuksak bosqichga ko'tarishda KBXTning o'рни va roli benihoya kattadir. Dunyoda iqtisodiyotni rivojlantirishning sinalgan usullari orasida eng samaralisi va maqbuli, kichik biznes ravnaqi uchun uchun keng yo'l ochib berish hisoblanadi. Kichik biznes sohasining iqtisodiyotdagi ahamiyati uning iqtisodiyotda raqobat muhitini ta'minlash, yirik korxonalar uchun mahsulot va xizmatlar yetkazib berish, yangi ish o'rinlarini yaratish va ikkilamchi bandlikni ta'minlash, bozor tizimining moslashuvchanligini oshirish, ilmiy-texnikaviy inqilobni faollashtirish, resurslarni ishlab chiqarishga safarbar etish, soliq tushumlari hajmini o'sishini ta'minlash, aholi daromadlari va farovonligi darajasini barqarorlashtirish kabi muhim omillar

bilan belgilanadi¹⁷².

Mamlakatimiz aholisini xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, shu bilan birga baliq va baliq mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'laqonli qondirishda kichik biznesning ahamiyati nihoyatda kattadir. Oziq-ovqat xavfsizligi mamlakatimiz rivojlanishining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanib, demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik omillarga bog'liq.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga ta'sir etuvchi asosiy omillarga - dunyo aholisining yildan-yilga o'sib borishi, suv, yer va energiya resurslariga bo'lgan ehtiyoj va talabning ortib borishi, shu bilan birga iqlimning keskin o'zgarishi kabi omillar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 20-dekabr kuni oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, bu boradagi ishlarning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida baliqchilik sohasini rivojlantirish va kooperatsiya asosida baliq yetishtirish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazgan yig'ilishida aytganlaridek, - *Dunyoda oziq-ovqat narxlarining o'sishi, inflyatsiya xavf-xatarlari kelgusi yilda oziq-ovqat xavfsizligi eng dolzarb masala bo'lib qolishini yaqqol ko'rsatmoqda. Shu bois, viloyat hokimlari o'z hududida baliq yetishtirish holatini tahlil qilib, tadbirkorlar va aholi xonadonlariga barcha sharoitlarni yaratib berish bo'yicha tizimli shug'ullanishi zarur*¹⁷³.

Baliqchilik sohasining eng muhim vazifasi – mamlakatimiz aholisini baliq va baliq mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'laqonli qondirish bilan birga baliq va baliq mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini zarur bo'lgan baliq xom-ashyo bilan ta'minlash hisoblanadi.

Biz olib borgan tadqiqotlarimizda baliqchilik sohasida KBXT ni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini taklif etdik (3.2.1-rasm).

3.2.1-rasmda ko'rsatilganidek, baliqchilik sohasida KBXTni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmi o'z ichiga 5 ta yo'nalishni oladi: 1. Moliyalashtirish va kreditlash; 2. Sug'urta; 3. Subsiyadilash; 4. Qishloq xo'jaligi eksport salohiyatini rag'batlantirish tizimi: soliq, nosoliq, bojxona, va boshqa. 5. Baliqchilik tarmog'i investitsiya hajmi.

Moliyalashtirish va kreditlashtirish hisobiga baliqchilik xo'jaliklari tabiiy va sun'iy suv havzalarida, yopiq aylanma suv qurilmalarida, suv omborlarida qafas (sadoq) moslamalarida baliq yetishtirish hajmlarini ko'paytirish, inkubatsiya sexlarini qurish va modernizatsiya qilish, baliq yetishtirishning texnologik jarayonlarini intensivlashtirish, noyob va yo'qolib borayotgan baliq turlari bo'yicha lichinka ishlab chiqarishni ko'paytirish, sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish, ilg'or xorijiy texnologiyalarni joriy etish, kadrlar tayyorlash bilan ta'minlash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi ish o'rinlari yaratish va boshqa imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

¹⁷²Ражанов Х.Б. Баликчилик соҳасини ривожлантиришда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлиқнинг ўрни Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал. - №2(86), Хоразм Маъмун академияси, 2022й. - 574 б.

¹⁷³ <https://xs.uz/uzkr/post/oziq-ovqat-khavfsizligini-taminlash-ishlarini-kuchajtirish-baliqchilik-tarmogini-qollab-quvvatlashni-kengajtirishga-korsatma-berildi>.



3.2.1 – rasm. Baliqchilik sohasida KBXT ni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi¹⁷⁴.

Baliqchilik tarmog‘i investitsiya hajmi – sohani rivojlantirishga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali ta‘minlanadi.

Me‘yoriy–huquqiy tartibga solish KBXT subyektlarini tashkiliy-huquqiy asoslarini bunyod etish va uni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali KBXT subyektlari uchun turli imtiyoz va qulayliklar beriladi, imtiyozli kreditlash tizimi soddalashtiriladi.

Ovlash turi va joyi bo‘yicha, suv havzalariga olib boradigan yo‘llar bo‘yicha vaqtincha cheklovlar o‘rnatish baliq turlarini saqlab qolish, baliqlarni ko‘payishini, sohani rivojlanishini ta‘minlaydi.

Baliqchilik sohasini klasterlash orqali raqobatbardoshlik darajasini oshirish uchun sharoitlar yaratiladi.


Sohani rivojlantirish uchun bugungi kunda mamlakatimizda baliqchilik klasterlarini tashkil etish va rivojlantirish asosiy maqsad qilib belgilangan. Klasterning asosiy maqsadi ilg‘or innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda yuqori sifatli baliq ishlab chiqarishni tashkil etish bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardoshligini oshirishdan iborat¹⁷⁵.

Klasterlarni shakllantirishdan maqsad – viloyat, tuman va shahar ichida joylashgan bir xil soha koxonalarini va ular bilan yagona texnologik zanjirda bo‘lgan standartlashtirish, sertifikatlashtirish, ta‘lim, ilmiy, konsalting, injiniring va boshqa xizmatlarni uyg‘unlashtirish - innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish asosida raqobatbardosh tovarlar yaratishga yo‘naltirishdan iboratdir. Bunda aholini ish bilan ta‘minlashdek muhim jihat ham o‘zini namoyon etadi.

¹⁷⁴ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

¹⁷⁵ Р.Х.Эргашев, У.Х.Беглаев. Мамлакатимизда балиқчилик кластерларини ташкил этиш ва ривожлантириш.// Қишлоқ хўжалигида кластер тизимини ривожлантириш: тажрибалар, натижалар ва истиқболли йўналишлар. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. 2019 йил 24 май: - Бухоро: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona нашриёти, 2019.-65-68 бетлар.

Baliqchilik xo‘jaliklari kooperatsiyasi baliqchilik sohasida KBXT istiqbol va samaradorlik rivojini belgilaydi.



3.2.2 – rasm. Baliqchilik sohasida KBXT subyektlari faoliyati samaradorligi omillari¹⁷⁶.

3.2.2 – rasmda baliqchilik sohasida KBXT subyektlari faoliyati samaradorligiga ta‘sir qiluvchi ichki va tashqi omillarini ko‘rsatdik. Ichki omillarda - strategik mahsulotlar, ishlab chiqarishni tashkil etish, texnologiyalar, xodimlar, asosiy fondlar, resurslar, maxsulot sifati kabilarni ko‘rsatib o‘tdik. Tashqi omillarga esa - bozor turi, soha konsentratsiyasi, inflyatsiya, resurslar baholari, hududiy shart-sharoitlar, tabiiy-iqlimiy sharoitlar, raqobatchilar harakati, infrastruktura kiradi.

Ichki omillar joriy va kapital xarajatlarda namoyon bo‘ladi. Tashqi omillar esa iste‘mol talabi hamda baliqchilik sohasi mahsulot turlari (sudak, karp, sazan, laqqa, afrika laqqasi, osyotr, oq do‘ngpeshona (moy bosh), chipor do‘ngpeshona (pyostri), daryo foreli, bakra balig‘i, oq amur (tolstobik) va boshqa baliq turlari) bo‘yicha baholari kabilarda namoyon bo‘ladi.

O‘tkazgan tadqiqotlarimizda baliqchilik sohasida baliqchilik xo‘jaliklari faoliyat ko‘rsatishining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib chiqdik (3.2.3-rasm).


O‘rganish jarayonida baliqchilik sohasida baliqchilik xo‘jaliklari (B/X) faoliyat ko‘rsatishini baholash mezonlarini to‘rtga bo‘lib tadqiq qildik. Jumladan, baliq yetishtirish, moliyaviy-iqtisodiy, boshqaruv, geografik-hududiy nuqtayi nazarlaridan kelib chiqib tadqiq qilishimiz mumkin. Baliqchilik xo‘jaliklari baliq

¹⁷⁶ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

yetishtirishning bevosita tabiatga bog‘liqligi, baliq turlari bo‘yicha baliq yetishtirishning cheklanganligi hamda mavsumiyliги, sohani ixtisoslashuv darajasining pastligi kabi jihatlari bilan farqlansa, boshqaruv nuqtayi nazaridan oladigan bo‘lsak baliqchilik xo‘jaliklarida risk va xatarlar darajasi yuqoriligi, malakali kadrlar bilan etarli darajada ta‘minlanmaganligi, raqamlashtirish darajasining pastligi, mahalliy byurokratik to‘siqlarning haligacha mavjudligi bilan ajralib turadi.

Baliqchilik xo‘jaliklari uchun infratuzilmaning zaif rivojlanganligi, yetarli darajada moliyaviy ta‘minlanmaganligi va daromadlarining nisbatan pastligi moliyaviy-iqtisodiy jihatlarda namoyon bo‘ladi.

Geografik-hududiy jihatdan baliqchilik xo‘jaliklari resurslarining jamlanganligi va sotish bozorlaridan uzoqligi, bozorlarining cheklanganligi, logistika darajasi pastligi, suv ta‘minoti darajasining nisbatan pastligi kabi jihatlari bilan farqlanadi.



3.2.3 – rasm. Baliqchilik sohasida baliqchilik xo‘jaliklari faoliyat ko‘rsatishining o‘ziga xos xususiyatlari¹⁷⁷

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek: *Yana bir muhim masalaga e‘tiboringizni jalb etishni istardim. Aholi daromadlarini*

¹⁷⁷ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

oshirish, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish, mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish uchun bizga yangi-yangi bozorlar kerak¹⁷⁸.

Tadbirkorlar tomonidan yetishtirilayotgan baliq va baliq mahsulotlarining asosan ichki bozorlarga yo‘naltirilganligi sababli talabga nisbatan taklifning ortib borishi natijasida tadbirkorlar ko‘zlangan samaraga ega bo‘lmayapti.

Xorazm viloyati uchun yaqin kelajakda qo‘shni viloyatlar bozoriga chiqish va uzoq istiqbolda xorijiy davlatlar bozorlarini ham egallash strategik maqsad sifatida belgilanishi kerak (3.2.1-jadval).

3.2.1 – jadval

Xorijiy davlatlar bozorini egallash bo‘yicha amalga oshirish zarur bo‘lgan ishlar haqida tavsiyalar¹⁷⁹

1. Baliqchilik sohasini rivojlantirish.	1.1. Baliqchilik sohasini bozor munosabatlariga moslashtirib borish, bozor talablariga qarab takomillashtirish, barqarorlikni ta‘minlash, bozorlardagi talab va takliflarni o‘rganish. 1.2. Sohani rejali baliq tutishni yo‘lga qo‘yish orqali rivojlantirish. Baliq ovlash va baliqlarni urchish davrida tegishli nazorat organlari tomonidan nazoratni kuchaytirish, tabiiy muhitni muhofaza qilish. Baliq tutish me‘yorlarini asoslash. 1.3. Baliqchilik sohasini moliyaviy tizimini yaxshilash. Imtiyozli kreditlar, subsidiyalar ajratish orqali. Buning uchun tijorat banklari bilan hamkorlikni kuchaytirish kerak. 1.4. Urug‘lar (baliq turlari bo‘yicha) ishlab chiqarishni jonlantirish va kichik biznes (fermer) xo‘jaliklariga urug‘ yetkazib berish tizimi samaradorligini takomil-lashtirish. Qimmatli baliq turlari va chavoqlarini intensiv yetishtirish uchun pitom-nik va naslchilik ishlarini davlat-xususiy sheriklik shartlarida takomillashtirish. 1.5. Baliqchilik sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, ilmiy-tadqiqot ishlarni kuchaytirish va ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish, baliqchilik sohasi xodimlari malakasini oshirish tizimini yo‘lga qo‘yish orqali kadrlar salohiyatini oshirish. Baliqchilik sohasida xorij tajribalarini qo‘llash.
2. Akvakulturani rivojlantirish va bu tajribani respublika hududlariga yoyish.	2.1. Akvakulturani rivojlanishi uchun qo‘llab-quvvatlash tizimini barpo etish. 2.2. Xodimlarni o‘qitish va malakasini oshirish. Standart modelni yaratish. Bilim va tajribalarni tarqatish va omma e‘tiboriga yetkazish. 2.3. Namunaviy ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish. 2.4. Yangi suv havzalarini ochish 2.3. Akvakulturani rivojlantirish bo‘yicha qo‘llanmalar ishlab chiqarish va tarqatish. 2.5. Akvakulturani rivojlantirish bo‘yicha faoliyatni kengaytirishda mehnat resurslari, texnik va ma‘muriy axborotlar kabi zarur shart-sharoitlarni yaratish.

¹⁷⁸ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси [Матн] / Ш.М. Мирзиёев – Тошкент: “O‘zbekiston” nashriёти, 2021. -464 б.

¹⁷⁹ Япония Халқаро Ҳамкорлик Агентлиги (JICA), 2011 йил феврал. Ўзбекистон Республикасида Қорақалпоғистоннинг ҳудудий ривожланиш имкониятларини тадқиқот қилиш. Якуний ҳисобот қисқача мазмуни. маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси.

3. Eksport salohiyatini oshir	3.1. Baliqlarni qayta ishlash va baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish (konserva, ikra, baliq uni va boshqalar) bo'yicha zamonaviy komplekslarni tashkil etish. Birinchi navbatda, aholi ehtiyojlarini qondirish, shuningdek, keyinchalik qo'shni mamlakatlarga eksport qilish uchun. 3.2. Oziq-ovqat xavfsizligi va sifatini nazorat qilish tizimini modernizatsiya qilish. Sohada mahsulot sifatini ta'minlash maqsadida sovetlash moslamalari bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish. 3.3 Xalqaro bozorlarda tan olingan sifat standartlarini joriy etishga ko'maklashish mexanizmlarini ishlab chiqish. Milliy sifat tizimini takomillashtirish bo'yicha reja ishlab chiqish. 3.4. Tayyor baliq mahsulotlarini sotish uchun eksport qilishga mo'ljallangan transport-logistika infratuzilmasini tashkil etish. Mahalliy va maqsadli xalqaro bozorlarda baliq va baliq mahsulotlari marketingi va tashish xarajatlarini kamaytirish. 3.5. Sohada tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish. Xorijiy hamkorlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish. 3.6. Eksportga mo'ljallangan mahsulotlar salmog'ini oshirish maqsadida ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish. 3.7. Tayyor mahsulotlarni eksport qilishga yo'naltirilgan xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar sonini kupaytirish va faoliyatini takomillashtirish.
3. Eksport salohiyatini oshirish	3.8. Respublikaning eksport bozorida mavqei mustahkamlash va kengaytirish, yangi eksport bozorlarini egallash. 3.9. KBXTning eksportdagi ishtirokini rag'batlantirish maqsadida zarur shart-sharoitlar yaratish. 3.10. Soha va sohaning hududlar eksport salohiyatidan samarali foydalanishni ko'zda tutadigan, o'zaro muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va izchil amalga oshirish.

Xorijiy davlatlar bozorini egallash bo'yicha amalga oshirish uchun quyidagi uchta yo'nalishni tanladik: 1.Baliqchilik sohasini rivojlan-tirish. 2.Akvakulturaning rivojlantirish va bu tajribani respublika hududlariga yoyish. 3.Eksport salohiyatini oshirish. (3.2.1-jadval).

Baliqchilik sohasini rivojlantirish yo'nalishida baliqchilik sohasini bozor munosabatlariga moslashtirib borish, bozor talablariga qarab takomillashtirish, bar-qarorlikni ta'minlash, bozorlardagi talab va takliflarni o'rganish; sohani rejali baliq tutishni yo'lga qo'yish orqali rivojlantirish, baliq ovlash va baliqlarni urchish davrida tegishli nazorat organlari tomonidan nazoratni kuchaytirish, tabiiy muhitni muhofaza qilish; baliq tutish me'yorlarini asoslash; Baliqchilik sohasini moliyaviy tizimini yaxshilash, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar ajratish orqali; baliq turlari bo'yicha urug'lar ishlab chiqarishni ko'paytirish hamda kichik biznes (fermer) xo'jaliklariga yetkazib berish tizimini samaradorligini takomillashtirish; qimmatli baliq turlari va chavoqlarini intensiv yetishtirish uchun pitomnik va naslchilik ishlarini davlat-xususiy sheriklik shartlarida takomillashtirish; baliqchilik sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, ilmiy-tadqiqot ishlarni kuchaytirish va ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish, baliqchilik sohasi xodimlari malakasini oshirish tizimini yo'lga qo'yish orqali kadrlar salohiyatini oshirish; baliqchilik sohasida xorij tajribalarini qo'llash kabi vazifalarni maqsad qilib oldik.

Ikkinchi yo'nalish ya'ni akvakulturaning rivojlantirish va bu tajribani

respublika hududlariga yoyish yoʻnalishida ham bir qancha vazifalarni maqsad qilib oldik. Jumladan, akvakulturani rivojlanishi uchun qoʻllab-quvvatlash tizimini barpo etish, xodimlarni oʻqitish va malakasini oshirish standart modelini yaratish, bilim va tajribalarni tarqatish va omma eʼtiboriga yetkazish, yangi suv havzalarini ochish, akvakulturani rivojlantirish boʻyicha faoliyatni kengaytirishda mehnat resurslari, texnik va maʼmuriy axborotlar kabi zarur shart-sharoitlarni yaratish va boshqalar.

Uchinchi yoʻnalish boʻlgan eksport salohiyatini oshirish yoʻnalishida ham bir qator vazifalarni belgilab oldik, masalan: baliqlarni qayta ishlash va baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish (konserva, ikra, baliq uni va boshqalar) boʻyicha zamonaviy komplekslarni tashkil etish, oziq-ovqat xavfsizligi va sifatini nazorat qilish tizimini modernizatsiya qilish, sohada mahsulot sifatini taʼminlash maqsadida sovutish moslamalari bilan taʼminlanganlik darajasini oshirish, jahon bozorlarida tan olinadigan sifat standartlarini joriy etishga koʻmaklashish mexanizmlarini ishlab chiqish, milliy sifat tizimini takomillashtirish boʻyicha reja ishlab chiqish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish, xorijiy hamkorlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, eksportbop mahsulotlar salmogʻini oshirish maqsadida ishlab chiqarishga ilgʻor xorijiy texnologiyalarni jalb qilish, respublikaning eksport bozoridagi mavqeini mustahkamlash va kengaytirish, yangi eksport bozorlarini egallash, baliqchilik sohasida KBXTning eksportdagi ishti-rokini ragʻbatlantirish, buning uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va hako-zolar.

Biz tadqiqotlarimiz davomida shahar va qishloq aholi punktlarida xizmat koʻrsatish obyektlarini joylashtirish meʼyorlarini ham koʻrib chiqdik (3.2.3-jadval).

Meʼyorlar hisob-kitoblarida quyidagilar koʻrib chiqiladi:

- a) aholini xizmatlar turlari bilan taʼminlanganlik darajasi;
- b) daromadlarning oʻsishiga muvofiq xizmatlarga boʻlgan isteʼmol talabining prognozi;
- v) xizmatlar sohasidagi isteʼmol afzalliklari.

Shahar va qishloq mahallalarida tirik baliq va isteʼmolga tayyor baliq mahsulotlarini sotish bilan shugʻullanadigan mobil (koʻchma) doʻkonlarni joylashtirish meʼyorlarini aniqlaymiz. Buning uchun infratuzilma obyektlarini joylashtirish xizmat koʻrsatish sohalarining aholi sonining gradatsiyasi boʻyicha qishloq va shahar joylari darajasida koʻrib chiqiladi.

Xizmat koʻrsatish obyektlarini joylashtirish meʼyorlarini hisoblashda aholi yoki joylardagi oilalar soni va aholi murojaatlari soni hisobga olinadi. Shunga asosan, xizmatlarga boʻlgan talab quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$D = R/T,$$

bu yerda: **D** – xizmatlarga talab; **R** - aholi yoki oilalar soni; **T** - murojaatlar soni.

Quyida aholi tomonidan boʻladigan talabni qondirish uchun zarur boʻlgan tirik va isteʼmolga tayyor pishirilgan baliq sotish bilan shugʻullanuvchi mobil (koʻchma) doʻkonni Urganch tuman Qorovul qishloq Shodlik mahallasiga joylashtirish meʼyorlarini hisoblaymiz.

Hududda tirik va istemolga tayyor baliq mahsulotlarini sotish bilan shug'ullanuvchi mobil (ko'chma) do'kon tadbirkorligi. Tirik va pishirilgan baliq sotish xizmati.

Urganch tuman Qorovul qishloq Shodlik mahallasida xonadonlar soni – 800, aholi soni – 4600.

4600 kishilik yoki 800 ta oila (oila koeffitsiyenti shartli ravishda – 5,75 deb qo'llaniladi) yashaydigan Urganch tuman Qorovul qishloq Shodlik mahallasida do'konga tashriflar sonini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$800 \cdot 1/7 = 114$ tashrif (baliq xarid qilish uchun bir oila haftada bir marta tashrifi).

Aholi soni kattaligi va tashriflar sonidan kelib chiqqan holda Shodlik mahallasiga 2 ta baliq va baliq mahsulotlari sotishga mo'ljallangan do'kon joylashtiriladi. Xar bir do'kon joylashgan hududda 2300 kishi yoki 400 ta oila yashaydi. Yuqoridagi formuladan kelib chiqqan holda tashriflar sonini hisoblaymiz:

$400 \cdot 1/7 = 57$ tashrif (baliq xarid qilish uchun bir oila haftada bir marta tashrifi).

2 ta do'kon – xar bir do'konda 2 ta sotuvchidan jami 4 ta sotuvchi = 2300 kishi yoki 400 oila / 7 = 57 tashrif kuniga. Haftasiga 1-marta tashrif.

Ushbu ko'chma do'kon aholi talabini inobatga olgan holda tirik va pishirilgan baliq savdosi bilan shug'ullanadi.

Hozirda viloyatda amaldagi baliq narxlarini inobatga olgan holda mobil do'konlarda sotiladigan hamda restoran, choyxona, kafe va boshqa turdagi ovqatlanish shahobchalaridagi baliq narxlarini tahlil qilamiz.

3.2.2 – jadval

Xorazm viloyati mavjud restoran, choyxona, kafe va boshqa turdagi ovqatlanish shahobchalarida 1 kg pishirilgan baliq narxlari¹⁸⁰

Baliq turi	Restoran, kafe, choyxonalardagi narx, so'm (+10% xizmat haqi bilan)	Mobil do'kondagi narx, so'm	Farqi (V-S) (+/-), so'm
A	V	S	D
Sudak	143 000	80 000	-63 000
Karp, sazan	104500	65 000	-39 500
Chipor do'ngpeshona (Pyostri)	88 000	50 000	-30 000
Oq do'ngpeshona (Moy bosh)	77 000	40 000	-30 000

3.2.2-jadvaldan ko'rinadiki, restoran, kafe, choyxonalarda pishirilgan sudak balig'i narxi 130 ming so'm bo'lib, 10% xizmat haqi narxi bilan 143 ming so'mni tashkil qiladi. Mobil do'konda esa 1 kg pishirilgan sudak balig'i 80 ming so'mni tashkil qiladi. Bundan ko'rinadiki, aholi mobil do'konlardan pishirilgan baliq sotib olib is'temol qilganda 1 kg pishirilgan sudak balig'ini o'zidan 63 ming so'm tejaydi, natijada aholining tejalgan summaga boshqa biron bir mahsulot sotib olish imkoniyati paydo bo'ladi. Shuningdek, karp, sazan, oq do'ngpeshona (moy bosh),

¹⁸⁰ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

chipor do'ngpeshona (pyostri) baliqlari narxlarida ham shunday xolat kuzatildi.

Biz tadqiqotlarimizni davom qildirib, viloyatimiz shahar hamda tuman qishloq aholi punktlarida mavjud xonadonlar va aholi soniga qarab xizmat ko'rsatish obyektlarini joylashtirishdik (3.2.3 – jadval).

Xorazm viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra 2022-yil 1-yanvar holatiga viloyat aholisi soni – 1 924 296 nafar bo'lib, mahallalar soni – 526 tani, xonadonlar soni – 379 387 ta tashkil qiladi. Aholi soni va mahallalardagi xonadonlar sonidan kelib chiqib, shahar va tumanlar qishloq aholi punktlariga baliq va baliq mahsulotlari sotish uchun jami 837 ta do'kon joylashtirish natijasida 1 674 ta ishchi o'rni yaratiladi. Aholi va xonadonlar sonining o'sishini inobatga olgan holda 2025-yilga prognoz parametrlarini hisoblab chiqamiz. Hisob kitoblarga ko'ra 2025-yilda aholi soni 2 042 560 nafarni tashkil qilib, unga ko'ra baliq va baliq mahsulotlari sotish uchun jami 888 ta do'kon joylashtirish va 1776 ta ishchi o'rni yaratish prognoz parametrlari ishlab chiqildi (3.2.3 – jadval).

3.2.3 – jadval

Viloyat shahar va tuman qishloq aholi punktlarida xizmat ko'rsatish obyektlarini joylashtirish haqida ma'lumotlar¹⁸¹

Hududlar nomi (shahar va tuman)	Mahalla soni	Xonadon soni	Aholi soni (kishi)	Mobil do'kon soni	Ish o'rinlari soni	*2025		
						Aholi soni	Mobil do'kon soni	Ish o'rinlari soni
Viloyat bo'yicha jami	526	379 387	1 924 296	837	1674	2042560	888	1776
Urganch shahri	38	39 279	146 719	64	128	155736	68	136
Xiva shahri	21	19 306	95 204	41	82	101055	44	88
Bog'ot tumani	43	31 631	169 508	74	148	179926	78	156
Gurlan tumani	50	27 430	151 915	66	132	161252	70	140
Qo'shko'pir tumani	50	33 223	176 112	77	154	186935	81	162
Urganch tumani	60	39 563	205 509	89	178	218139	95	190
Xazorasp tumani	44	37 341	198 715	86	172	210927	92	184
Tuproqqal'a tumani	18	14 011	56 602	25	50	60080	27	54
Xonqa tumani	44	34 270	191 601	83	166	203376	88	176
Xiva tumani	34	28 670	149 703	65	130	158905	69	138
Shovot tumani	55	33 166	174 403	76	152	185123	80	160
Yangiariq tumani	39	23 519	118 901	52	104	126208	55	110
Yangibozor tumani	30	17 978	89 404	39	78	94898	41	82

* Bashorat qilingan yil

Fikrimizcha, yuqoridagi o'tkazgan tadqiqotlarimizdan kelib chiqqan holda, baliqchilik sohasida KBXT subyektlari tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish hamda KBXT subyektlari faoliyati samaradorligini oshirish

¹⁸¹ Xorazm viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

orqali nafaqat Xorazm viloyati, balki Respublikamiz viloyatlari va qo'shni respublikalar aholisini baliq va baliq mahsulotlari bilan ta'minlash darajasini oshirgan bo'lar edik. Shu bilan birga yangi ish o'rinlari yaratish, aholi farovonligini ta'minlash hamda daromadlarini oshishiga zamin yaratgan bo'lar edik.

3.3-§. Xorazm viloyati baliqchilik tizimida KBXTni rivojlantirishni ekonometrik modellash va prognoz parametrlari

Aholi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish hamda turmush faravonligini ta'minlash, boshqa tomondan ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqish va aholini xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishini tibbiy me'yorlar darajasiga olib chiqish kabi bir qator muammolar mavjudligi ilmiy tadqiqot ishimizning oldingi paragraflarida keltirilgan. Bundan tashqari keyingi davrda aholi real daromadlari oshishi sababli yuqori kaloriyaga ega bo'lgan go'sht mahsulotlariga bo'lgan talabning oshib borishi uning narxidagi keskin o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda.

Aholini go'sht mahsulotlariga bo'lgan talabni to'laqonli qondirish va uning narxidagi o'zgarishlarni baqarorlashtirish bu sohani rivojlantirish bo'yicha istiqbolli rejalarni ishlab chiqishni talab qilmoqda. Xususan ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan chora tadbirlardan biri o'rinbosar mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'lib, parrandachilik va baliqchilik sohalarini rivojlantirish keltirib o'tilgan muammolarning yechimi sifatida qaralmoqda. Tahlil natijalaridan ma'lumki tadqiqot obyekti bo'lgan Xorazm viloyatida baliq yetishtirish hajmi 2010-2021-yillar mobaynida 12 barobarga oshishi ta'minlangan. Baliqchilik bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklar soni esa 4,4 barobarga oshishi kuzatilgan.

Ushbu yo'nalishning keyingi davrdagi istiqbolli ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va shunga asoslangan holda maqsadli rejalarni ishlab chiqish soha rivojidadagi baroqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi, shu sababli baliqchilik sohasi rivoji natijalarini ifodalovchi qator ko'rsatkichlarning oldingi davrdagi dinamikasi tadqiq qilingani holda keyingi yillar uchun prognoz qiymatlari ishlab chiqildi.

Suv tanqisligini kuchayishi tabiiy suv havzalarining qisqarishi baliqchilik sohasida ham intensiv usullardan foydalanish, baliq yetishtiruvchi maxsus xo'jaliklar sonini oshirishni talab qilmoqda. Shu sababli Xorazm viloyatida 2010-2021-yillarda baliqchilik xo'jaliklari sonidagi o'zgarish dinamikasiga mos bo'lgan modelni tanlagan holda uning keyingi besh yil uchun prognoz qiymatlarini ishlab chiqqanmiz. Amalga oshirilgan korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra viloyatdagi baliq xo'jaliklari sonini prognoz qilish uchun eng ishonchli va maqbul model quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi.


$$(1 - L)^2 BXS_t = 4,75 - 0,99 * (1 - L)^2 \varepsilon_{t-1}$$

Bu yerda: BXS–Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan baliqchilik xo'jaliklari soni.

Ushbu modelning adekvatligini asoslash uchun qarot mezonlarga e'tibor qaratib o'tamiz. Jumladan, har bir aniqlangan koeffitsiyentning adekvatligini asoslash uchun Styudent mezon natijalarini qarab chiqamiz. Ozod hadning

adekvatligini asoslash bo'yicha aniqlangan koeffitsiyenti ehtimolliiy ko'rsatkichi 0,071 tashkil qilmoqda bu 95 foizlik ishonch oralig'i uchun belgilangan me'yorda 2 foizda yuqori demakdir. Boshqacha aytganda mazkur koeffitsiyentning ishonchliligi 93 foizni tashkil qilmoqda. Ikkinchi koeffitsiyent bo'yicha aniqlangan qiymatlar talab darajasida ekanligini kuzatish mumkin.

Shuningdek determinatsiya koeffitsiyentining 0,98 ni tashkil qilganligi mazkur modeldan prognoz qiymatlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin ekanligini asoslaydi. MAPE ko'rsatkichi ham 5,7 ni tashkil qilgani holda modelning ishonchlilik darajasi yuqori ekanligidan dalolat bermoqda. Model yordamida baholangan ko'rsatkichlar hamda haqiqiy ko'rsatkichlar orasidagi xatolikning kichik ekanligi ham modelning ishonchli ekanligini asoslamoqda (3.3.1 – rasm).



3.2.1 – rasm. Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan baliqchilik xo‘jaliklari sonining prognoz qiymatlari.

Bundan tashqari bir qator zaruriy mezonlar ham keltirib o‘tilgan bo‘lib ular ham modelning ishonchliligini ko‘rsatmoqda (3.3.1-jadval).

3.3.1-jadval

Xorazm viloyatida baliqchilik xo‘jaliklari sonini modellashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan regression tahlil natijalari¹⁸²

Model 9: ARIMA, using observations 2012-2021 (T = 10)

Dependent variable: $(1-L)^2 BXS$

Standard errors based on Hessian

	<i>Soeffisient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>z</i>	<i>p-value</i>	
sonst	4.75450	2.63215	1.806	0.0709	*
theta_1	-0.999998	0.341712	-2.926	0.0034	***
Mean dependent var	3.600000		S.D. dependent var		43.94744
Mean of innovations	3.356251		S.D. of innovations		27.60620
R-squared	0.982717		Adjusted R-squared		0.982717
Log-likelihood	-48.56873		Akaike sriterion		103.1375
Sshwarz sriterion	104.0452		Hannan-Quinn		102.1417
	<i>Real</i>	<i>Imaginary</i>	<i>Modulus</i>	<i>Frequensy</i>	
MA					
Root 1	1.0000	0.0000	1.0000	0.0000	

¹⁸² Manba: muallif ishlanmasi

Yuqorida keltirib o‘tilgan tahlil natijalariga asoslangan holda ushbu ishlab chiqilgan modeldan foydalangan holda Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan baliqchilik xo‘jaliklari sonini keyingi yillar uchun prognoz qiymatlari hisoblandi (3.3.2-jadval).

3.3.2-jadval

Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan baliqchilik xo‘jaliklari sonining prognoz qiymatlari¹⁸³

For 95% sonfidense intervals, $z(0.025) = 1.96$

Obs	BXS	predistion	std. error	95% interval
2022	undefined	894	27.6062	(839.536, 947.750)
2023	undefined	985	39.0411	(908.521, 1061.56)
2024	undefined	1081	47.8154	(987.476, 1174.91)
2025	undefined	1182	55.2125	(1073.88, 1290.31)
2026	undefined	1288	61.7295	(1166.77, 1408.75)

Jadvaldagi ma’lumotlarga ko‘ra 2022-yilda viloyatda baliqchilik xo‘jaliklari soni 894 birlikni tashkil qilib, 2021-yilga nisbatan 10,7 foizga oshishi ta’minlanadi. Ishlab chiqilgan prognoz natijalariga ko‘ra keyingi besh yillikda baliqchilik xo‘jaliklari sonining barqaror o‘sishi aniqlandi. Natijada 2026-yilga borib ular soni 1288 birlikni tashkil qilgani holda 2021-yilga nisbatan 1,6 barobarga oshadi va o‘rtacha o‘sish sur‘ati 9,8 foizni tashkil qiladi. Bundan ko‘rinadiki viloyatda baliqchilik xo‘jaliklarini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni mavjud darajada davom qildiradigan bo‘lsak, sohaning barqaror o‘sish sur‘atlari ta’minlanadi. Ammo barcha sohalarda bo‘lgani kabi xo‘jaliklar sonini oshrib borishi ularning miqdor jihatdan oshishi ta’minlansada, nisbat jihatdan kamayishi kuzatiladi. Ya’ni tadqiq qilinayotgan 2010-2021-yillarda xo‘jaliklarning o‘rtacha o‘sish sur‘ati 14,5 foizni tashkil qilgan. Aslida esa 11 yilda xo‘jaliklar soni 625 birlikka oshgan bo‘lsa, keyingi besh yildagi prognoz natijalariga ko‘ra 394 birlikka oshishi aniqlandi.


Xo‘jaliklar sonidagi yuqori o‘sish sur‘atlari tabiiyki o‘z navbatida yetishtirilgan baliq hajmini ham oshishini ta’minlaydi. Shu sababli viloyatda yetishtirilgan baliq hajmining tendensiyalarini aniqlangan holda ishlab chiqilgan model yordamida prognoz qiymatlarini ishlab chiqildi. Regression tahlil natijalariga ko‘ra eng maqbul model quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi.

$$(1 - L)^2 EBH_t = -0,91 * (1 - L)^2 EBH_{t-1} + 0,68 * (1 - L)^2 \varepsilon_{t-1}$$

Bu yerda: EBH – Xorazm viloyatida yetishtirilgan baliq hajmi tonnada.

Mazkur ishlab chiqilgan modelning adekvatligini asoslash uchun zaruriy barcha mezonlar keltirib o‘tilgan bo‘lib, ularning barchasi belgilangan talab darajasida ekanligini ko‘rish mumkin (3.3.3-jadval). Keltirib o‘tilgan mezolarga qo‘shimcha ravishda haqiqiy va baholangan ko‘rsatkichlarning qanchalik darajada bir-biriga mos ekanligini ifodalovchi chizma ham keltirib o‘tilgan (3.3.2 – rasm).

¹⁸³ Manba: muallif ishlanmasi



3.3.2 – rasm. Xorazm viloyatida yetishtirilgan baliq hajmining prognoz qiymatlari.

Undan ko‘rishimiz mumkinki model yordamida baholangan ko‘rsatkichlar bilan haqiqiy ko‘rsatkichlar deyarli ustma-ust tushmoqda va ishlab chiqilgan modelning ishonchliligini asoslashga xizmat qilmoqda.

3.3.3-jadval

Xorazm viloyatida yetishtirilgan baliq hajmini modellashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan regression tahlil natijalari¹⁸⁴

Model 1: ARIMA, using observations 2012-2021 (T = 10)

Dependent variable: $(1-L)^2$ EBH

Standard errors based on Hessian

	<i>Soeffisient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>z</i>	<i>p-value</i>	
phi_1	-0.910184	0.189287	-4.808	<0.0001	***
theta_1	0.682429	0.334702	2.039	0.0415	**
Mean dependent var	868.4700		S.D. dependent var	2383.140	
Mean of innovations	882.1106		S.D. of innovations	2156.725	
R-squared	0.944670		Adjusted R-squared	0.937754	
Log-likelihood	-91.17698		Akaike sriterion	188.3540	
Sshwarz sriterion	189.2617		Hannan-Quinn	187.3582	
	<i>Real</i>	<i>Imaginary</i>	<i>Modulus</i>	<i>Frequensy</i>	
AR					
	Root 1	-1.0987	0.0000	1.0987	0.5000
MA					
	Root 1	-1.4654	0.0000	1.4654	0.5000

¹⁸⁴ Manba: muallif ishlanmasi

Ishlab chiqilgan ARIMA (1 2 1) modelidan foydalangan holda viloyatda yetishtirilgan baliq hajmining keyingi yillar uchun prognoz ko'rsatkichlari hisoblab chiqildi (3.3.4-javdal).

Hisoblangan prognoz natijalariga ko'ra keyingi yillarda yetishtirilgan baliq hajmining yuqori o'sish sur'atlari ta'minlanadi, ya'ni 2026-yilga borib 72678,2 tonnani tashkil qilgani holda 2021-yildagiga nisbatan 2,3 barobarga oshishi kuzatiladi va yillik o'rtacha o'sish sur'ati 18,5 foizga teng bo'ladi. Agarda ushbu natijalarni tadqiq qilinayotgan davrdagi o'sish sur'ati bilan solishtiradigan bo'lsak, nisbatan pasayishni kuzatish mumkin. Chunki, 2010-2021-yillarda viloyatda yetishtirilgan baliq miqdorining yillik o'rtacha o'sish sur'ati 25,5 foizni tashkil qilgani holda 12,2 barobarga oshishini ta'minlagan.


3.3.4-jadval

Xorazm viloyatida yetishtirilgan baliq hajmining prognoz qiymatlari¹⁸⁵

For 95% sonfidense intervals, $z(0.025) = 1.96$

Obs	EBH	predistion	std. error	95% interval
2022	undefined	38742.2	2156.73	(34515.1, 42969.3)
2023	undefined	47948.8	4388.74	(39347.0, 56550.6)
2024	undefined	55716.0	7381.30	(41248.9, 70183.1)
2025	undefined	64793.4	10623.6	(43971.5, 85615.3)
2026	undefined	72678.2	14397.0	(44460.6, 100896.)

Ikkala ko'rsatkichning keyingi yillar uchun hisoblangan prognoz natijalariga ko'ra viloyatda baliqchilik sohasining nafaqat miqdor jihatdan oshishi balki samaradorlikni ham oshishi ta'minlanadi. Chunki, yetishtirilgan baliq hajmini xo'jaliklar soniga nisbatan yuqori o'sish sur'atiga ega bo'lishi har bir xo'jalikka to'g'ri keladigan mahsulot hajmini o'sishini ta'minlaydi.



3.3.3-rasm. Har bir baliqchilik xo'jaligiga to'g'ri kelgan baliq miqdori tonnada¹⁸⁶

Aniqlangan ko'rsatkichlardan ma'lumki 2026-yilga borib viloyatda har bir baliqchilik xo'jaligiga to'g'ri kelgan baliq miqdori 56,4 tonnani tashkil qilgani holda 2021-yildagiga nisbatan 1,5 barobarga yuqori qiymatga ega bo'ladi. Tadqiq

¹⁸⁵ Manba: muallif ishlanmasi

¹⁸⁶ Manba: muallif ishlanmasi

qilinayotgan davrda har bir xo‘jalikka to‘g‘ri keladigan baliq miqdorini o‘shishda barqarorlik kuzatilmagan bo‘lsada, keyingi yillarda barqarorlikni ta‘minlanishi kuzatilmoqda. Chunki, 2016-2018-yillarda yetishtirilgan baliq hajmidagi o‘shish sur‘atining past bo‘lishi samaradorlik ko‘rsatkichini past bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Umumiy hisobda shuni ta‘kidlash mumkinki prognoz qilinayotgan davrda har bir baliqchilik xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan baliq miqdorining yillik o‘rtacha o‘shish sur‘ati 7,9 foizni tashkil qilishi kutilmoqda.

Baliqchilik sohasining rivojlantirilishi aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan baliq mahsulotlarini tadqiq qilinayotgan davrda 1,6 kilogramdan 16,2 kilogramga qadar oshganligini ko‘rsatmoqda. Ammo shuni alohida ta‘kidlash kerakki mamlakatda yetishtirilgan baliqning 18,1 foizini viloyat hissasiga to‘g‘ri kelishi hamda baliq mahsulotlarini boshqa viloyatlarga yuborilishini hisobga oladigan bo‘lsak, bu ko‘rsatkichni haqiqatda pastroq ekanligini asoslaydi. Shu sababli aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan mahsulot miqdorini yanada oshirish lozimligi talab qilinadi.

Shu sababli aholi sonini keyingi yillar uchun o‘shishini prognoz qiymatlarini ishlab chiqqan holda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan baliqning keyingi yillar uchun prognoz qiymatlarini aniqlaymiz. Grafik usuli asosida amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra viloyatda aholi sonini prognoz qilishi uchun trend modeli eng maqbul variant ekanligi aniqlandi.

$$AS = 1568,4 + 29,6 * t$$

Bu yerda: AS – Xorazm viloyatidagi aholi soni ming kishi.

Mazkur modelning barcha mezonlari talab darajasida bo‘lib, ushbu modeldan prognoz natijalarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligini asoslaydi (3.3.5-jadval). Durbin – Uatson ko‘rsatkichiga alohida e‘tibor qaratib o‘tishni joiz topdik, chunki mazkur ko‘rsatkich biroz kichik qiymatga ega bo‘lmoqda. Mezonning quyi va yuqori chegaralarini keltirib o‘tamiz, ya‘ni $DL=0,97$, $DU=1,33$ ga teng ekanligini kuzatish mumkin. Model natijalari bo‘yicha aniqlangan ko‘rsatkich esa 1,23 ni tashkil qilgani holda quyi va yuqori chegaralar orasiga to‘g‘ri kelmoqda.

3.3.5-jadval

Xorazm viloyatida yetishtirilgan baliq hajmini modellashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan regression tahlil natijalari¹⁸⁷

Dependent variable: AS

	<i>Soeffisient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>t-ratio</i>	<i>p-value</i>	
sonst	1568.35	1.21181	1294.	<0.0001	***
time	29.6377	0.164653	180.0	<0.0001	***
Mean dependent var	1760.997		S.D. dependent var	106.8769	
Sum squared resid	38.76800		S.E. of regression	1.968959	
R-squared	0.999691		Adjusted R-squared	0.999661	
F(1, 10)	32400.57		P-value(F)	6.88e-19	
Log-likelihood	-24.06339		Akaike sriterion	52.12679	
Sshwarz sriterion	53.09660		Hannan-Quinn	51.76773	
rho	0.261370		Durbin-Watson	1.227361	

¹⁸⁷ Manba: muallif ishlanmasi

Ilmiy adabiyotlarda ushbu oraliq qarorsizlik zonasi (zone of indeseion) deb yuritiladi va bunda aniqlangan ko‘rsatkich avtokorrelyatsiya mavjud yoki mavjud emas deb xulosa berish uchun asos bo‘la olmaydi. Boshqa ko‘rsatkichlarning juda yuqori ekanligi hamda aniqlangan ko‘rsatkichning ham yuqori chegaraga nisbatan yaqin ekanligini hisobga olgan holda ushbu modeldan prognozni amalga oshirish uchun foydalanishga qaror qilindi. Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki modelning ishonchliligini tavsiflovchi MAPE ko‘rsatkichi ham 0,08 ni tashkil qilgani holda ishonchlilik darajasi 99,2 tashkil qilishini ko‘rsatmoqda.

Ishlab chiqilgan model asosida viloyatda aholi sonini o‘shir 2022-2026-yillar uchun hisoblab chiqildi (3.3.6-jadval).


3.3.6-jadval

Xorazm viloyatida aholi sonining prognoz qiymatlari¹⁸⁸

For 95% sonfidense intervals, $t(10, 0.025) = 2.228$

Obs	AS	predistion	std. error	95% interval
2022	undefined	1953.64	2.31199	(1948.49, 1958.79)
2023	undefined	1983.28	2.39266	(1977.95, 1988.61)
2024	undefined	2012.92	2.48165	(2007.39, 2018.45)
2025	undefined	2042.56	2.57810	(2036.81, 2048.30)
2026	undefined	2072.19	2.68119	(2066.22, 2078.17)

Ishlab chiqilgan prognoz natijalariga ko‘ra keyingi besh yilda aholi sonini barqaror o‘shir sur‘ati ta‘minlanadi va har yili aholi soni o‘rtacha 1,5 foizga oshadi. Natijada 2026-yilga borib viloyatdagi jami aholi soni 2072,19 ming kishini tashkil qiladi va bu 2021-yildagiga nisbatan 1,08 barobarga ko‘p demakdir. Aholi soniga nisbatan yetishtirilgan baliq hajmining yuqori bo‘lishi baliq mahsulotlari iste‘moli aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha miqdorini yanada oshishiga sabab bo‘ladi (3.3.4- rasm).



3.3.4-rasm. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yetishtirilgan baliq hajmi kilogrammda¹⁸⁹

Tadqiqotlarimiz natijasidan ma’lum bo‘lishicha keyingi besh yilda yetishtirilgan baliqning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan miqdori deyarli ikki barobardan oshiqroq miqdorga ko‘payishi kuzatilmoqda. Jumladan, 2021-yilda 16,2 kilogramni tashkil qilgan bo‘lsa, 2026-yilga borib 35,1 kilogramga yetishi

¹⁸⁸ Manba: muallif ishlanmasi

¹⁸⁹ Manba: muallif ishlanmasi

aniqlangan. Agarda 2026-yilga borib viloyatda yetishtirilgan baliq hajmi respublikada yetishtirilgan jami baliqning 22,7 foizni tashkil qilishini hisobga oladigan bo'lsak, viloyatda baliq yetishtirish hajmini yanada oshirish lozimligini ta'kidlash mumkin. Respublikada va viloyatda yetishtirilgan baliq hajmini prognoz qiymatlari asosida ulushni o'zgarishini qarab chiqamiz.

Dastlab respublikada yetishtirilgan baliq hajmini prognoz hajmini keltirib o'tamiz ushbu prognozni ishlab chiqish uchun kvadratik modeldan foydalanildi.

$$REBH = 16591,7 + 1050,2 * t^2$$

Bu yerda: *REBH* – O'zbekiston Respublikasida yetishtirilgan baliq hajmi tonnada.

Ishlab chiqilgan modelning adekvatligini asoslovchi mezonlarning barchasi talab darajasida va ularni quyidagi 3.3.7-jadvalda keltirib o'tganmiz.

3.3.7-jadval

O'zbekiston Respublikasida yetishtirilgan baliq hajmini modellashtirish bo'yicha amalga oshirilgan regression tahlil natijalari¹⁹⁰

Model 9: OLS, using observations 2010-2021 (T = 12)

Dependent variable: REBH

	<i>Soeffisient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>t-ratio</i>	<i>p-value</i>	
sonst	16591.7	2045.74	8.110	<0.0001	***
time2	1050.16	28.7614	36.51	<0.0001	***
Mean dependent var	73475.47		S.D. dependent var	50753.59	
Sum squared resid	2.11e+08		S.E. of regression	4592.984	
R-squared	0.992555		Adjusted R-squared	0.991811	
F(1, 10)	1333.187		P-value(F)	5.65e-12	
Log-likelihood	-117.1208		Akaike sriterion	238.2415	
Sshwarz sriterion	239.2113		Hannan-Quinn	237.8824	
rho	0.108521		Durbin-Watson	1.717250	

Ushbu keltirib o'tilgan mezonlardan tashqari MAPE ko'rsatkichiga ham e'tibor qaratib o'tildi, ushbu ko'rsatkich 6,02 ni tashkil qilgani holda modelning moslik darajasi 94 foizga teng ekanligi va ishonchliligi yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Taqdim etilgan mezonlar va tahlil natijalariga asoslanilgan holda Respublikada yetishtirilgan baliq hajmining prognoz qiymatlari ishlab chiqildi (3.3.8-jadval).

3.3.8jadval

